

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”  
kafedrasi**

**HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY  
TARBIYA ASOSLARI**

**fanidan**

**MA’RUZALAR MATNI**

Guliston - 2021

**Tuzuvchi:** GulDU “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”  
kafedrası o’qituvchisi **N.Saidqulov.**

**Taqrizchilar:** GulDU “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”  
kafedrası katta o’qituvchisi **M.Botirov**

GulDU “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”  
kafedrası katta o’qituvchisi **D.Xolnazarova.**

## MUNDARIJA

	<b>Kirish</b>	
	<b>O'quv materiallari</b>	4-14
1-mavzu	Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining predmeti va vazifasi	6-14
2- mavzu	Huquqiy tarbiyani amalga oshirishda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	15-23
3- mavzu	Huquqiy tarbiyaning nazariy asoslari	24-32
4- mavzu	Huquqiy tarbiyaning ta'lim tizimidagi o'rni.	33-43
5- mavzu	Huquqiy tarbiyada shaxs xususiyatlarini hisobga olish.	44-54
6- mavzu	Huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy tarbiyaning o'rni.	55-58
7- mavzu	Huquqiy ongni shakllantirishda huquqiy tarbiyaning o'rni	59-64
8- mavzu	Huquqiy tarbiyada ommaviy vositalardan foydalanish	65-75
9- mavzu	Huquqiy ongni shakllantirish. Huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya	76-79
10- mavzu	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida PF- 5618-son Farmoni- davlat huquqiy siyosatining asosi.Huquqiy savodxonlik- huquqiy madaniyat asosi.	80-84
11- mavzu	Huquqiy tarbiyani olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	85-89
	Ilovalar	
	Foydalaniladigan adabiyotlar	

# O'QUV MATERIALLARI

## 1-MAVZU:

### HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYA ASOSLARI FANINING PREDMETI VA VAZIFASI

#### Reja:

1. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining predmeti
2. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining metodlari
3. Tarbiya va huquqiy tarbiya tushunchalari, uning ta'rif va talqinlari.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining predmeti

Qadim zamonlar (eramizning I asri o'rtalari)dan bizning davrimizgacha etib kelgan "ulug'vorlik haqida"gi asarda shunday fikr bayon etilgan: "odatda har bir olim uchun u amal qilishi kerak bo'lgan ikkita talab qo'yiladi: birinchidan, tadqiqotning predmetini aniqlash;

ikkinchidan, bu mavzuni egallashga yordam beradigan metodlarni topish va ularni ko'rsatish. bunda ikkinchi talab tartib bo'yicha birinchisidan keyin tursa ham, ammo ahamiyati jihatidan juda muhimdir". O'tgan yuz yilliklar bu noma'lum muallif fikrlarining qanchalik dono va haqiqiy ekanligini to'la tasdiqladi. har bir mustaqil o'quv fani uz predmeti va metodiga ega bo'lishi zarur. o'quv fanining predmeti u o'rganadigan masalalarning majmuidir. O'quv fanining metodi ushbu fan mavzulari o'rganiladigan usullardir.

Yuqori malakali huquqshunos bo'lish uchun avvalambor davlat va huquq haqidagi asosiy tushunchalarni, tamoyillarni, ta'limotlarni bilish zarur.

Har qanday nazariya kabi huquqiy madaniyat nazariyasi ham davlat va huquq nazariyasining tarkibiy qismi bo'lib, amaliyot bilan chambarchas bog'liqdir. huquqiy madaniyat nazariyasi huquqiy amaliyot rivojining yo'nalishini belgilab beradi. U huquqiy amaliyot xulosalari va tajribalarining sintezidir.

Huquqiy madaniyat nazariyasi huquqiy amaliyot qonuniyatlarini aks ettiruvchi tajribaning mantiqiy umumlantirishidir. Huquqiy madaniyat nazariyasi huquqiy amaliyot bilan uzviy bog'langan bo'lib, amaliyotga xizmat qiladi va amaliyotdan kelib chikddi.

Huquqiy madaniyat nazariyasi ham amaliy hayot bilan, ham huquqiy amaliyot va tajriba bilan mustaxkam bog'langandir. Tarixiy taraqqiyot jarayonida hayot ilgari so'rgan ulqan vazifalar negizida huquqiy madaniyat nazariyasi o'z xulosa va takliflariga aniqliklar kiritadi, boyitadi va rivojlantiradi. Huquqiy madaniyat har bir jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichidir. demokratik huquqiy davlatni shakllantirishda shaxs, davlat va jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish ustun ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy madaniyat nazariyasi huquqiy madaniyatning asosiy tushunchalari va mohiyati, prinsiplari va qonuniyatlari, jamiyatdagi vazifasi va rivojlanishi haqidagi bilimlarning umumlantirilgan tizimidir.

Har bir jamiyatdagi demokratik o'zgarishlar muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlarga jahon huquqiy taraqqiyoti tamoyillari nuqtai nazaridan qarash zarur. Bu, bir tomondan, O'zbekistondagi huquqiy isloxotlarning yo'nalishlari va mezonlari, qadriyatlarini aniq belgilashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, mamlakatimiz taraqqiyotida huquqiy madaniyatimiz qayerdan kelib, qayoqqa ketayapti, uning o'ziga xos jixatlari, rivojlanishining shakl va ko'rinishlari, mezonlari bormi yoki dunyodagi mavjud huquqiy taraqqiyot uzanidan ketadimi, degan savollarga javob topishga imkon yaratadi. Ana shu muammolar huquqiy madaniyat o'quv fanining qisxacha asosini, uzagini tashqil qiladi.

Demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishdek keng qamrovli ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. shu ma'noda huquqiy davlatning muhim belgisi -bu yuksak darajadagi huquqiy madaniyatdir. ijtamoiiy-iqtisodiy va demokratik isloxotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, zamonaviy bozor munosabatlari mexanizmini yaratish jamiyatimiz oldiga O'zbekiston huquqiy tizimini hamda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini jahon andozalariga moslashtirishdek o'ta dolzarb muammoni hal qilish masalasini qo'ymoqda.

Huquqiy madaniyat, eng avvalo, jamiyat va shaxs umumiy madaniyatining ko'rsatgichidir. Jamiyat madaniyatining yuksak darajasi huquqqa nisbatan chuqur ehtirom, xurmat va uni teran bilishni taqozo etadi. O'z navbatida, huquq normalarining talablarini bilish va ularga rioya etish quldorlik jamiyati demokratikligining va madaniyatining shartlaridan biridir.

Avvalgi tuzum uchun jamiyatda yuksak huquqiy madaniyati bo'lishining keragi yo'q edi. Albatta, davlat xukmron kommunistiq mafkura bilan sug'orilgan huquq talablarini so'zsiz bajaruvchi fuqarolarga ega bo'lishdan manfaatdor edi va u bunga ko'pincha erishardi ham. biroq; bunday tuzum, huquqni to'la amalga oshirishga qaratilgan asl huquqiy madaniyatning, xatto u mafkuralashgan holda bo'lsa ham, hukmron bo'lishiga yo'l qo'ya olmas edi. Tuzum uchun o'z huquqlari va erkinliklarini uncha tasavvur eta olmaydigan fuqaroga qaraganda huquqiy jixatdan savodli inson xavfliroq edi.

Demokratik huquqiy davlatni jamiyat va shaxsning yuksak huquqiy madaniyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Boz ustiga bunday jamiyat mazkur madaniyatni yuksaltirishdan manfaatdordir. Chunki madaniyat totalitarizm va o'zboshimchalikka qo'yilgan to'siq; hamda demokratik prinsiplar va normalarni hayotga joriy etishning asosidir.

Jamiyatimiz huquqiy davlatni barpo etmoqda. Bunday davlatning ko'plab belgilari ko'rinib turibdi, boshqalari uchun esa zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Jamiyat huquqiy madaniyatining ahvoli qanday? U asl huquqiy davlat talablariga javob beradimi? Afsuski, keyingi savolga ijobiy javob bera olmaymiz. Bu savollarga javob berish ushbu o'quv fanining predmetini tashqil etadi. Demak huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror toptan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan xurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmagailarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz.

Ushbu masalalar bo'yicha jamiyatda tashqil topgan g'oya va fikrlar, nazariya va mafkura huquqiy madaniyat nazariyasi tushunchasini vujudga keltiradi. Huquqiy madaniyatni taxlil qilganda, uning ko'p qatlamli, ko'rinish va tarkibiy qismlarining ko'pqirrali ekanligini inobatga olish lozim. Huquqiy madaniyat nazariyasi o'quv fani quyidagi xususiyatlariga ega.

*birinchidan*, huquqiy madaniyat nazariyasi - ijtimoiy fan. chunki uning o'rganadigan soxasi muhim ijtimoiy xodisalar - jamiyat va madaniyat, davlat va huquqdir.

*ikkinchidan*, huquqiy madaniyat nazariyasi - yuridik fan. huquqiy madaniyat ijtimoiy xodisa sifatida bevosita davlat va huquq hayoti bilan bog'langan. Shuning uchun ham u yuridik fandir. Bundan tashqari, huquqiy madaniyat nazariyasi boyicha ijtimoiy fanlardan farqli o'laroq bevosita huquqiy mafkura va huquqiy ruxiyat (psixologiya)ga oid masalalarni o'rganadi.

*uchinchidan*, huquqiy madaniyat nazariyasi - nazariy fan, zero u huquqiy madaniyatning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi.

*turtinchidan*, huquqiy madaniyat nazariyasi - falsafiy xususiyatga ega fan. Chunki u huquqiy madaniyatning qonuniyatlarini yoritish bilan birga, falsafaning jamiyat va madaniyat, davlat va huquq haqidagi umumiy qonunlarini ham ochib beradi.

*beshinchidan*, huquqiy madaniyat nazariyasi - amaliyotga yo'naltirilgan fan. Chunki u demokratik huquqiy isloxotlarni amalga oshirishda nazariy asos bo'lib xizmat kiladi. U shaxs, jamiyat va davlat huquqiy madaniyatini yuksaltirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

*oltinchidan*, huquqiy madaniyat nazariyasi - o'quv-tarbiyaviy ahamiyatga molik fan. Chunki u kishilarning ijtimoiy xodisalar to'g'risidagi tasavvurini, bilimni kengaytiribgina qolmay, balki ularda huquqiy tafakkur va dunyoqarashini tarkib toptirishga, huquqiy madaniyatning mohiyati, rivojlanishi va istiqbolini tushunib olishga yordam beradi.

Har bir huquqiy bilim beruvchi ustoz o'z oldiga aniq maqsad quyishi lozim. Huquqiy bilimning asosiy maqsadi shaxsda, guruhda huquqiy tushunchani shakllantirish va uning asosida huquqiy tarbiyaga erishishdan iboratdir.

Huquqiy bilim olish jarayonida tinglovchilar qonunlarni bilishga, ulardan foydalanshiga, hayotga tadbiiq etishga erishishlari, o'z huquq erkinliklarini mukammal bilib, qonunga rioya qilish majburiyatini o'rganishi lozim.

Huquqiy bilim bilan bog'liq huquqiy tarbiyada shaxslar huquqbuzarlik sodir etmasliklari, qonun doirasida ish tutishlari, o'zlarini va boshqa shaxslarni hurmat qilishlari, davlat, jamiyat va oilada o'rnatilgan tartib-qoidalarni buzmasliklari kabi tarbiyaga erishishlari kerak.

Bu maqsadni amalga oshirishda eng birinchi o'rinni huquqiy ta'lim va shunday ta'limni beruvchi shaxs egallaydi. Fanning vazifasi ham shundadir. Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni eqanligi, unda davlat suverenligi, inson huquq va erkinliklari, burchlari nima eqanligi, shaxsning qanday qanday huquqlari mavjud, ularning qanday kafolatlanganligi, davlat hokimiyati kabi muhim savollar javobini egallash darajasida tinglovchi bilim olishi kerak.

Shuningdek, nafaqat konstitutsiyaviy huquqlarni o`rganish, balki bunday qoidalarning hayotga hamoxangligini o`rganib borish, milliy qonunchiligimizda konstitutsiyaviy qoidalarning kafolatlanishining qay darajadiligini tinglovchini bosqichma-bosqich (oddiydan murakkablikka tomon) solishtirib, unga ilmiy yondashib borish darajasiga etkazib borilishi o`ta dolzarb masaladir. Zero, huquqiy, demokratik degan g`oyalarning o`zi huquqqa tanqidiy, ilmiy yo`nalishni talab etadi. Huquqiy bilim olgan shaxs o`z bilimini hayotda ishlata bilishi, tadbqiq eta olishi kerak. Inson va fuqarolarning huquq, erkinliklari, burchlari bo`yicha dars jarayonida o`rganganlarini hayotda foydalana olish, shaxsning qonun asosida o`zini himoya qilishi, o`z burchlarini bajarishi uning o`z hattiharakatlaridan kelib chiqadi. Bunday hatti-harakatlarning faollashib yoki aksincha susayib borishiga bir qancha omillar o`z ta`sirini ko`rsatishi mumkin.

Masalan ta`lim muassasalaridan ma`sul shaxslar hatti-harakatlari yoki oiladagi shart-sharoitlar bunga o`zining ijobiy eki salbiy ta`sirini ko`rsatib turishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ta`lim muassasalaridagi ma`sullarning o`z faoliyatlarining samaradorligini oshirishi kerak.

«O`zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo`shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta`lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qo`mitalari bilan o`zaro puxta hamkorlik qilish» Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining muhim talabidir. Shuningdek, mehnat huquqidan olingan bilim doirasida shaxs o`z mehnat faoliyatini huquqiy tartibdorasida amalga oshiradi va o`zgalardan, ilm beruvchidan o`zining huquqlarini himoya qila oladi. Ariza, talabnoma, dalolatnoma va boshqa ma`lumotlarni yozish, mehnat shartnomasini to`zish qoidalari haqida, umumiy mehnatta oid huquqiy munosabatlarning jamini hayot taqazo etgan qismini o`rganishga zamin yaratiladi. Ma`muriy huquqni o`rganishda o`quvchi (talaba) davlat boshqaruvi haqida, boshqaruv sohalari, davlat hizmati haqida, ma`muriy huquqiy munosabatlar, ma`muriy huquqbuzarlik tushunchasi, ma`muriy javobgarlik, jazo va hokozolar haqidagi bilimga ega bo`lishdi. Ma`muriy huquqbuzarlikning inson hayoti uchun hafli oqibatlar keltirish tomon harakat eqanligini tinglovchi chuqur his qila olishlari asosiy masaladir. Fuqarolik huquqi fanini misol tariqasida olib qaraydigan bo`lsak, unda fuqarolik huquqiy munosabatlarning kelib chiqish asoslari, mulkiy munosabatlarning inson huquqlari sifatida e`tirof etilishi jamiyatda yashayotgan insonlarga davlat tomonidan, o`z jamiyatini rivojlantirish uchun imkoniyat sifatida qarash mumkin. Masalan, oliy o`quv yurtida yuqoridagi keltirilganidan eng muhim jihatlari ochib berilsa, huquq normalarining elimentlarini tinglovchining o`zi bilib olishga zamin yaratib beriladi va natijada o`quvchi, talaba bunday bilimni o`zi mustaqil egallashga intiladi. Bu esa o`qituvchining mahoratini qay darajada eqanligiga bog`liq albatta.

Ta`limning barcha turlarida huquqni o`qitishda eng muhim tamoyil- «o`zluksizlik» ni esdan chiqarmaslik va «bosqichma-bosqichlik» g`oyasini tayansh maqsadga muvofiqdir.

Har qanday o`quv fani muayyan metodga, usulga, ya`ni o`rganilayotgan xodisalarni anglab etish vositalariga ega bo`ladi. Bunday metodlar ikki guruhga

bo'linadi: *birinchisi* barcha o'quv fanlariga xos bo'lgan metodlar bo'lib, ularning asosida tabiat, jamiyat va tafakkurning eng umumiy qonuniyatlari yotadi; *ikkinchisi* maxsus metodlar bo'lib, ularga sistemali, tarixiy, qiyosiy, sotsiologik va boshqa metodlar kiradi.

Huquqiy madaniyat nazariyasi fanining metodlari - huquqiy madaniyat rivojlanishining qonuniyatlari, hozirgi axvoli va mohiyati haqida bilim olishga yordam beruvchi usul va vositalar birligidan iborat.

XXI asr bo'sag'asida jahonda ro'y berayotgan barcha jarayonlar "inson o'lchovlari" orqali baxolanadi. Huquqiy madaniyat nazariyasi fanining metodologiya asoslarini huquqiy madaniyat masalasiga, *birinchidan*, insoniylik nuqtai nazaridan yondashish, insonga "barcha narsalarning o'lchovi" sifatida qarash;

*ikkinchidan*, shaxsga davlat mashinasining bir vinti sifatida qarashga asoslangan mustabid tushunchadan voz kechib, unga (shaxsga) ijtimoiy sub'ekt sifatida qarash tashqil etadi.

Huquqiy madaniyat nazariyasi fanining metodlari huquqiy madaniyatni o'rganish usullaridir. Har qanday fandagi kabi, huquqiy madaniyat nazariyasida ham turli yondashuvlar, har xil qarashlar mavjud. Huquqiy madaniyat nazariyasining metodlari huquqiy madaniyatning mohiyati, turli jixatlari va xususiyatlarini, rivojlanish qonuniyatlari va prinsiplarini, uni shakllantirish va yuksaltirishni ta'min etadi.

Huquqiy madaniyat nazariyasining metodlari huquqiy madaniyatning ko'p qirralari va qatlamlarini ochib berishga yordam beradi. Ular huquqiy madaniyat to'g'risidagi bilimlarni o'rganish, to'plash va umumlashtirish kalitidir.

Huquqiy madaniyat nazariyasining metodlari huquqiy madaniyatni boshqa ijtimoiy xodisalar bilan uzviy aloqadorlikda, harakatda, miqdoriy va sifat o'zgarishida o'rganishni taqozo etadi. Huquqiy madaniyat real xodisa sifatida muayyan vaziyatda, muayyan vaqtda, muayyan jamiyat va davlatda mavjud deb o'rganilishi lozim. Binobarin, huquqiy madaniyatni tushunish uchun u shakllanayotgan sharoitni, mavjud bo'lgan tarixiy davrning xususiyatlarini bilmoq va e'tiborga olmoq kerak.

Huquqiy madaniyat nazariyasining metodlari huquqiy madaniyat shakllanishi va rivojlanishining qonuniyatlarini bilishga xizmat qiladi. Ular huquqiy madaniyatning mohiyati va vazifalariga, funksiyalari va taraqqiyoti tamoyillariga ilmiy yondashish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy madaniyat nazariyasining metodlari (usullari)- o'zaro bog'liq bo'lgan muayyan bir tizimni tashqil qiladi. Bu tizimga quyidagi metodlarni kiritish mumkin: mantiqiy metod, diyoziy metod, tarixiy metod, sotsiologik metod, sistemali metod, kibernetik metod. Albatta, huquqiy madaniyatning o'rganilayotgan jixatlariga qarab, ilmiy bilishning boshqa usullaridan ham foydalanish mumkin. Mantiqiy metod huquqiy madaniyatni o'rganishda odilona, to'g'ri xulosa chiqarishga imkon beradi. U ilmiy bilishning mavhum shaklidir. U huquqiy madaniyatni mantiqiy o'rganishning usul va vositalarini ifodalaydi hamda tafakkur shakllariga, mantiq qonunlariga asoslanadi. Huquqiy madaniyatni o'rganishda mantiqiy usuldan foydalanish huquqiy madaniyat bo'yicha qonun hujjatlarini



qo'llashda ziddiyatlardan xoli bo'lish imkonini beradi. Qiyosiy metod turli xil guruhlarning, davlatlarning huquqiy madaniyatidagi umumiy va o'ziga xos tomonlarini bilish va shu asosda huquqiy madaniyat taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu metod huquqiy madaniyat haqidagi tushunchalar, xodisalar va jarayonlarni o'zaro solishtirish va shu asosda ular o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashlik va farqlarni aniqlashdan iborat. Turli mamlakatlarning huquqiy madaniyati haqidagi qonun hujjatlari ham taqqoslab o'rganiladi.

Tarixiy metod huquqiy madaniyat taraqqiyotini muayyan tarixiy izchillikda o'rganishni taqozo etadi. Ushbu metod qo'llaniladigan huquqiy madaniyat nazariyasi fanida huquqiy madaniyatning qaror topishi, rivojlanishi tarixiy taraqqiyotning murakkab jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bunda ko'pincha kishilik jamiyatining turli davrlarida ro'y bergan voqealar, xodisalar haqida bilim olish imkonini beradigan tarixiy manbalar, qonunlar, maxsus hujjatlar, muayyan ishlarga doir sud qarorlari va boshqalarni tahlil qilish usuli qo'llaniladi.

Sotsiologik metod huquqiy madaniyat darajasini aniqlashda keng qo'llanilishi mumkin. Sotsiologik metod surovlar orqali o'rganishni, anketalar yordamida ma'lumotlar to'plashni, huquqiy statistika natijalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bu usul huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan huquqiy ta'lim-tarbiya va tadbirlarning samaradorligini aniqlashda yordam beradi.

Sistemali metod huquqiy madaniyatni har tomonlama o'rganishda mudim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy madaniyatni turli ijtimoiy hodisalar tizimida o'zaro bog'liqlikda o'rganish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Huquqiy madaniyat nazariyasi fani inson huquqlari masalasiga sistemali yondashishni hisobga olgan holda ilmiy ob'ektivlik tarixiylik prinsiplari asosiga quriladi. Huquqiy madaniyat barcha ijtimoiy hamda davlat institutlarining bir butunligi sifatida tahlil etiladi. Huquqiy madaniyat huquq, huquqiy ong, yuridik tashkilotlar, huquqiy munosabatlar, huquqiy xulq-atvordan tashkil topgan yaxlit, bir butun holda harakterlanadi.

Kibernetik metod huquqiy madaniyat soxasida axborot-qidiruv tizimini yaratishda, matematik-statistik metodlarni qo'llagan holda huquqiy statistika va axborotlarni kompyuterlar yordamida qayta ishlashda turli xil texnika vositalarini qo'llashni o'rganishga yordam beradi.

Huquqiy madaniyat nazariyasi metodlarining butun bir majmui uning metodologiyasini tashqil etadi.

Hayot–inson va barcha tirik organizmlar uchun yashash tarzi, muhit, ne'mat. Uning moddiy-iqtisodiy, ma'naviy-huquqiy tarbiya, munosabat-siyosat kabi jabhalari mavjud. Agar iqtisodiyot inson hayotini moddiy tomonlarini tashqil etsa, huquqiy tarbiya uning ma'naviy ruhiy jihatini tashqil etadi.

Inson olamga kelibdiki, o'z talab-ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi. Masalan: ona jismidan ajragan chaqaloq dunyoga kelgan ilk daqiqalardan tabiatni moddiy o'zlashtira boshlaydi. U avval havoni, keyin ketma-ket oziq-ovqatni, kiyim-boshni va so'ngra boshpanani o'zlashtiradi.

Moddiy va ma'naviylikni bog'lovchi jihat esa munosabat, ya'ni siyosatdir. Inson kishilik jamiyatida yashar eqan, u xoh oilada bo'lsin, xoh jamoada bo'lsin, xoh jamiyatda bo'lsin, barcha bo'g'inglarda o'zaro munosabatda bo'ladi.

Yaqin davrlargacha **tarbiya** jarayoni pedagogikada **sub'ekt - ob'ekt munosabatlari** sifatida talqin etilar edi. Bu holat deyarli barcha darsliklar, o'quv qo'llanmalari va lug'atlarda tarbiyaga "inson ongi va xulqiga muayyan ustanovkalar, tushuncha, tamoyil, qadriyatlarga yo'naltirilganlikni shakllantirish uchun maqsadli ta'sir o'tkazish", deb berilgan ta'rifda ham ko'rinib turadi.

**Tarbiya**<sup>1</sup> keng ma'noda yoshlarni, insonlarni ob'ektiv va sub'ektiv ta'sirlar asosida ahloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakllanish jarayonidir.

Tarbiyalanuvchi va tarbiyalovchi munosabatlari nuqtai – nazaridan esa **tarbiya** - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda to'tgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

**Tarbiya**<sup>2</sup> 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir etish,

2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashqil etilgan faoliyati.

"Tarbiya haqida Shayx Sa'diy o'zining "Guliston" asarida shunday deb yozgan edi: "Kimda - kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo'lgach, baxtli bo'la olmaydi. Ho'l novdani istagancha bukish mumkin, quruq novdani faqat olovda toblab to'g'rilash mumkin".

Tarbiya haqidagi bu g'oya avlod-ajdodlarimizdan bizga etib kelgan buyuk meros bo'lib, u komil insonni voyaga etkazishda muhimdir. Tarbiya tug'ilgan kundan boshlanmog'i lozim.

Tarbiya-tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga egadir"<sup>3</sup>.

Keyingi yillarda tarbiyaga berilgan ta'riflarga o'zgarishlar kiritishga, unga yangicha ta'rif berishga urinishlarga kelsak, birmuncha ijobiy siljishlar kuzatiladi. Masalan, 2000 yilda nashr etilgan "Pedagogika" ma'ruza matnlarida tarbiyaga quyidagicha ta'rif beriladi:

"Tarbiya - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda to'tgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan

---

<sup>1</sup> Файбуллаев Н., Ёдгоров Р., Маматқулова Р. Педагогика. (олий ўқув юртлари учун қўлланма). –Т.: Университет, -43 бет.

<sup>2</sup> Ишмухамедов Р., А.Абдуқодиров., А.Пардаев. Тарбияда инновацион технологиялар. –Т: ЎзР Истеъдод жамғармаси, 2010.135 бет.

<sup>3</sup> Маънавий-ахлоқий тарбия асослари: Методик қўлланма / Ж.Ҳасанбоев, М.Туропова, О.Ҳасанбоева. — Т.: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 2000. - 17 бет.

o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir" (Qarang: Pedagogika. Ma'ruzalar matni. -T.: 2000. 38-bet).

Tarbiya inson hayotida muntazam amalga oshib boradigan jarayondir. Tarbiyaning samarali bo'lishi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining faoliyatiga xoxish-irodasiga, qanday sharoit va vositalarning ta'sirida ruyobga chiqishga bog'liqdir. Ayniqsa tarbiya qanday usullar bilan amalga oshirilganligi, uni berishda qanday yo'l tutilganligi nixoyatda muhimdir.

Huquqiy tarbiya tushunchasi ko'p qirrali tushunchalardan biridir. U o'z ichiga inson faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi. Keyingi paytda matbuotda huquqiy tarbiyaga doir qator mulohazalar bayon etilmoqda. To'g'risini aytganda, bu tushuncha sho'rolar davrida umuman tilga olinmas edi. Hatto, yirik sho'ro qomuslarida ham huquqiy tarbiya

Oxirgi yillar mobaynida ko'pchilik ziyolilarimiz «Huquqiy tarbiya nima?» degan savolga javob izlab, bir qator tadqiqotlarni bajardi. Bunga sabab huquqiy tarbiyaning ko'p qirrali tushuncha ekanligidir. Huquqiy tarbiya inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko'zga tashlanuvchi zohiriy va yashirin, ichki ruhiy–botiniy tomonlarini ham qamrab olganligidadir. Hozirda matbuotda ushbu mavzuga bag'ishlab ko'plab maqola va mulohazalar e'lon qilinmoqda, kitoblar chop etilmoqda.

Mustaqilligimiz sharofati bilan huquqiy tarbiya tushunchasini ham xolis va ilmiy talqin etish imkoniyati tug'ildi.

*Biz bir yilga rejalashtirganimizda, don sochamiz, o'n yilga rejalashtirganimizda daraxt ekamiz, agar butun umrga rejalashtirsak, kishilarni o'qitamiz va tarbiyalaymiz.* (Xitoy xalq maqoli).

Bu kursning asoslarini insonshunoslik fanlariga tayangan holda o'rganamiz. Yoshlarning umuminsoniy dunyoqarshlarini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarini yuzaga chiqarish kabi omillarni ilmiy jihatdan tadbiq etib, yoshlarni milliy istiqloq g'oyalari asosida tarbiyalash vazifasi yotadi.

Millatni milliy tarbiya shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatish huquqga ega bo'layotgan kadrlarni huquqiy tarbiya nazariyasi va tarixi bilan tanishtirish, ularni huquqiy savodxonligini va huquqiy madaniyatini o'stirish, hamda huquqiy tarbiya metodlari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Jamiyatda amalga oshiriladigan barcha vazifalar uning a'zosi bo'lgan odamlarning tafakkuri va shuuri darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Agar insonning ongi va tafakkuri qanchalik yuqori bo'lsa, u jamiyatni istiqboli buyuk bo'ladi, bu sohada «Huquqiy tarbiya» kursining o'rni kattadir.

Barcha fan va kurslarda bo'lganidek, «Huquqiy tarbiya» kursining ham o'z oldiga qo'ygan vazifalari bor. Ular quyidagilar:

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- «Huquqiy tarbiya» tushunchasining mohiyatini ochib berish;
- huquqiy tarbiyani takomil bosqichlari bilan tanishtirish;
- buyuk mutafakkirlarning adolat, qonun, huquq va huquqiy tarbiya haqidagi meroslarini o'rganish;

- inson huquq va erkinliklarini bilish;
- burchlar va ularni turlarini tushunib etish;
- O'zbekiston qonunlarini va Konstitutsiyasini chuqur o'rganish;
- adolatli va qonuniy hayot kechirishga o'rgatish;
- bolalar huquqlarini o'rganish;
- bolalarda dastlabki huquqiy tushunchalarni shakllantirish.
- Huquqiy tarbiya omil va vositalarini o'ranish va boshqalar.

**Illatlar:<sup>4</sup>**

1. qimor,
2. ichkilik,
3. o'g'rilik,
4. qo'pollik, achchiq so'zlik,
5. jaholat,
6. g'iybat,
7. kamsitish-g'iybat,
8. xiylakorlik-yolg'onchilik,
9. ziyonkorlik-yaroqsiz xolga keltirish.

**Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya tushunchalariga izoh bering?
2. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining metodlari ayting?
3. Tarbiya va huquqiy tarbiya tushunchalari, uning ta'rif va talqinlari haqida batafsil ma'lumot bering?

**Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: 1996.
2. To'ychieva H. Shaxs huquqiy ongi va huquqiy ta'lim. –T.: Muharrir, 2010.
3. Saidov A., Sultonov S. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. –T.: Adolat, 1998.
4. Yoqubov J. Hayitboyev E. Huquqshunoslik. Darslik. Yangi asr avlodi, 2006.
5. Ibrohimov A. va boshq. Vatan tuyg'usi. -T.: 1996.

---

<sup>4</sup>Шорасул Зунунов. Дурдоналар хазинаси. –Т.: Шарқ, 1999. 98-101 бетлар.

**2-MAVZU:**  
**HUQUQIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISHDA SHARQ**  
**MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARIDAN FOYDALANISH**  
**Reja:**

1. Islom ma'rifat sivilizatsiyasining ta'lim-tarbiyaga ta'siri.
2. Qur'oni Karim va Hadislarda axloq-odob, iymon, oila mustahkamligi, ota-onaga hurmat masalalari.
3. Imom Ismoil al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Navoiy va boshqa mutafakkirlarning axloqiy-ma'rifiy merosi.

Donishmandlik pedagogikasida yoshlarda mehnatsevarlik ma'naviy - axloqiy sifatlar bilan uyg'un rivojlantirilishi maqsadga muvofiq ekanligi ilgari surilgan. Bu pedagogik qarashlar mashhur «Avesto» (er.av. VII asr) asarida va qadimgi Xitoyning Daos maktabi (er.av. III asr) tajribalarida aks etgan edi. Eramizdan avvalgi II asrlarga kelib O'rta Osiyo, qadimgi Hindiston pedagogikasida saxiylik, sofdillik, inson qalbi tushunchalari ilgari surilgan. 610 yillarga kelib yaratilgan Islom dinining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim»da inson mohiyati to'la ochib berilib, komil inson tarbiyasi bosh maqsad qilib qo'yilgan edi. «Qur'oni Karim»dagi ta'lim - tarbiyaga oid ulug' xazina Al-Buxoriy hazratlarining Hadislarida beriladi. Jumladan, (38-hadis) "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz": (626-hadis) "Har bir go'dak Islom tabiatida tug'iladi, so'ng ota-onasi uni yo yahudiy qiladi, yo nasroniy qiladi, yo majusiy qiladi": (136-hadis) "Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi".

Ta'lim – tarbiya, insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ochib beriladi. Shu jumladan Islom olamining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim»da ham komillikning beshta tamoyili komillikka erishish uchun talab etiladi.

1. Mehnatim muhabbatim.
2. Ma'rifatim sarmoyam.
3. Dinim aqlim.
4. Ilmim qurolim.
5. Sabru qanoat libosim.

IX-XV asrlar Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyati rivojida muhim davr hisoblanadi. Shu bois faylasuf, tarixchi, pedagog, matematik olimlar bu davr madaniy-ma'rifiy merosi haqida qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Pedagog – olimlarning Sharq mutafakkirlari ijodida ta'lim-tarbiya, shaxs ma'naviy kamoloti masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning pedagogika fani rivojida muhim o'rni bor. Lekin ular allomalar merosida olg'a surilgan ta'lim-tarbiya masalalarini yoritishda milliylik tamoyilidan kelib chiqqan holda yondashmadilar.

Aslida Markaziy Osiyo allomalarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotini shakllantirishga omil bo'la oladigan hodisadir.

**Sharq Renessansi** deb nom olgan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko'tarilgan, boy davri bo'lib, bu davrda ilm-fanning ikki yo'nalishi (birinchisi) inson uchun tabiiy fanlardirki, u aql ko'zi bilan egallanadi, (ikkinchisi) bu fanlar inson tomonidan (boshqa) kishilardan taqlid qilib o'rganiladi, ular asosida shariat qonunlari yotadi. Bu fanlarning asosini Qur'onda va Sunnada bo'lga Alloh va uning elchisining oldindan belgilab bergan yo'l-yo'riqlari tashqil etadi.<sup>1</sup>

Bu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarish markazi "Ma'mun akademiyasi" (IX asr, Bag'dod, "Baytul hikma") tashqil etildi. Akademiya ilmiy ijodkorlari faoliyatida Yaqin va O'rta Sharq xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining qo'shilishi asnosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining maxsus bir-biridan ajratilmagan ko'p qirrali qorishiq turi vujudga keldi.<sup>2</sup> Bunday ko'p qirrali ilmiy qadriyatlarning madonga kelishida vatandoshlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Ahmad al-Farg'oniy (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1050) va boshqalarning xizmatlari katta bo'lgan.

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohasiga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan harakterlanadi. Ular:

Forobiy pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning to'zilishini, ruhiyatini, madaniy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. Uning ta'limotida, inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so'zlash qobiliyatiga egaligi bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turishi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyatini berganligi namoyon bo'ladi.

Forobiy bu dunyoqarashida narsa-hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmli, ma'rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e'tibor beradi. U o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati" kabi ko'plab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishi ilm-ma'rifatga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Farobiyning inson va jamiyat, ularning o'zaro ta'siri, davlat, siyosat, urush va tinchlik kabi masalalariga bag'ishlangan asarlari sirasiga «Fozil odamlar shaxri» haqida kitob «Baxt saodatga erishish» haqida risola, «Fuqarolik siyosati», «Jamiyatni o'rganish haqida», «Urush va tinch-totuv yashash haqida», «Davlat arboblari haqida hikmatlar» nomli asralarida inson, jamiyat, siyosat, adolat, odo-xloq, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlari bayon etilgan.

Farobiyning chuqur falsafiy kuzatishlariga e'tibor bersak, unda insonni faol harakatda, yaratishda bo'lishi va uni tabiat bilan munosabatiga e'tibor bergan.

Jamiyat va inson yagonadir, jamiyat va davlat taraqqiyotini insonlar faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jamiyatning kelib chiqishi va uning mohiyatini o'rganuvchi maxsus fan zarurligini Farobiy chuqur xis qiladi. Jamiyatni o'rganish insonni o'rganish demakdir. Odamlar rivojlanishlari va yaxshiroq yashashlari uchun ular jamoaga birlashishga, majbur bo'ladilar. Shu tariqa jamiyat zaruriyat taqdiri bilan vujudga keladi. Jamiyat o'z qonunlari asosida rivojlana boshlaydi.

Farobiy qarashlarinng asosiy tamoyili bu adolatparvarlikdir. Ideal shaharda ham adolat hamma narsadan ustun: hammaning tengligi, hamkorligi va axilligi mana shu davlatni asosiy tayanchi va kelajak ravnaqidir. Farobiy Sharqda birinchilar katorida davlatning Monarxiya shaklida cheklanib qolmasdan uni bir necha kishi tomonidan boshqarish kerak degan xulosaga keladi. Chunki bir insonda Farobiy talab kilgan o'n ikkita fazilat mujassam bo'lmasligini aniq tushunib etgan mutafakkirdir.

Ibn Sino jamiyatning har bir a'zosi foydali mehnat bilan shug'ullanadigan, bekorchilik qoralanadigan davlatni ideal deb hisoblagan. U ideal ijtimoiy tartibni va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan dono hukmdorga katta umid bog'lagan. Abu Ali ibn Sino jamiyatda tengsizlik tarafdori edi, chunki, uning fikricha, faqat boylardan yoki, aksincha, faqat kambag'allardan iborat bo'lgan jamiyat faoliyat ko'rsata olmaydi. Agar jamiyatning barcha a'zolari boy bo'lib ketsalar, odamlarda hamdardlik o'zaro yordam hissi yo'qoladi. Agar jamiyatning hamma a'zolari kambag'al bo'lsa, bunday xalq kirilib ketadi

O'rta asr ilohiyotchi va huquqshunos olimi *Abu Hasan ibn Mavardi* (973-1058) adolatli davlat qurilishining tarafdori bo'lgan. U davlat kufr bilan turishi mumkin, lekin adolatsizlik bilan turmaydi, deb hisoblar edi. Mavardining «Al-ahkom as-sultoniyah» (Sultonlik ahkamlari) deb atalgan risolasi mashhur bo'lib, unda muallifning «ideal musulmon davlati» haqidagi xayoliy tasavvurlari bayon qilingan.

*Nizomulmulk* XI asrda yashab ijod etgan bo'lib, sulton Mahmud G'aznaviyning bosh vaziri vazifasini ijro etgan. Bizgacha «Siyosatnoma» asari etib kelgan. Bu asar boshqaruv ilmiga bag'ishlangan bo'lib, siyosat bobida eng qimmatli asarlardan biri hisoblanadi. Unda Sharq va G'arbning XI asrgacha bo'lgan siyosat sohasidagi qimmatli fikr mulohazalari jamlangan. Asar Sohibkiron Amir Temur bobomiz tomonidan sinchiklab o'rganilgan va yuqori baholangan. Amir Temur tomonidan yozilgan "Temur tuzuklari" kitobi "Siyosatnoma" ta'sirida yozilgan deyish mumkin.

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti eqanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. "Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin-kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir"<sup>3</sup>

Sharqdagi Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar o'zlarining ta'limiy qarashlarida birinchi o'ringa inson shaxsini qo'yadilar hamda bolalarni har tomonlama, jismoniy va estetik kamolotga erishishlari, shuningdek, tillarni bilishlarini zarur deb hisoblaydilar.

Allomalar bolaga hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyasini ilgari suradilar, sxolastik o'qitish va qat'iy intizomga qarshi chiqadilar. Ularning fikricha, o'qish bolada bilimlarga qizihishni uyg'otishi kerak.

Fikrimizni yana Hazrat Sohibqiron bobomiz Amir Temurning hayotiy tajribasi asosida ishlab chiqqan va uning hukmi bilan qonun darajasiga ko'tarilgan va ayni paytgacha bir qancha xorijiy tillarga tarjima "Temur tuzuklari" misolida davom ettiramiz. Darvoqe ushbu bebaho asar "Tuzuki Temuriy", "Voqeoti Temuriy", "Ulojeniye Temura", "Malfuzoti Sohibqironiy" nomlari bilan mashhurdir.

Temur tuzuklarida qayd etilishicha, saltanat ishlarida birinchi galda to'rt narsaga amal qilinishi lozim:

1. Kengash;
2. Mashvaratu maslahat;
3. Qat'iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik;
4. Ehtiyotkorlik.

Amir Temur davlatni shakllantirish borasida esa, yanada muhim sanalgan to'rt ustunga suyanib faoliyat yuritgan:

1. Islom va shariat qoidalari;
2. To'ra va tuzuklar;
3. Xazina;
4. Raiyat va askar.

Sohibqiron Amir Temurning bunday qarorga, jiddiy to'xtamga kelishi – davlat yuritishda mazkur tamoyil va ustunlarga suyanishi o'z-o'zidan yoki qaysidir bir siyosiy tizimlar tajribasiga tayanish orqali paydo bo'lgan emas, balki u ajdodlarning davlatchilik va qonunchilik borasidagi eng yaxshi an'analarni zamonasining talablariga uyg'unlashtirdi, ularni adolatli tamoyillar darajasiga ko'tara oldi, chunonchi ushbu qarorga kelishgacha bo'lgan davrda eng oliy an'analardan tortib hatto o'z piri Zaynuddin Abubakr Toybodiyning maslahatlarigacha puxta o'rgandi, unga suyanib ish tutdi.

Xususan, Amir Temurpiri Zayniddin Toybodiyning unga yo'llagan dasturul-amal, pandu-nasihatga boy xatini ko'zda tutib: "Maktubda yozilgan so'zlar saltanat ishlarida men uchun eng to'g'ri yo'l boshchi edi.

Shunga ko'ra davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim" – deb yozadi Temur. Mazkur fikr, aslida tamoyilning bugungi kunda ham katta nufo'zi bor. Zero, Yaqin Sharq, Afg'oniston, Arab mamlakatlarida yuz berayotgan mojarolarda, murosaga kelish, Sohibqiron tili bilan aytganda, kengash va mashvarat lozimki, "mojarolarni qurol kuchi bilan tinchitaman", deganlar faqat qonli to'qnashuvlar, tola-to'plar, ur-yiqitlar va xunrezliklarni keltirib chiqaradilar, xolos.

Amir Temur, hatto shunday og'ir vaziyatlarda, eng qiyin va murakkab holatlarda ham to'qqiz marta kengashib, tadbir ishlatib, hal etish lozimligini ta'kidlar eqan, bu nafaqat o'z zamonasi, balki kelajakka ham adolatli xitob edi. Inson bor eqan, dunyo bor eqan, bu siyosiy qarashlar va odilona belgilangan qonunlar o'z kuchi, salohiyati, nufo'zini yo'qotmaydi.



Podshohlar uchun to'g'ri so'z, haqqoniy xabarning foydasi ko'p, chunki yolg'on davlatni yemiradi. Amir Temur to'g'ri so'z kishiga hurmat bilan qaraydi:

- “qaysi kishi aqlga siqqan bir ishni quyunib gapirsa, suyib eshitar edim;
- kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so'zlasa, unga ham quloq solardim;
- har kimdan kengash so'rar edim, lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'ini tanlab olardim”.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Amir Temur tadbirlari muxtasargina ammo uning har bir bo'lagi, so'zsiz, bir kitobga eng yaxshi mavzu bo'la oladi.

Yana shu jihati muhimki, unda davlatchilik masalalari sodda, lo'nda ammo donolik bilan bayon etilgan va har bir ishni boshlashdan oldin tadbir belgilashning mohiyati ishonarli tarzda ochib berilgan.

Amir Temur musulmon hukmdori edi. Shu tariqa davlat ishlarini yuritishda o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotidagi yetakchi omillardan ustalik bilan foydalandi: dinu shariat ishlarini tartibga keltirib, tuzuklarni yaratdi. Saltanat martabalari tuzugini quyidagilarga tayanib, tuzdi:

- Saltanat qonun-qoidalarini Islom dini va payg'ambar Muhammad shariatiga bog'ladi;
- Har bir ishda, hatto muomalada ham me'yorni unutmadi;
- Yaxshilarga yondashdi, hech kimdan o'ch olish payida bo'lmadi;
- Halqni e'zozda tutdi, jabru zulmni o'ziga begona bildi.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy huquq borasidagi yo'l-yo'riqlari, fikrlari ipga marjon tizilgandek bir tekis va aniqligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Amirlik tartibiga ko'ra, ularning biri ikkinchisiga noiblikka tayinlanardi, birinchi amir ikkinchisiga noib, shu tariqa o'n birinchi amir- o'n ikkinchi amirga, o'z navbatida o'n ikkinchi amir Amir ul-umaroga, u esa Sohobqironga noib hisoblangan.

Bundan keyingi to'zilgan tartibni o'qir eqanmiz, Amir Temur dahosi masala mohiyatining chuqur-chuqur qatlamlarini yoritganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, o'nboshining ishini yuzboshiga, amirning ishini Amir ul-umaroga buyurishni taqiqlaydi.

Ularni eng quyi darajadan oliy martabagacha ko'tarish tuzugi ham ancha mukammal: jangda qahramonlik ko'rsatgan bahodirlar bo'lsa, birinchi marotaba – o'nboshi, keyingisida–yuzboshi, uchinchisida – mingboshilik huquqini qo'lga kiritgan.

O'n boshi qo'li ostidagilardan biri botirlik ko'rsatsa, birinchi galda o'nboshilikka tayinlangan, lekin o'zini himoya qilib ko'zga tashlangan askarlar bundan istisno etilgan. “Tuzuklar”da bu boradagi harbiy jinoyatlar va jazolar tizimi maxsus qoidalarda o'z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda, Sohobqiron bobomizning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyos. Tarix bu qo'hna dunyoda o'tgan ko'p jahongirlarni biladi. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr buyi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. Uning “Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim” degan so'zlari buning yorqin isbotidir. Amir Temurga har bir zafarli voqea va sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo'lgan. Shu maqsadda

Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari Amir Temur saltanatida hashamdor imoratu inshootlar bino qilganlar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita rahbarligi va tashabbusi bilan mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning faol hayotiy pozitsiyasini mustahkamlash, mamlakat kelajagi uchun daxldorlik hissini kuchaytirish borasida ham samarali ishlar qilinmoqda. Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida ko'p bora askarlar, harbiy xizmatchilar mamlakatimizning shonli tarixini, ona zaminimizda yashab o'tgan buyuk qahramonlar, sarkardalar hayoti va jasoratini chuqur bilishi, ular bilan g'ururlanishi kerakligini ta'kidlaydi.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning (1394-1449 yillar) Samarqanddagi faoliyati 14-15 asrlarda madrasalarning fanlar rivojini ta'minlovchi markazlari vazifasini bajarganligini ko'rsatadi. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek Samarqandning hukmdori bo'lishi bilan birga astronom, matematik va tarixchi sifatida mashhur bo'lgan. Shuningdek, allomaning mohir pedagog ham bo'lganligini tarixiy dalillar qayd etadi. Chunonchi, alloma ko'plab iste'dodli yoshlarni tarbiyalagan. U odamlar, ayniqsa yoshlarning ilmiy bilimlarni o'rganishlariga katta ahamiyat bergan.

Alloma o'z davlatida ta'lim sohasidagi jiddiy islohotlarni tashqil etdi. U madrasalarni davlat ta'minotiga o'tkazdi, mudarris (o'qituvchi)larga oylik ish haqi belgilagan, shogird (talaba)larga stipendiya ajratgan. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek madrasa o'quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, Qur'on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikx (qonunchilik), metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.

Mutafakkir tomonidan barpo etilgan hamda o'zi bevosita ta'lim bergan madrasalarda o'qish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lgan:

1. Anda (kichik) - o'qish muddati 2 yil.
2. Aust (o'rta) - o'qish muddati 3 yil.
3. A'lo (oliy) - o'qish muddati 3 yil.

Bunday yondashuvda bugungi kun nuqtai nazaridan aytganda bakalavriat va magistratura ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o'rta asr yevropa universitetlari uchun ham xos bo'lgan.

Buyuk iste'dod egasi sifatida alloma o'z davridan bir necha asrlarga o'zib ketgan. Deyarli 600 yil avval Muhammad Tarag'ay Ulug'bek quyidagi aksiomani ilgari so'rgan: bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo'l demakdir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning hozirgi tajribasi mazkur fikrni to'la tasdiqlaydi.

Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy g'oyalarning rivojlanish tarixida buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri **Alisher Navoiy** (1441-1501) muhim o'rin tutadi. Navoiyning davlat va axloq sohalaridagi idealining asosiy qoidalari uning «Saddi Isqandariy», «Hayrat ul-abror» va «Mahbub ul-qulub» asarlarida bayon qilingan. U mamlakatning tarqoqligini, o'zaro urushlarni qat'iy qoralagan, faoliyatini donishmandlik va adolat asosiga qo'rgan ma'rifatli hukmdor boshchiligida markazlashgan davlat barpo etishga chaqirgan Navoiyning fikriga ko'ra, adolat - hukmdor fazilatlarining asosiy mezon. «Kofir bo'lsa ham odil bo'lgan shoh, - deb

yozadi u «Xamsa» dostonlaridan birida, - mamlakatni obod qiladi, zolim esa, garchi u musulmon bo'lsa ham, uni vayron etadi».

O'z asarlarida Alisher Navoiy hatto hukmdorni saylab qo'yish va uning hokimiyat funksiyalarini cheklash g'oyasini ham ilgari so'rgan. Uning fikricha, hukmdor birorta ham muhim davlat masalasini dono maslahatchilar bilan kelishmasdan, kengashmasdan turib hal qilmasligi kerak.

Atoqli shoir va faylasuf, asli kelib chiqishi o'zbek urug'idan bo'lgan va uzoq vaqt Hindistonda yashagan *Mirzo Abdulqodir Bedil* (1644-1721) davlatning kelib chiqishini o'ziga xos tarzda izohlagan. U ijtimoiy-siyosiy muammolarga ko'p e'tibor qaratgan. Bedil davlatning mavjudligi azaliy emasligidan kelib chiqadi. U davlat jamiyatning boylar va kambag'allarga, ezuvchilar va eziluvchilarga bo'linishi natijasida paydo bo'lgan, deb hisoblaydi. Boylarning manfaatparastligi va hukmronlikka intilishi ular o'rtasida urushlar kelib chiqishiga va avval mayda, so'ngra esa, ancha qudratli markazlashgan davlatlarning tashqil topishiga olib keldiki, bu davlatlar boylar manfaatlarini himoya qilish quroliga aylandi. O'z asarlarida Bedil adolatli ijtimoiy tuzum yaratish zarurligini asosladi, mustabidlikni qoraladi, zo'ravonlik va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi chiqdi.

Xuddi Navoiy singari, Bedil ham ijtimoiy hodisalarni tushunishda idealist bo'lgan va jamiyatning yaxshilanishida hukmdorlarning aql-idroki hamda ma'naviyatiga umid bog'lagan.

Amir Temur (1336-1405) buyuk davlat barpo etgan ulqan shaxs va diplomat. Uning nomi dunyodagi ettita eng buyuk shaxslar qatorida tilga olinishi tasodifiy hol emas. Amir Temur siyosat maydoniga chiqqanida endigina 24 yoshga to'lgandi. Mamlakat parchalanib ketgan, mahalliy siyosiy kuchlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar avj nuqtasiga etgan edi. Mazkur davr barcha uchun - zulmni o'z elkasida his etgan oddiy fuqarolardan tortib, siyosiy arboblari va Movaraunnahr ruhoniylarining vakillarigacha - haddan tashqari og'ir payt bo'lgan. Jamiyat uning ozodlikka va taraqqiyotga bo'lgan intilishlarini o'zida mujassam etadigan bir xaloskorga muhtoj edi<sup>18</sup>.

Amir Temur ana shunday dohiy - butun bir jasoratlar davrini yaratgan shaxs sifatida siyosat maydoniga chiqdi. Amir Temur o'zaro urushlarga barham berib, tarqoq erlarni birlashtirish, o'z davrining eng qudratli, markazlashgan davlatlaridan birini yaratishga muvaffaq bo'ldi, u boshqaruv mexanizmini ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Butun dunyoda olti asr davomida bu ulug' shaxsga bo'lgan qiziqish susaygani yo'q. O'tgan olti yuz yil davomida Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan katta asarlarning soni Evropa tillarida 500 tani, Sharq tillarida esa - 900 tani tashqil etadi<sup>19</sup>.

Amir Temur davlat qurilishining mohir nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida faoliyat ko'rsatib, o'z davlatining ichki va tashqi hayotiga oid masalalarni ko'tarib chiqdi va hal qilardi. U yaratgan hokimiyat to'zilmasi va davlat boshqaruvi apparatining funksiyalari «Temur tuzuklari»da bayon qilingan.

Feodal tuzumning nihoyasiga etishi va ozodlik kurashining o'sib borishi O'rta Osiyoda ijtimoiy-siyosiy fikrning rivojlanishiga xizmat qildi.

Ahmad Maxmud ibn Nosir (*Ahmad Donish*) (1827—1897 yy.). A. Donish Buxoroda maorifni, madaniyatni, san'atni rivojlantirish, shu tariqa xalq hayotini engillashtirishni orzu qilgan edi. Uning siyosiy qarashlarida Buxoro amirligi davridagi siyosiy tartiblar va harakatlarni, davlat boshqaruvi va to'zilishi, amirlik olib borgan ichki va tashqi siyosat mohiyatini ochib berishga harakat qildi. Ahmad Donish Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy qarashlarini qattiq tanqid qildi

Ahmad Donish «xalq bilan hukmdor o'rtasida xalqni talon-tarojdan himoya qilish maqsadida to'zilgan bitim bo'lishi shart, shu sababli hukmdorning eng birinchi vazifasi xalqning farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishdir», degan edi. *Maxtumquli* (XVII-XVIII asrlar) yashab ijod etgan davrda adolatsizlik, jaholat avj olgan edi. O'zboshimcha beklar, to'ralar, oqsoqollar o'zlarining shaxsiy manfaatlari yo'lida mehnatkash xalqni shafqatsiz ezar edi. Mazlum xalq uch tomonlama ta'qib qilinardi. Bir tomondan, Eron shohining bosqinchilik siyosati mehnatkash xalqning tinkasini quritsa, ikkinchi tomondan, Buxoro xonligining talonchilik maqsadidagi yurishlari mamlakatni nihoyatda qashshoklashtirgan, Xiva xonligining dahshatli zulmi oddiy xalqni xonavayron qilgan edi. O'z taqdirini jafokash xalq taqdiri bilan chambarchas bog'lagan Maxtumquli mana shu feodal tuzumga befarq qarab turolmadi. U o'z asarlarida feodal ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni ayamadan tanqid qildi. Zolim beklar, insofsiz boylar, bosqinchi xonlarga nisbatan o'zining g'azab tuyg'ularini ifoda etib asarlar yaratdi.

Mumtoz o'zbek adabiyotining otashqalb shoiri *Ogahiy* (1809-1874) o'zining siyosiy qarashlarini badiiy tarjima va asarlari orqali bayon etgan. U 19 asarni fors tilidan o'zbekchaga tarjima qilgan. «YUsuf va Zulayho», «SHohu gado» dostonlarini o'giran. 1999 yil dekabrda Urganch shahrida Ogahiyning 190 yilligi keng nishonlandi. Ogahiyning siyosiy qarashlarida 2 tendensiya mavjud bo'lib, u bir tomondan, davlatni boshqarish masalasida ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, demokratik qarashlar ilgari so'rgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, masalani bir tomonlama hal qilib, topish qiyin bo'lgan ideal ma'rifatparvar shaxs roli baholanadi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkiston rus mustamlakachilari tomonidan bosib olindi. Bu davrda milliy ma'naviy merosga, madaniyatga past nazar bilan qarovchi shovinistik siyosat hukmron edi. Shunday bo'lsada, bu davrda Siddiqiy, Furqat, Muhimiy, Ahmad Donish, Avaz O'tar o'g'li, Hamza, Abdulla Avloniy, Ibrat, Fitrat, Behbudiy, [Munavvarqori](#), Cho'lpon, Qori-Niyoziy va boshqalar bola tarbiyasiga, pedagogikasiga oid ko'plab asarlar yozdilar, yoshlarni ilm-ma'rifatli qilishga intildilar. Quvg'inlar, qatag'onlar, bosqinu yong'inlarga qaramay, ajdodlarimizdan bizga adabiy, ilmiy-falsafiy, pedagogik va boshqa sohadagi ming-minglab noyob kitob va qo'lyozmalarda bitilgan ma'naviy merosimiz etib kelgan. Ana shu durdona manbalarda bizning necha ming yillik tariximiz, madaniyatimiz, qo'yingki o'zligimiz mujassamlangan.

O'lkada ochilgan rus-tuzem maktablari, gimnaziyalari ta'sirida ta'lim- tarbiya ishlari hamda ta'lim metodlarini qayta qurish ishlari avj oldi. Natijada yerli xalq vakillarining yangi metodlariga suyangan usullari «jadid», «usuli savtiya» nomidagi maktablar paydo bo'la boshladi. Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda, usuli jadid maktablari 1850 yillarda paydo bo'la boshlagan. Turkistonda yangi maktablarning

karvonboshchisi M. Behbudiy edi. U jadid maktablari uchun ham nazariy, ham amaliy jihatlarida jonbozlik ko'rsatdi. Aslida jadid so'zi arabchadan olingan bo'lib «yangi» degan ma'noni beradi. Demak, usuli jadid ham, usuli savtiya ham yangi usul maktablari degan ma'noni bildiradi. Usuli jadid o'lkada ma'rifat nuri sari yetaklaydi. Ushbu maktabda o'qigan talabalar hatto, chet o'lkalarda o'qishni davom ettirganlar. Ushbu maktab ijodkorlari M. Behbudiy, S. Saidazizov, A. Avloniy, S.A. Sidiqiy, Munavvarqori, A. Shakuriy edi.

O'zbek pedagogikasi tarixi turli oqimlar, jarayonlar ta'sirida rivojlanib keldi. hozirgi zamon ta'lim-tarbiya kontseptsiyasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, yuksak umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy topib bormoqda. Bu Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi «Ta'lim tog'risida»gi qonunlarida ko'rsatib berilgan. Ushbu qonunlar milliy tajribaning tahlili, ta'lim tizimi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangani hamda yuksak umumiy va kasb – hunar madaniyatiga ijodiy, ijtimoiy faollikka, ijtimoiy – siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'qib bilish mahoratiga ega bo'lgan istiqloq vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir. Yosh kadrlarni yangi avlodni shakllantirishga yo'naltirilgandir.

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Islom ma'rifat sivilizatsiyasining ta'lim-tarbiyaga ta'siri haqida gapirib bering?
2. Qur'oni Karim va Hadislarda axloq-odob, imon, oila mustahkamligi, ota-onaga hurmat masalalari yuzasidan o'z fikringizni bayon eting?
3. Imom Ismoil al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Navoiy va boshqa mutafakkirlarning axloqiy-ma'rifiy merosi haqida ma'lumot bering?

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Islom Karimov. «Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili». T. «O'zbekiston» 1995 yil.
2. Islom Karimov. «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqloqlining asosiy tamoyillari». – T.: «O'zbekiston».
3. Islom Karimov. «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T. Sharq, 1997.
4. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O'zbekiston», 2000 yil.
5. A.Zunnunov, A.U.Mahkamov. «Didaktika». T. «Sharq» 2006 yil.
6. A.Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq», «O'qituvchi» nashriyoti., T. 1993 yil.
7. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» «A.Qodiriy» nashriyoti. T. 1993 yil.
8. Abu Rayhon Beruniy. O'ylar, hikmatlar, naqllar,she'rlar. Toshkent. Yosh gvardiya. 1973.44-bet

### **3-MAVZU:**

## **HUQUQIY TARBIYANING NAZARIY ASOSLARI**

## **Reja:**

1. Huquqiy tarbiya tushunchasi.
2. Huquqiy tarbiya tizimi.
3. Huquqiy tarbiya nazariyasi.
4. Mutafakkirlar huquqiy tarbiya haqida.
5. Jahon huquqshunosligida huquqiy tarbiya taraqqiyoti.
6. O'zbekiston huquqshunosligida huquqiy tarbiya taraqqiyoti.

**Huquqiy tarbiya** - jamiyat a'zolari madaniyati va ongiga huquqiy bilimlarni turli ta'sir vositalari orqali uzluksiz singdirib borish jarayonini ifodalovchi tushuncha. Huquqiy tarbiya keng ma'noda, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish, shaxs ongiga uning huquq va burchlarini singdirish jarayonini anglatadi. Huquqiy tarbiya tor ma'noda fuqarolarning huquqiy bilim va madaniy saviyasi darajasini oshirishga xizmat qiladigan usul va vositalarni ifoda etadi. Huquqiy tarbiyaning davlat va jamiyat taraqqiyotida hamda fuqarolik jamiyati asoslarini qurishdagi o'rni shaxsning, fuqarolarning huquqiy bilimi va ko'nikmalari darajasi bilan belgilanadi. Huquqiy tarbiya mavjud tuzum, davlat va hokimiyat organlari, mahalla, oila, tashqilotlar va ularning faoliyati orqali amalga oshadi. Huquqiy tarbiya ko'p qirrali va murakkab jarayon hisoblanib, uning muammolari huquqshunoslik, pedagogika va psixologiya, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari, etika va estetika kabi fanlar doirasida tadqiq etiladi. Huquqiy tarbiya samaradorligi oila, mahalla, ta'lim-tarbiya muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy sohadagi faoliyatining o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Huquqiy tarbiyani shakllantirishda OAV, radio, TV, huquqiy mavzulardagi kechalar, davra suhbatlari ham muhim o'rin tutadi. Bularning barchasi fuqarolarning birinchi galda yoshlarning huquqiy ongi va tafakko'rini o'stirish, ularni har jihatdan barkamol insonlar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Huquqiy tarbiya vositalari yoki tizimigaga:

- huquqiy targ'ibot,
- huquqiy ta'lim,
- huquqiy amaliyot va
- o'zini o'zi tarbiyalash kiradi.

Huquqiy tarbiya tizimiga:

- maktabgacha huquqiy tarbiya,
- maktabda huquqiy tarbiya,
- o'rta mahsus ta'limda huquqiy tarbiya,
- oliy ta'limda huquqiy tarbiya,
- darsdan tashqari huquqiy tarbiyaga bo'linadi.

Huquqning kelib chiqishi to'g'risida ham turli nazariyalar mavjud.

**1. Tabiiy huquq vazariyasi** – huquq nazariyalarining eng qadimiylaridan biri. Uning vakillari huquqning o'zida adolatning metodolok, o'zgarmas ibtidosini mujassam ettanligidan kelib chiqadilar. Huquq tabiatan mavjud, uni hech kim o'ylab topmagan, u xuddi insoning o'zi kabi tabiiydir.

Ushbu nazariya tarafdorlari tabiiy huquqni yuridik normalarning yig'indisi ko'rinishidagi huquqqa qarshi edilar. Tabiiy huquq - davlatning huquq ijodkorligi intilishi zarur bo'lgan o'ziga xos idealdir.

**2.Huquqning tarixiy nazariyasi** huquq tarixan paydo bo'lgan va rivojlanadi, deb hisoblaydi. Erga ekilgan urug' kabi, u xalqining ongida o'sib boradi va adolat, qonunlar shaklida namoyon bo'ladi. huquq tabiatdan kelib chiqmaydi. U yoki bu xalqning tarixiy hayoti huquqni qanday ko'rinishga keltirsa, u shunday bo'lib qoladi.

**3.Huquqning psixologik nazariyasi** huquqning kelib chiqishi va rivojlanishini shaxs yoki shaxslar guruhining psixologiyasi bilan izohlaydi. Huquq psixologik yo'nalishlar, turli kechinmalar, xissiyotlar va instinktlarning mahsuli, deb qaraladi.

**4.Huquqning sinfiy (marksistiq nazariyasi)** huquqning sinfiy mohiyatiga urg'u beradi. Bunda huquq hukmron sinf irodasining qonun darajasiga ko'tarilganligi sifatida talqin etiladi. Bu iroda mazkur sinf hayotining moddiy sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi deb asoslaydi.

**5.Huquqning mohiyati haqidagi nazariyalardan yana biri bu teologik nazariya.** Uning vakillari Aristotel, Akvinskiy va boshqalar. Bu ta'limot huquqning paydo bo'lishi va mohiyatini xudoga bog'lab ilohiylashtiradi. huquq fuqarolarga xudo tomonidan berilgan, u abadiy barcha uchun majburiydir.

**6.Realistiq huquq** maktabi uning vakillari nemis olimi R.Gering, rus olimi D.Muromtsev, AKSh olimlari D.Frank, K.Levillin va boshqalar. Bu nazariya huquq davlat tomonidan qabo'l qilingan va barcha uchun umummajburiy bo'lgan normalar yig'indisi deb ko'rsatiladi.

Respublikamiz bo'yicha jami<sup>5</sup> 4916 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida qariyb 668,5 ming nafar bolalar tarbiyalanmoqda. Shuningdek, 194 ta nodavlat maktabgacha ta'lim muassasi mavjud bo'lib, ularda 12 ming nafarga yaqin tarbiyalanuvchilar qamrab olingan. Hozirgi paytda maktabgacha ta'lim sohasida bolalarni qamrab olish 27 % tashqil qilyapdi. Ya'ni 70 % oshiqroq bolalar oilada tarbiyalanadi. Ular uchun 7 nomdagi kitoblar yaratildi va bepul tarqatilmoqda:

1. "Oilada mutola qilamiz",
2. "Kitoblar olamiga ilk sayohatim".
3. "Mening sevimli kitobim",
4. "Kitoblar mening do'stlarim",
5. "SalomYu maktabim",
6. "Olamni o'rganamiz",
7. "Jahon xalqlari ertaklari".

Huquqning manbai deganda, umumiy ma'noda huquqning ifoda etilish shakli tushuniladi. Huquqshunoslikda "huquq shakli", "huquq manbai" va "xuquqiy odat" kabi o'xshash tushunchalar mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>5</sup> Таълим ва тарбияда танатфус бўлмайди. "Халқ сўзи" газетаси, 03.06.2017 йил 3-бет.

*Huquqiy odat* — huquqning manbayi sifatida qutsidegi asoslarga egadir. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar axloq, odat, an'ana, rasm-rasum va huquq kabi turli xil normalar asosida tartibga solinadi. Odat normalari asosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish alohida ahamiyat kasb etadi. *Odat* — bu doimiy takrorlanishi natijasida kishilar ongida shakllangan xulq-atvor qoidasidir. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi manbalar tizimida odat va huquqiy odatni farqlash lozim. Kundalik turmushdagi barcha odatiy qoidalar ham huquqiy odat sifatida shakllanavermaydi. Har qanday odat ham huquqiy odatga aylana olmaydi, balki ma'lum bir guruh, sinf yoki butun jamiyatning manfaatlariga mos kelgan taqdirdagina, ijtimoiy foydali va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan (ma'qullangan) holdagina huquqiy odat bo'lishi mumkin. O'zbekistonning mustaqillikkacha bo'lgan davrida Navro'z, Qurbon hayiti, Ro'za hayiti kabi diniy bayramlar odat tarzida, ayrim holatlarda yashirin ravishda o'tkazilar edi. O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgach, yo'qotilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarini tiklash maqsadida Respublika Prezidenti tashabbusi bilan Navro'z, Qurbon hayit va Ro'za hayiti kabi milliy qadriyatlarimizni rasmiy ravishda bayram sifatida e'tirof etib, shu kunlarni dam olish kunlari, deb e'lon qildi va mehnat qonunchiligida dam olish kunlari sifatida rasmiy belgilab qo'yildi. Mamlakatimizdagi ayrim odat qoidalari, nafaqat huquqiy odatga, balki umummajburiy bo'lgan xulq-atvor qoidasiga aylantirildi.

*Qonun normativ-huquqiy hujjatlar tizimida.* Normativ-huquqiy hujjatlar tizimida qonunlar asosiy o'rinni egallaydi. Qonun huquqning eng muhim shakli bo'lib, unda huquqning hamma sifatlari mujassamlashadi. Albatta, «qonun» iborasi serqirra va ma'nodordir. Bu o'rinda so'z yuridik qonunlar xususida bormoqda. Qonun davlat oliy vakillik organlarining eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan aktidir. Konstitutsiya (Asosiy qonun) qonunlar orasida markaziy o'rinni egallaydi. Unda jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy asoslari, siyosiy tizimi mustahkamlanadi, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv mexanizmi, fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari belgilab beriladi.

*Prezident farmonlarining huquqiy maqomi.* O'zbekiston Prezidenti davlat boshlig'i sifatida respublika hududida majburiy tarzda amal qiluvchi farmonlar chiqaradi. Prezidentning davlat mexanizmida va ijroiya hokimiyati tizimida to'tgan qat'iy o'rni uning farmonlarini normativ-huquqiy hujjatlar tizimida egallaydigan mavqeini, rolini belgilab beradi. Prezident farmonlari ijroiya hokimiyati tizimida eng yuqori kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatdir. An'anaga ko'ra, Farmon yuridik kuchi va ahamiyati jihatidan qonundan keyingi o'rinda turadi. Biroq hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi davlat va siyosiy tizimimizga joriy etilgan hozirgi sharoitda Farmonni oddiygina «qonunosti akti» deb tushunish to'g'ri bo'lmaydi. Bunday eskicha talqinni tark etish kerak. Farmon ijroiya hokimiyatining Konstitutsiyada belgilangan o'z vakolatlarini amalga oshirish aktidir.

Farmonlar, umumiy qoidaga ko'ra, O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda qonunlariga muvofiq va ularning ijrosini ta'minlash maqsadida chiqariladi.

Shu o'rinda qonunning ham, Farmonning ham tartibga solish predmeti borligini yodda tutish lozim. Konstitutsiyaga muvofiq Farmon bilan hal etiladigan masala



bo'yicha qonun chiqarish mumkin emas va aksincha. Biroq barcha Farmonlar parlament – Oliy Majlis tasdig'idan o'tishi lozim.

Qonun Konstitutsiyada belgilangan alohida qat'iy o'rnatilgan tartibda (odatda, to'rt majburiy bosqichli jarayon natijasida) qabo'l qilinadi. Farmonni qabo'l qilish esa qonun ijodkorligi jarayonidagi singari maxsus bosqichlarni amalga oshirishni talab etmaydi.

*Hukumatning qaror va farmoyishlari.*

O'zbekiston Konstitutsiyasining 98-moddasiga binoan, Respublika Hukumati - O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq mamlakatning butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashqilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabo'l qiladi va farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni ta'minlash maqsadida qonunlar, Oliy Majlis palatalarining boshqa qarorlari, O'zbekiston Prezidentining Farmonlari, qarorlari va faroyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Dunyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hech bir davlatning qonun yoki qonun osti hujjati bilan tartibga solinmaydi.

*Xalqaro munosabatlarda* huquq manbai sifatida shartnoma maydonga chiqadi. Xalqaro shartnoma — davlatlararo yoki boshqa shaxslar o'rtasida o'zaro kelishuvi bo'lib, xalqaro huquq asosida tartibga solinadi. Xalqaro shartnomalar to'zilgan vaqtda yoki tan olinganda (ratifikatsiya qilinganda) uning matnida ifodalangan majburiyatlarni taraflar bajarishi shartlili belgilab qo'yiladi. Ayrim holatlarda davlatlar o'rtasida to'zilgan shartnomalar amal qilish muddati tugamasdan ham bekor qilinishi mumkin. Buni xalqaro huquqda denonsatsiya qilish deb nomlanadi.

Vena konvensiyasining 2-moddasida xalqaro shartnoma huquqi haqida tushuncha berilgan: «Shartnoma - bu davlatlar o'rtasidagi kelishuv bo'lib, yozma ravishdagi xalqaro huquq bilan tartibga solinadi». Masalan, 1990-yilgi 12-sentabrda «GFR va GDRni yagona Germaniya davlatiga birlashtirish to'g'risida»gi to'zilgan xalqaro shartnoma ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi huquq manbaa sifatida xizmat qilmoqda. GDR bilan GFR davlatlarini birlashtirgan xalqaro shartnoma ularning keyingi harakatlari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro huquq tarixi davlat va huquq, umumiy tarixining ajralmas qismi bo'lib, davlatning dastlab vujudga kelishi bilan boshlangan. Ko'pgina tarixiy yodgorliklar eng qadim zamonlarda ham xalqaro huquq mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Qadimgi tarix, eng qadimgi davr tarixi — ibtidoiy va qadimgi jamiyat ishlab chiqarish munosabatlari hukm so'rgan davrdir. U paytlarda hali yagona xalqaro huquq tizimi shakllanmagan edi.

Umumiy, universal tus olmasidan ilgari xalqaro huquq jahonning turli mintaqalarida rivojlandi.

Mintaqalashuv qadimgi jamiyatda vujudga kelib, u to Rim imperiyasi yakson bo'lguncha (eramizning V asri oxirlari) xalqaro huquq uchun alohida xususiyatga

ega edi. Xalqaro huquq rivojlangan asosiy mintaqalar ikki daryo oralig'i va Misr, Hindiston, Xitoy, qadimgi Yunoniston hamda qadimgi Rim bo'lgan. Ularning har birida o'ziga xos xususiyatdagi xalqaro huquqiy muassasalar rivojlangandi. Albatta, xalqaro huquqning umumiy xususiyatlari, birinchi navbatda, ularning oddiylik harakteriga ega ekanligi huquqiy normalarga xos xususiyat edi. Buni Misr firavni Ramzes II xetlar shohi Xattushil III bilan eramizdan oldingi 1278 yilda to'zilgan xalqaro shartnoma misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bu shartnoma isyonlarni bostirish, qochqinlarni tutib egalariga qaytarish va shunga o'xshash qoidalarni ko'zda to'tgan edi.

Rim "xalqaro huquqi" xalqaro huquqning keyingi rivojiga ancha ta'sir ko'rsatdi. Rim huquqshunosi Ulpianing fikricha, "xalqaro huquq" deb nomlanuvchi Rim huquqining bir qismi urush, asirlik qullik tinch shartnomalar, yarashuv, elchilarni haqorat qilishni taqiqlashdan iborat muqaddas burch, shuningdek chet elliklar bilan nikohdan o'tishni taqiqlashga taalluqli normalardan iborat edi. "Xalqlarning huquqi shundan iboratki, - deb davom ettiradi Ulpian, undan barcha xalqlar foydalanadi". Rim huquqshunosi Pomponiyning ta'kidlashicha, "agar kimdir dushman tomonining elchisiga ziyon etkazsa, bu xalqlar huquqining bo'zishi sifatida qaralishi kerak. O'rta asrda xalqaro huquqning rivojlanishi qadimgi dunyo xalqaro huquqning normalariga qaraganda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi.

*Birinchi*dan, o'rta asr davlatlari harakteri aniq, ifodalangan yangi xalqaro huquq tarmoqlari ("Qirol huquqi", "Muhojirlarga nisbatan repressaliya" va boshqalar) vujudga keldi.

*Ikkinchi*dan, mintaqalarning o'zi ham boshqacha bo'lib qoldi ayrimlari yo'q bo'lib ketdi, yangilari vujudga keldi, ba'zilarining ko'rinishi o'zgardi. O'sha davrda xalqaro hayotning eng asosiy markazlari sifatida G'arbiy Evropa, Vizantiya, Kiev, keyinchalik esa Movorounnahr, janubi-g'arbiy O'rta er dengizi havzasi, Hindiston, Xitoy va Amerika qit'asidagi davlatlarning shakllanishlariga kuchdi.

*Uchinchi*dan, xalqaro huquqning oldingi institutlari takomillashdi.

*To'rtinchi*dan, xalqaro huquq o'rta asr davlatlari o'z taraqqiyoti jarayonida bosib o'tgan asosiy bosqichlar: o'rta asr davlatlarining paydo bo'lishi davri (V—XI asrlar), bo'linishlar davri (X—XII asrlar), monarxiya sulolasi bo'lgan yirik o'rta asr jamiyatining tashqil topish davri (XIII—XV asrlar) va nihoyat, absolyutizm davri (XVI—XVII asrlar)ga mute holatda rivojlandi.

Xalqaro huquqning hozirgi doktrinasining vujudga kelishi va rivojlanishi XVI asrga taalluqli bo'lib, avvalo atoqli golland olimi o'z davrining progressiv yurisprudentsiyasi asoschisi Gugo Grotsiyning (1583—1645 yillar) ishi bilan bog'liqdir.

Biroq Grotsiyning vorislari bo'lgan ispan dinshunoslari Frantsisko de Vitoriya (1492—1546 yillar), Frantsisko Suaris (1548—1617 yillar) va boshqalar o'zlarining diniy asarlarida xalqaro huquq, avvalo, urush va mustamlakalarni bosib olish huquqi masalalariga katta e'tibor berdilar. Ular, Avgustin Blajeniy va Foma Akvinskiy ruhida «tabiiy» huquqning katolik kontseptsiyasini rivojlantirdilar. Rim fuqaroligi bo'yicha mutaxassis, aslida kelib chiqishi italiyalik bo'lgan ingliz Alberiko Jentili

(1552—1608 yillar) ham xalqaro huquq masalalariga muayyan hissa qo'shdi. Jentili «Tabiiy» huquq kontseptsiyasining davomchisi bo'lgani holda xalqaro huquqqa, avvalo, amaliyot nuqtai nazaridan yondashdi. Shunga qaramay, faqat Gugo Grotsiy xalqaro huquqni mustaqil yuridik fan sifatida rivojlantirdi. U xalqaro huquqiy munasabatlarni vujudga keltirish prinsiplari masalasidagi qarashlarni eng to'la va erkin ifodalay olgan shaxs edi.

Grotsiyning ulqan adabiy merosi ichida (90 dan ziyod ish) «Ozod dengizi yoki Hindiston bilan savdo sohasida gollandlarga taalluqli huquqlar to'g'risida» va 1625 yilda chop etilgan «Urush va tinchlik huquqi to'g'risida»gi traktatlari, ayniqsa mashhurdir. Grotsiyning tinchlik huquqi to'g'risidagi kitobida hokimiyat tepasiga chiqib kelayotgan kuchlarning manfaatlarini ifodalaniib, Niderlandiya revolyutsiyasi g'oyalari bilan sug'orilgan xalqaro huquq sohasidagi asosiy qoidalariga ta'rif berilgandi va u erkin antiklerikal harakterga ega edi. Shu boisdan bu kitob 1627 yili taqiqlangan kitoblar qatorida XX asr boshlarigacha ta'qib qilingan.

Grotsiy qarashlariga binoan xalqaro huquq qisman «Sog'lom idrok ko'rsatmasi bo'lgan» «Tabiiy» huquqdan va qisman davlatlarning yalpi roziligiga binoan yaratilgan pozitiv (konventsion va odatdagi) huquqdan iboratdir.

Grotsiy urushlarni «xususiy» va «aralash», shuningdek odil va bosqinchilik urushlariga bo'lib, huquq bo'zilishlariga nisbatan javob tariqasidagi adolatli urushni tan olar, urush dahshatlarini yumshatish uchun kurashlar, o'zaro munosabatlarda vijdonan ish yuritishga da'vat etar, urush davomida bolalarni, xotin-qizlarni, keksalarni, din peshvolarini, fan zahmatkashlari, dehqonlar, savdogarlar manfaatlarini yoqlar edi. U urush vaqtida xususiy mulkni yo'q qilish va bosib olinganlar ustidan cheklashlar o'rnatish zarurligini isbotlashga urinardi.

XVII—XVIII asrlarda shakllangan xalqaro huquq, fanidagi uch, ya'ni tabiiy huquq pozitivlik grotsiyanlik ishlari asosiy yo'nalish ichida eng ta'sirligi Grotsiyanlik yo'nalishi bo'lgan edi. Grotsiy g'oyalarini rivojlantirishga shu yo'nalish vakili Shvetsariyalik Vettel jiddiy xissa qushdi. Uning «xalqaro huquq» kitobi (1758 yil) hozirgi paytda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

XVII—XVIII asrlarda Rossiyada xalqaro huquqiy qarashlar uch yo'nalishda rivojlandi. Ular harbiy nizomlarni ishlab chiqishda, Maksim Greg vasiyatlari va Yuriy Krijanichning siyosiy traktatlarida, elchilik prikazi faoliyatida o'z ifodasini topdi.

Maksim Greg o'z asarlarida (XVI asr) podshoga muhojirlarga homiylik ko'rsatishni maslahat berardi. Yuriy Krijanich Maksim Gregdan farqli o'laroq, o'zining «Siyosiy uylar» traktatida muhojirlarni chetlashtirish, ularni o'ziga yaqinlashtirishga yo'l qo'ymaslik axloqiy qarashlarini qabo'l qilmaslik g'oyasini ilgari so'rgan. U chet el munosabatlarini nihoyatda kamaytirishni taklif qilgandi: hech qanday elchilarni qabo'l qilmaslik muhim zarurat tug'ilmaganda ularni yaqin yo'latmaslik va tezda jo'natib yuborish; o'z elchilarini ham zarur ehtiyoj bo'lmaganda hech qaerga yubormaslik g'oyalari tarafdori edi.

1793 yili Konventga abbat Greguar tomonidan. taqdim qilingan va 21 moddadan iborat xalqlar huquqlari Deklaratsiyasi, jumladan, «Xalqlar tinchlik vaqtida bir-birlariga ko'proq yaxshilik qilishlari va urush vaqtida kamroq yovuzlik

ko'rsatishlari», «Dengiz kabi tuganmas va zararsiz foydalanishda bo'lgan hamma narsalar barchaga tegishli va qandaydir biron bir xalqning mulkiga aylanishi mumkin emas», «Xalqlar o'rtasidagi shartnomalar muqaddasdir» deb ta'kidlangan edi. Bu prinsiplar xalqlarning suvereniteti, bir-birining ishlariga aralashmaslik prinsiplari va fuqarolik plebistsit, kombatantlar singari institutlar bilan birgalikda hokimiyat tepasiga kelgan kuchlar xalqaro huquqning asoslarini tashqil etardi.

Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi ko'p ming yillik boy huquq va huquqiy madaniyat tarixiga ega. Payg'ambarimiz vafotlaridan keyin islom olamida yangi qonun va qoidalarni paydo bo'lish jaryoni to'xtadi. Ana shu davrdan boshlab barcha huquqiy muammolar Qur'oni Karimda va Payg'ambar alayhissalom sunnatlarida ko'rsatilib berilgan va qonun qoidalar hal etilib huquqiy tarbiya beriladigan bo'ldi. Islom huquqshunosligi asosan Qur'oni Karim va sunnati nabaviya asosida shakllandi va sunnatning negizini tashqil etuvchi hadislarni jamlab kelajak avlodni huquqiy tarbiyalash ehtiyoji vujudga keldi.

### **Abu Hafs Al-Kabir Al-Buxoriy**

Abu Hafs al-Kabir Azdoad ibn Hafs al Buxoriy Buxoroda tug'ilgan. Abu Hafsning yoshlik chog'i daqida ma'lumot adabiyotlarda uchramaydi. Ammo u boshqalar kabi o'zining diniy va huquqiy savodxonligini oshirish uchun o'sha davrda Abbosiylar davlati poytaxti Iroqqa boradi. U erda Ra'y maktabining vakili bo'lgan Abu Danifaning shogirdi Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniydan fiqh (islom huquqshunosligi) ilmini o'rganadi.

AbuHafs al-Kabir hanafiyma mazhabining Movarounnahrda kirib kelishida asosiy o'rinni egallagan. Ma'lumki, hanafiy mazhabi 2 yo'l orqali Movarounnahrda kirib kelgan. Birinchi yo'l bilvosita, ya'ni Iroqda yashagan mazhab asoschilaridan ularning Balxda yashagan shogirdlari orqali, xususan Abu Bakr al-Juzjoniy orqali Samarqandga kirib kelgan, Ikkinchi yo'l esa bevosita, ya'ni mazhab asoschilaridan to'g'ridan-to'g'ri Movarounnahr diyoriga, ya'ni Abu Hafs al- Kabir orqali Buxoroga olib kelinadi.

Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy hanafiy mazhabi normalarini tartibga solib, yozma holga keltirgan shaxsdir. Uning yozgan "al-Asl", "al-Jome' as-Sag'ir" "al-Jome' al-kabir" "az-Ziyodot" "as-Siyar as-sag'ir" va "as-Siyar al-kabir" asarlari hanafiy mazhabida "zohir ar-rivoya" nomi bilan mashhur bo'lib, ular mazhab doirasida konstitutsiyaviy mohyatga egadir. Zero mazhab ichidagi barcha normalarning umumiy prinsiplari undan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu prinsiplarga zid bo'lgan normalar rad etilgan.

Abu Dafs al-Kabir ushbu asarlardan ilk beshtasini muallif x;ayotlik chogda tuadizinchi asrning ilk yillarida Buxoroga olib keladi. Ammo Amudaryodan o'tish chog'ida mazkur kitoblarni tushirib oladi. Natijada Buxoroda ta'lim berganda xotirasiga suyangan holda hanafiy mazhabini o'rgata boshlaydi. E'tibor beriladigan yana bir jihat shuki, Abu Hafs "zohir ar-rivoya" normalarini umumlashtirib, ularning prinsiplarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lib, Buxoroda ushbu prinsiplarni analogiya asosida turli dolatlarga tatbiq eta boshlaydi. Bu jarayon islom huquqida "taxrij" deb ataladi. Abu Hafsning shunday ta'limoti natijasida keyingi davrlarda Buxoro faqhlari o'ziga xos erkinliklari, yangiliklarga intiluvchlanligi, huquqiy

munosabatalarni tartibga solishda yangi mexanizmlarni ishlab chiqqanligi bilan ajralib to'rgan.

U Buxoroda huquqiy maktab yaratdi. Uning ta'lim beradigan joy Buxoroning Xarajir qishlogi bo'lgan. Uning qo'lida ko'pgina faqhlar va olimlar etishib chiqdi. Hatto tarixchilarning ta'kidlashlaricha, Abu Hafs Buxoroda ilmning tarqalishiga, imom va ulamolarning hurmat topishiga sababchi bo'lgan.

Abu Hafs al-Kabir hanafiy mazhabi fiqhning Movarounnahrda tarqalishida jonbozlik ko'rsatgaya. Uning o'g'li Abdulloh ham bu borada katta xizmatlar qilgan. Shu sababli uni "Abu Hafs as-Sag'ir" ya'ni "kichik Abu Hafs" deb atashgan.

Abu Hafs al-Kabirning shuhrati nafaqat Buxoroga, hatto hanafiy mazhabining vatani bo'lgan Iroq va boshqa o'lkalarga ham tarqaladi. Arab diyori olimlari biror hodisaning huquqiy echimini topa olishmasa Abu Hafs al-Kabirdan echimini olishga intilishgan.

Olimlar uning ilmu fazlini baholab, uni «muallimi islom», ya'ni islom dinining muallimi, uning sharofati bilan Buxoroni «Qubbatul islom», ya'ni islom dini gumbazi va u kishi yashaydigan mahalla darvozasini «Haqroh», ya'ni haq yo'l deb atashgan eqan.

AbuHafs al-Kabir 768 yili tug'ilib, 832 yil vafot etgan.

#### **Abu Mansur Moturidiy (870-944)**

Buyuk islom olimi, faqih Burhoniddin al-Marg'inoniy Qur'on va Hadisni mukammal egallab, fiqh-islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur bilimga ega bo'lgan va huquqiy tarbiya sohasida beqiyos durdonalar yaratgan.

Abu Mansur Moturidiy 870 yili Samarqandning Moturid qishlog'ida tutilgan. U ona shahri Samarandda ilm tahsil olgan. U yuksak mutakallim va mutafakkir, yirik faqh va atokdi olim darajasiga ko'tarilgan.

Balxlik faqh Abu Sulaymon Juzjoniyning shogirdi Abu Bakr Juzjoniyy Samarqandga kelib, Murabba' degan joydagi rabotda dars bera boshlaydi. Bu er "Dor al- Juzjoniya" nomidagi ilmiy markazga aylanib, bir necha asr ilm-ma'rifat o'chog'i bo'ladi.

Abu Mansur Moturidiy ham shu erda Abu Bakr Juzjoniyydan islom huquqshunosligini o'rganadi.

Ma'lumki, XI-X asrlarda Markaziy Osiyo xududlarida siyosiy, mafkuraviy, huquqiy kurashlar avjiga chiqqan edi. Bu davr olimlarining deyarli barchasi ushbu muammolarni hal qilish maqsadida o'z yo'nalishi, ilmiy salohiyatidan kelib chiqib asarlar yozishgan, echim yo'llarini ko'rsatishga intilishgan.

Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyatini kuzatar eqanmiz u bu davrdagi muammolarni 3 ta asosiy yo'nalishda islohot olib borishga uringanligini ko'ramiz. Bu balki muammolarni hal qilishdagi asosiy g'oyasi ham bo'lgandir.

*Birinchi*dan, barcha muammolarning boshi bu islom dinining asosiy manbai bo'lgan Kur'oni karimni noto'g'ri sharhlashdir. Shu sababli uning o'zi Kur'oni karimni sharhlab shogirdlariga ta'lim bergan. Shogirdlari esa uning ma'ruzalarini to'plab kitob holiga keltirgan. Bu kitob hozirgi kunda "Ta'vilot azd as-sunna" va "Ta'vilot al-Qur'on" nomlari bilan mashhurdir.

*Ikkinchi*dan, siyosiy-mafkuraviy, g'oyaviy jihatga urg'u berish lozim. Zero

o'sha davrda eng ko'p urush va jamiyatdagi bo'linishlar aynan ushbu masala yuzasidan kelib chiqar edi. Shuning uchun u o'zining nazariyalarini «at-Tavhid» asarida to'plab yozadi. Undan tashqari o'sha davrda mavjud ko'zga ko'ringan oqimlar qarashlarining asossiz ekanligini ko'rsatib, isbotlab bir nechta kitoblar yozgan. Uning ushbu nazariyalari keyinchalik olimlar tomonidan tan olinib, islom dinidagi sunniylikning ikki mafkuraviy yo'anlishidan biri sifatida e'tirof etiladi va u moturidiya yo'nalishining asoschisi deb e'lon qilinadi.

*Uchinchidan*, huquqiy masalalarga e'tibor berish lozim, xususan huquq ijodkorlik jarayoni, manbalari va prinsiplari tartibli bo'lishi lozim. Bu maqsadda u "Ma'axiz ash-shar" asarini yozgan bo'lib, unda islom huquqida huquq ijodkorlik jarayoni, tartibini tizimga solishga uringan. Ammo uning bu asari bizgacha etib kelmagan. Shunga qaramasdan ba'zi tadqiqotchilar uning bu boradagi fikrlari va g'oyalari boshqa asarlari hamda keyingi davr olimlarining asarlarida keltirilgan iqtiboslar asosida tiklashga urinishgan. Manbalarda uning bu borada etuk olim bo'lganligi, uning g'oyalari keyingi davrda islom huquqshunosligi ilmining rivojiga poydevor bo'lganligiga ta'kidlanadi.

#### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

1. Huquqiy tarbiya tushunchasi nima?
2. Huquqiy tarbiya tizimi haqida ma'lumot bering?
4. Mutafakkirlar huquqiy tarbiya haqida fikrlarini tushuntirib bering?
5. Jahon huquqshunosligida huquqiy tarbiya taraqqiyoti nima?
6. O'zbekiston huquqshunosligida huquqiy tarbiya taraqqiyotini mizohlab bering?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. –Guliston, Universitet. 2020.
2. Topildiyev V.R. Ta'lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari–T., 2016. -144 bet.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. "Istiqlol" - T.: 2013.

#### **4-MAVZU:**

#### **HUQUQIY TARBIYANING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI**

#### **Reja:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda huquqiy tarbiya haqida tasavvurni shakllantirish
2. Akademik litsey, kollej va oliy ta'limda o'quvchi -talabalarga huquqiy ta'lim berish masalalari.
3. O'quvchilarga huquqiy tarbiya berishning pedagogik asoslari

Davlatning konstitutsiyaviy tuzum asoslari amaldagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - Asosiy qonuni 1992 yil 8 dekabrda 12-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida qabo'l qilingan. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun (1991 yil 31 avgust) Konstitutsiya uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi ilk bor 1990 yil martda bo'lib o'g'gan mamlakat Oliy Kengashining 1-sessiyasida ilgari surilgan. 1990 yil 20 iyunda Oliy Kengash 2-sessiyasining qarori bilan Prezident I.A.Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiya to'zilan. Konstitutsiya loyihasi 2 yil davomida ishlangan. Komissiya ishlab chiqqan loyiha 1992 yil 26 sentyabrda matbuotda e'lon qilinib, muhokama etilgan. Ikki yarim oy davomida 5 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan. Konstitutsiyaviy komissiya umumxalq muhokamasi yakunlarini ko'rib, loyihani tuzatib va ma'qullab Oliy Kengash sessiyasida ko'rib chiqishga tavsiya qilgan. Loyiha Oliy Kengash sessiyasida ham moddama-modda muhokama etilgandan so'ng qabo'l qilingan.

2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijalariga ko'ra hamda uning asosida qabo'l qilingan 2003 yil 24 apreldagi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga, jami 32 moddaga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'zining to'zilishi, yo'nalishi, mazmuni jihatidan O'zbekiston hududida shu vaqtga qadar amal qilib kelgan konstitutsiyalardan tubdan farq qiladi. U boshidan oxirigacha mustaqillik g'oyasi bilan sug'orilgan. Xalq hokimiyati g'oyasi butun Konstitutsiyaga singdirilganligi O'zbekiston Respublikasi Asosiy qonunining chinakam xalqchilligi, demokratik tabiatidan dalolat beradi. Konstitutsiyada demokratiyaning xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir degan asosiy qoidasi o'z ifodasini topgan (7-modda). Xalq xukumatga xizmat qilish uchun emas, aksincha, hukumat xalqqa xizmat qilish uchun mavjuddir. Prezident va hukumat demokratiyaning ana shu asosiy aqidasi sodiq qolmoqdalar. So'z erkinligi, o'z fikrlarini bayon etish, har bir insonning xoxlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi, matbuot erkinligi, yig'ilitsshar o'tkazish va birlashmalarga uyushish erkinligi, qonundan hammaning bab-baravar himoya topish huquqi, qonunlarga rioya etish va adolatli sudlovni amalga oshirish huquqlari - demokratiyaning eng muhim tartib-qoidalari bo'lgan bu masalalar Konstitutsiyada aniq-ravshan mustahkamlab qo'yilgan (29-, 31-, 33-, 48-, 67-moddalar). Hokimiyat fuqarolarning huquklarini himoya kilishga, tartib saklashga va xalq manfaatlarini ko'zlab jinoiy xatti-harakatlarga chek qo'yishga da'vat etilgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddani o'z ichiga olgan. Asosiy qonun oldidan Muqaddima beriladi, qabo'l qilingan Konstitutsiya xalq irodasi ifodalanishi natijasi eqanligi, uning o'z taqdirini o'zi belgilashga, birlik va teng huquqlikka intilishi bayon etiladi.

birinchi bo'limda konstitutsiyaviy tizimni asosiy tamoyillari jamlangan;

ikkinchisida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimi mustahkamlangan;

uchinchi bo'lim fuqarolik jamiyati qurilishining huquq asoslarini o'zida aks ettiradi;

to'rtinchisi davlat va ma'muriy-hududiy to'zilishga bag'ishlangan;

beshinchi bo'lim hokimiyatlar taqsimlanishi tamoyili asosida qurilgan davlat hokimiyatining yangi tizimini mustahkamlaydi, oliy va mahalliy davlat hokimiyati idoralari to'zilishini ochib beradi;

oltinchisi Konstitutsiyaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartibini o'z ichiga oladi.

2001 yil 4 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashqil etish to'g'risida»gi farmoyishi asosida mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida «O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi joriy qilindi. Mazkur o'quv kursi O'zbekiston Konstitutsiyaviy huquqining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u uzluksiz ta'limda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni ekanligi, unda davlat suverenligi, inson huquq va erkinliklari, burchlari nima ekanligi, shaxsning qanday qanday huquqlari mavjud, ularning qanday kafolatlanganligi, davlat hokimiyati kabi muhim savollar javobini egallash darajasida tinglovchi bilim olishi kerak.

Shuningdek, nafaqat konstitutsiyaviy huquqlarni o'rganish, balki bunday qoidalarning hayotga hamoxangligini o'rganib borish, milliy qonunchiligimizda konstitutsiyaviy qoidalarning kafolatlanishining qay darajadiligini tinglovchini bosqichma-bosqich (oddiydan murakkablikka tomon) solishtirib, unga ilmiy yondashib borish darajasiga etkazib borilishi o'ta dolzarb masaladir. Zero, huquqiy, demokratik degan g'oyalarning o'zi huquqqa tanqidiy, ilmiy yondashishni talab etadi.

Huquqiy bilim olgan shaxs o'z bilimini hayotda ishlata bilishi, tadbqiq eta olishi kerak. Inson va fuqarolarning huquq, erkinliklari, burchlari bo'yicha dars jarayonida o'rganganlarini hayotda foydalana olish, shaxsning qonun asosida o'zini himoya qilishi, o'z burchlarini bajarishi uning o'z hatti-harakatlaridan kelib chiqadi.

Bunday hatti-harakatlarning faollashib yoki aksincha susayib borishiga bir qancha omillar o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Masalan ta'lim muassasalaridan ma'sul shaxslar hatti-harakatlari yoki oiladagi shart-sharoitlar bunga o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini ko'rsatib turishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ta'lim muassasalaridagi ma'sullar o'z faoliyatlarining samaradorligini oshirishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi quyidagi asosiy qadriyatlarni mustahkamlaydi: mustaqillik, ongli, erkin shaxs, o'z-o'zini boshqarishga, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga asoslangan fuqarolik jamiyati va suveren, demokratik va huquqiy davlat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsii to'zilishi uning fuqarolar tinchligiga, milliy va ijtimoiy kelishuvga erishishga, shaxs erkinligi va saylov erkinligiga,



siyosiy barqarorlikka, iqtisodiy taraqqiyot va forovonlikka erishishga, davlat hokimiyati tizimini huquqiy asoslarda rivojlantirishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. O'zbekiston Konstitutsiyasi qonunchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, demokratik islohotlarni qaytarib bo'lmaslik uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratadi, xalqaro huquq umume'tirof etilgan me'yorlariga sodiqlikni namoyon etadi, mustaqil davlatimizning teng huquqli a'zo sifata dunyo hamjamiyatiga kirish uchun siyosiy-huquqiy asoslar yaratadi.

Umuman olganda, Konstitutsiya - inson huquqlari va erkinliklarini huquqiy kafolatlovchi, shuningdek, ijtimoi tuzum asoslarini, boshqaruv shakli va xududiy davlat to'zilishi, markaziy va mahalliy davlat hokimiyatini tashqil etish, ularning vakolati va o'zaro munosabatini, davlatning ramzlarini va poytaxtini belgilovchi, aktlar yig'indisi yoki konstitutsiyaviy odatlardan tashqil topgan yozma huquqiy akt.

"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashqil etish to'g'risida"gi farmoyishga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish dasturini yaratish, metodik ko'rsatmalar va boshqa didaktik vositalarga quyiladigan talablarni ishlab chiqish, barcha ta'lim turlari uchun bolalar va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda darsliklar va maxsus adabiyotlar yaratish vazifasi 21 a'zodan iborat to'zilgan maxsus komissiya oldiga qo'yildi. Ushbu komissiyaga akademik Sh.Z.O'razaev rahbar etib tasdiqlandi. Komissiya a'zolari huquqshunos olimlar, mutasaddi rahbar xodimlar, ta'lim muassasalari rahbarlaridan iborat bo'ldi. Farmoyishga ko'ra 2001-2002 o'quv yilidan boshlab maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, o'rta-maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kurslarini o'qitish hamda Konstitutsiyaviy ta'lim jarayonida asosiy vazifa - Konstitutsiyani o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy maqsad va vazifalarini; o'qitish va o'rganish tamoyillarini; bilimlar majmuasini; yoshlar egallashi lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarini aniqlash deb belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishning ta'limiy maqsad va vazifasi - adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda huquqiy davlat barpo etish, Konstitutsiyaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, ma'no-mazmuni hamda mazmunini o'rganish, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish barcha ta'lim turlarida o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Konstitutsiyani o'rganish uzluksiz ta'lim tizimida: **maktabgacha ta'limda** (o'rta, katta, tayyorlov guruhlarida) "Konstitutsiya saboqlari"; **umumiy o'rta ta'limda** (boshlang'ich ta'lim -I-IV sinflarda) "Konstitutsiya alifbosi", (V-VI sinfda) "Konstitutsiya olamiga sayohat", (VIII sinfda) "O'zbekiston davlati va huquqi" fani tarkibida, (IX sinfda) "Konstitutsiyaviy huquq asoslari"; **o'rta-maxsus ta'limda** (kasb-xunar kollejlari va akademik litseyda) "Konstitutsiyaviy huquq"; **oliy o'quv yurtlarida** "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" o'quv kursi asosida o'qitilmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida Konstitutsiyani o'rganish 3 bosqichda amalga oshiriladi:

I bosqich - o'rta guruhlarda (3-4 yosh);

II bosqich - katta guruhlarda (4-5 yosh);

III bosqich - tayyorlov guruhlarida (6-7 yosh).

Ma'lumki, maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda eng murakkab davr hisoblanadi. Oila o'zida milliy urf-odatlar va an'analarni mujassamlashtiradi, ularni saqlab qoladi va avloddan avlodga uzatadi. Oila sog'lom bo'lsa, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam bo'lsa, mamlakat barqarordir. Bolalarni voyaga etkazish va tarbiyalash bir-biridan ajratib bo'lmas jarayondir. Shaxsning mustaqillik darajasi uning jinsi, yoshi va odamlarga munosabati, shuningdek, madaniy va ma'naviy qadriyatlar va afzalliklarni xurmat qilish, shaxsiy odatlar - erta bolalikdanoq shakllanib bo'ladi.

Oilada bolalar kattalar va qo'shnilarga, jamoat fikri va muallim-ustozlarga nisbatan chuqur hurmat, to'g'ri so'zlik, mehnatsevarlik, jamoatchilik, o'zaro yordam va o'zaro qutqarish, mustahkam oila qurish va uni saqlab qolish, ta'lim olishga intilish tuyg'ulari bilan tarbiyalanadi.

Shunday bo'lsada, uyin faoliyati orqali bola shaxsida ijobiy xulq va odob malakalarini shakllantirish mumkin. Bunda o'yin ko'rinishlarining ko'lamini kengaytirish, nafaqat oilaviy turmushdagi voqealar aks etgan o'yin ko'rinishlari, balki sayrlarga olib borish, tabiatni kuzatish, do'konlarni ko'rish, transport vositalariga chiqish, yo'l harakati qoridalari bilan tanishish kabi o'yin turlarini ham ko'paytirish mumkin.

Maktabgacha ta'limda bola o'yin faoliyati bilan umumiy o'rta ta'limga tayyorlanib borishi bois maktabgacha ta'lim muassasalarida "Konstitutsiya saboqlari" mashg'ulotlari bolalarning yoshi, ongi, qabo'l qilish saviyasi, har bir bolaning yosh xususiyatlari inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi o'rgatish faoliyati o'yinlar orqali amalga oshirilishi sababli, Konstitutsiyadagi qoidalar turli xil mashg'ulotlarda tushuntiriladi. Aynan shu o'yinlar orqali bolalar o'z ququq va erkinliklarini, burchlarini anglab olishadi. Bu davrda Konstitutsiyaviy qoidalar sodda, oddiy, bolalar uchun tushunarli va qiziqarli tarzda bayon etilib:

**birinchidan**, bolalarga inson tushunchasi, uning ahamiyati, jamiyatdagi o'rni, inson sifatida bolalarning huquq va erkinliklari tushuntirilib, insonni sevis, hurmat qilishga odatlantiriladi, insoniylikning yovuzlik, vaxshiylikdan farqi ertaklar aytib berish, ertaklardagi voqealarni tahlil qilish mobaynida o'rgatiladi;

**ikkinchidan**, davlat inson manfaatini himoya qilishini, insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini eng oliy qadriyat hisoblanishini bolalar tilida tushuntirilib, inson sifatida avvalo o'zining qadr-qimmatini bilishga va uni hurmat qilishga o'rgatiladi;

**uchinchidan**, bolalar qanday vazifalarni ado etishlari o'rgatiladi. Madaniyat, ma'naviy va tarixiy merosni avaylab asrashga, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga odatlantiriladi;

**to'rtinchidan**, qiz bolalar va o'g'il bolalarning bir-birini hurmat qilishlari, o'zaro munosabatlari ham bayon etilib, ularning teng huquqli ekanliklari tushuntiriladi;

**beshinchidan**, jamiyatda oilaning o'rni, oilaning davlat tomonidan muhofaza qilinishi, farzandlar ota-onaga g'amho'r bo'lishlari, kattalarni hurmat, kichiklarni

izzat qilishlari lozimligi bayon etiladi;

**oltinchidan**, Vatanni sevishga, uni himoya qilishga o'rgatiladi. Davlatimiz ramzlari - bayroq, gerb, madahiyaning ma'no-mazmuni bayon etiladi. Konstitutsiyaviy ta'lim berish natijasida bir nechta bayroq va gerblar ichidan O'zbekiston Respublikasining bayrog'i, gerbini ajrata olish malakasi shakllantiriladi. Bularning barchasini amalga oshirishda shuni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bolalar shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsalar, endi o'z xoxish-irodasi bilan kerakli ma'lumotlar yig'ishga harakat qiladilar. Bolaning ana shu faolligi uning mustaqillikka, erkinlikka, mas'uliyatlikka olib keladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar umumiy axloq qoidalariga rioya qiladigan, ularni shaxs sifatida kamolga etkazishga asos bo'la oladigan bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

1992 yil 8 dekabrda qabo'l qilingan mamlakatimizning Asosiy qonuni – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bugungi kunda hayotimizda qanday ulqan, hal qiluvchi o'rin tutayotgani haqiqat.

-Hayotimiz qomusi bo'lmish Konstitutsiyamizni yuksak qadrlashimizning sababi mustabid tuzumdan butunlay voz kechganimizni e'lon qilib, biz uchun yangi davlat va jamiyat qurishning eng dolzarb vazifa va normalarini belgilab berdi.

-Konstitutsiyamiz bugungi kunda iqtisodiyoti tarkibida xususiy mulk ustuvorligini mustahkamladi.

-huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblangan fuqarolik jamiyatini shakllantirishning qonunchilik poydevoriga aylandi.

Konstitutsiya va uning asosida yaratilgan qonunchilik bazasi, shuningdek, 2010 yilda qabo'l qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi, 2011 va 2014 yillarda Bosh qomusimizga kiritilgan tuzatishlar jamiyatimizni isloh etish, dunyoda taraqqiyotning "o'zbek modeli" deb tan olingan dastur asosini tashqil etdi.

-Konstitutsiyamizda bizning bosh maqsadimiz – faqat huquqiy demokratik davlat emas, balki adolatli jamiyat qurish eqani aniq-ravshan belgilab berilgan.

-xalqimiz har qanday qiyinchilikka chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi.

-Bizning Konstitutsiyamiz, eski konstitutsiyasidan farqli o'laroq, inson huquq va erkinliklari, uning manfaatlari davlat manfaatlaridan ustun eqanini muhrlab qo'yishni e'lon qildi.

-Qadimgi dunyoning buyuk donishmandlari "Nimaiki qonuniy bo'lsa, u – adolatlidir", deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Ular shu tariqa aynan qonun adolat manbai va mezoni eqanini uqtirganlar, desak, har tomonlama o'rinli bo'ladi.

-Qonun va qonun ustuvorligi bo'lmagan joyda avvalo uning o'rnini korrupsiya degan balo egallaydi.

-AQShda faoliyat ko'rsatayotgan, katta obro'ga ega bo'lgan, Gellap instituti deb nom olgan ijtimoiy fikrni o'rganish markazi tomonidan «Qonuniy tartiblarga itoat qilish indeksi» degan mavzuda 2015 yilda o'tkazilgan va e'lon qilingan tadqiqot materiallari bilan tanishish ayni muddao bo'lur edi.

Ushbu nufuzli tashqilot shu yo'nalish bo'yicha o'z xulosasini chiqarish uchun jahon miqyosida 141 ta mamlakatda so'rov o'tkazib, katta yoshdagi 142 ming shaxsning fikrini o'rgangan. So'rovnoma 3 ta savol o'rtaga qo'yilgan.

Birinchi savol "Siz o'zingiz yashayotgan shahar yoki tumandagi mahalliy politsiyaga ishonasizmi?" degan mazmunda berilgan.

Ikkinchi savol: "Siz o'zingiz yashayotgan shahar yoki tumanda kechasi xavf-xatardan qo'rqmasdan yolg'iz yura olasizmi?"

Va uchinchi, "Oxirgi o'n ikki oyda siz va oila a'zolaringizning pul va mulki o'g'irlangan holat sodir bo'lganmi?" degan savol berilgan.

-Bizning mamlakatimiz, O'zbekistonimiz, bu so'rovnoma natijalariga ko'ra, dunyodagi 141 ta davlat orasida 2-o'rinni egallaganini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari barpo etilishi respublikamizda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangiliklardan biridir. Ta'limning bu bosqichida yoshlar ham fan yutuqlarini o'rganishlari, bilim olishlari va shu bilan birga ma'lum bir kasb-hunarga ega bo'lishlari nazarda tutiladi. Bo'lajak yosh mutaxassislarining huquqiy madaniyati tarkibiga oila va maktabda shakllangan dunyoqarashdan tashqari kasbiy tayyorgarlikning huquqiy belgilari ham kiradi. Bu belgilar har bir sohaga xos bo'lib, o'quv-tarbiya, amaliy mashg'ulot jarayonida o'quvchi ongi va faoliyatiga singdiriladi. Masalan, bo'lajak yosh durodgor o'quv-tarbiya jarayonida durodgorlikka xos mehnat intizomini, quruvchilarning mehnatini tashqil etish qoidalarini, ish haqi, ish vaqtini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni, durodgorlik muomala madaniyatini o'rganishi va uni amalda qullanish madaniyatini egallab olishi lozim. 1997 - yil 29 - avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining ta'limi to'g'risidagi qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda jamiyatda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat dasturidan ko'zlangan asosiy maqsad ham aynan shuning o'zidir.

Yosh ishchilarning kasbiy huquqiy madaniyati ishlab chiqarish amaliyoti davrida ayniqsa chuqur shakllanadi, chunki amaliyotda o'quvchilar nazariy bilimlarni amalda sinab ko'radilar, shuningdek o'zlari tajriba o'tkazadigan joylarda xodimlar mehnat qonunlariga qanday amal qilayotganlarining shohid bo'ladilar. O'smirlar deganda, yoki voyaga yetmaganlar deganda ko'pchilik hollarda 14-17 yosh oralig'idagi yoshlar tushuniladi. Bu davrda yosh o'spirinlar ko'proq oila huquqi, mehnat huquqi va jinoyat huquqiga ko'proq qiziqadilar. Bu huquq sohasiga oid qonunlarni, kodekslarni hamda me'yoriy hujjatlarni o'rganishga harakat qiladilar. Buning sabablarini ularning voyaga, ya'ni balog'at yoshiga yetishi bilan ham izohlash mumkin. Masalan, 16 yoshdan mehnat qilish huquqiga ega bo'lishi, qizlar 17 yoshdan, yigitlar 18 yoshdan nikoh qurish huquqiga ega bo'lishlari yoki yosh o'spirinlarning 16 yoshdan jinoiy javobgarlikka tortilishi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97 - moddasi 2 bandiga asosan og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganligi uchun 13 yoshdan jinoiy javobgarlikka tortilishining belgilanganligi, 14 yoshdan esa jinoyat kodeksining 20

ta moddasida belgilangan og`ir va o`ta og`ir jinoyatlar uchun javobgarlikning belgilanganligi ham sabab bo`lsa kerak deb o`ylaymiz.

Kasb-hunar, texnika kollejlari o`quvchilarga maxsus amaliyot, tajriba o`tkazish uchun maxsus mo`ljallangan sharoit bo`lib, balki biror korxonada bilan bog`langan holda mehnat qoidalari bilan puxta tanishtirish, korxonadagi ichki kun tartibiga, unda o`rnatilgan qoidalarga amal qilishlari belgilab qo`yilgan bo`ladi. Bundan tashqari kasb-hunar kollejlari «Davlat va huquqshunoslik asoalari» fani, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 - yil 4 - yanvardagi «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganish o`quv kursini tashqil etish to`g`risida»gi F-1322 sonli Farmoyishiga asosan «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganish» o`quv kursining o`qitilishi muhim ahamiyatga egadir. Bunda talabalar davlat boqaruvi, davlatning konstitutsiyaviy to`zimi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati to`g`risida huquqiy bilimlarga ega bo`ladi. Huquq tartibot va sud organlari, prokuratura hamda huquqni muhofaza qilish organlari, fuqarolarning o`z – o`zini boshqarish organlarining vakolatlari va vazifalari to`g`risida ma'lumotlarga ega bo`ladilar.

Yoshlarni o`rta maxsus kasb-hunar ta'limi, akademik litsey, kollejlarda yoshlarni tarbiyalash ularning porloq kelajagimizning poydevori ekanligi, xalqimiz katta umid bilan ularga qarayotganligini, davlat esa o`z qonunlari orqali yoshlar mehnatini huquqiy kafolatlayotganligini ko`rishimiz mumkin. Huquqiy kafolatlar ishga qabo`l qilishda, mehnatga haq to`lash, qisqartirilgan ish vaqti, iqtisodiy imtiyozlar bilan ta'minlash, bilim olish, davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash, og`ir va zararli ishlarda yoshlar mehnatidan foydalanishni cheklash, dam olish, davolanish, uzluksiz ta'lim olish va boshqa huquqlarida namoyon bo`ladi. Masalan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 - yil 11 - martdagi 87 - sonli «O`zbekiston Respublikasida kadrlarni uzluksiz kasbga o`qitish, qayta o`qitish va ularning malakasini oshirish tizimini shakllantirish to`g`risida»gi qaroriga ko`ra xodimlarni soni 1000 kishidan ortiq ortiq bo`lgan ishlab chiqarish korxonalarida o`quv kurslarini va kombinatlarini tashqil qilish vazifasi belgilab qo`yilgan.

Qayta tayyorlash, malaka oshirish, umumiy o`rta ta'limga ega bo`lgan o`quvchilarni akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi bilan to`la qamrab olish tadbirlarini amalga oshirish ko`rsatib o`tilgan.

Ta'lim tizimining uzluksizligi tamoyili asosida oliy ta'lim bosqichida ham, institut va universitetlarda yoshlarning huquqiy tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Huquqiy fanlarning keng va chuqurlashtirilgan dastur asosida o`qitilishi bilan bir qatorda suhbat-muloqot, bahs – munozara, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan hamkorlikda davra suhbatlari tashqil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Talaba – yoshlarning turmush madaniyati, moddiy ta'minoti, ularning ongiga nisbatan tezroq o`smoqda. Masalan, o`quv yurti imtiyozlaridan birinchi kundayoq foydalana boshlaydilar, imkoniyatlari boricha imtiyozlardan foydalanishga intiladilar.

Talaba – yoshlarning o`zaro munosabatlari, o`qishga e'tiqodlari, mulkka munosabatlari, xulq – atvorlari va hatti – harakatlari barchasi oila va maktab

tarbiyasida o`zlashtirilgan qoidalar asosida tartibga solinadi. Institut muhiti ularga birinchi kunlardanoq ta'sir o`tkazmaydi. Muhitga moslashish har bir talabada o`ziga xos tarzda kechadi. Talaba – yoshlarga yangi muhit salbiy ta'sir ko`rsatishining oldini olish uchun yuqori kursda o`qiyotganlarning hayot tajribalariga tayanish yaxshi natija beradi deb o`yladilar.

Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik ta'lim yo`nalishlarida Huquqshunoslik fanidan 12 soat ma`ruza, 12 soat amaliy mashg`ulot, jami 24 soat; —O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini o`rganishll o`quv kursidan 20 soat ma`ruza, 20 soat amaliy mashg`ulot, jami 40 soat, umumiy holda esa 1 kurs talabalariga 64 soat hajmida huquqiy ta'lim-tarbiya ishlari amalga oshiriladi. Shu bilan birga darsdan tashqari mashg`ulotlar; davra suhbatlari, suhbat-muloqot, huquqiy fan tugaraklari, ommaviy axborot vositalari yordamida ham huquqiy tarbiya jarayoni o`z davomiyligini saqlab qoladi. Yoshlar huquqiy ta'lim-tarbiyasiga kattalarning huquqqa itoatkorligi va jamiyat huquqiy madaniyati ham o`z ta'sirini ko`rsatmay qolmaydi.

Xalqni huquqiy ma'rifatli qilishda professional yuristlar va ularning birlashmalari munosib o'rin egallashlari lozim. Demokratik jamiyat yuqori malakali yuristlarga ehtiyoj sezadi. Ularning kasbiy fazilatlari va bilimlaridan foydalanish jamiyatning huquqiy madaniyati va huquqiy ongiga ulqan ijobiy ta'sir ko'rsatishga qodir. O'zbekiston yuristlar uyushmasining tashqil etilishi va uning tarkibiga kiradigan yuristlarning turli kasbiy birlashmalari (sudyalar, advokatlar, huquqshunos olimlar ittifoqlari va boshqalar) to`zilishi ushbu Dastur vazifalarini ro'yobga chiqarishda, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda, shuningdek yuristlarning kasbga doir manfaatlarini ta'minlashda muhim o'rin to`tgan bo'lur edi. Aholini huquqiy ma'rifatli qilish ishiga professional yuristlarning kuchlarini jalb qilish yuristlar uyushmasining eng muhim vazifalaridan biridir. Huquqiy tarbiyani qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumatga qarashli bo'lmagan jamg'armaning to`zilishi jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirish ishiga katta hissa qo'shishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari huquqiy bilimlar va huquqiy madaniyatni ommaga izchil tarqatishlari lozim. Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy fikr va huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi demokratik institutlar bo'lgani uchun ham ularning bu boradagi faoliyatini kuchaytirish zaruriyati borgan sari ko'proq sezilmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barchasi inson va uning manfaatlarini uchun yo`naltirilganligi nafaqat qabo'l qilinayotgan qonun hujjatlari, balki, amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning asl maqsadi eqanligi barchamizga ma'lum. O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "...biz sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlik emas, balki, sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonlarni tushunamiz. Oliy Majlis bu borada davr talablariga javob beradigan, eng

qulay, ilg'or tajribalarga tayangan va uzviy bog'liq bo'lgan qator qonunlar qabo'l qilish kerak"<sup>6</sup>.

Ta'kidlash lozimki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng, bozor munosabatlari sharoitida fuqarolarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroklari doirasi ancha kengaydi. Huquqiy munosabatlarda nafaqat voyaga yetgan fuqarolar, balki, 18 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar ham o'zlarining subyektivlik maqomidan foydalanib ishtirok etishlari mumkin. Bu ishtirokni ta'minlash uchun Hukumat tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

O'zbekiston jahonning rivojlangan davlatlari qatoridan joy olishi uchun birinchi navbatda fuqarolarning shu qatorda yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish va ular orasida qonunlarni targ'ibot qilishni kuchaytirish lozim.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Har bir fuqaro, har bir inson o'z haq-huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarning huquqiy bilimlar bilan qurollantirish shart. Toki, jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va o'z mas'uliyatini puxta bilmas eqan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas eqan, bizning islohotlar, yangilanish haqidagi barcha so'zlarimiz, sa'y-harakatlarimiz besamara ketaveradi"<sup>7</sup> - deb aytib o'tgan edi. Demak, har bir kishining huquqiy madaniyatli bo'lmog'i jamiyat va farovon hayotimizning taqdiri bilan bog'liq masaladir. Bu esa joylarda yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining yangidan-yangi ko'rinishlarini hamda ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni vujudga kelayotganligi va bu boradagi hamkorlik barcha joylarda ham to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi:

– voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olish subyektlarining oila va ta'lim muassasalari bilan hamkorligini ta'minlovchi hamda tashqiliy asoslarini belgilovchi metodik qo'llanmalarni yetarli darajada emasligi;

– voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining yakka tartibdagi profilaktikasi tashqil etish bo'yicha huquqni muxofaza qilish organlari o'rtasidagi o'zaro hamda ularning oila va ta'lim muassasalari bilan hamkorligini tashqil qilish sohasida muammolarning mavjudligi va hal etilmaganligi;

– jinoyat sodir etgan yoki bunga moyil bo'lgan voyaga yetmaganlar, farzandining tarbiyasiga salbiy ta'sir etayotgan ota-onalar, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ustidan samarali ijtimoiy-huquqiy nazoratni yo'lga qo'yish va uzluksiz takomillashtirib borish maqsadida, ushbu hodisalar va ular bilan bog'liq

---

<sup>6</sup> Karimov I. A O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -Toshkent: O'zbekiston, 1997. -137 b.

<sup>7</sup> Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. G`Xalq so'zi. 2007 yil 8 dekabr'

jarayonlarning kelgusidagi ko'rinishlari hamda yo'nalishlarini bashorat qilish zarurligi va xokozolar.

Yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tashqil etish va sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish borasida pedagoglar faoliyatini yanada kuchaytirish uchun quyidagi amaliy ishlarni amalga oshirishimiz kerak:

1. Umumiy ta'lim maktablarida huquqiy bilimlarni targ'ib qiladigan xonalar tashqil etish.

2. Bilim masqanlarining sud, prokratura, advokatura, birinchi navbatda esa voyaga yetmaganlar inspektsiyasi va voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar bilan aloqalarni mustahkamlash.

3. Doimiy ravishda yangi tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ularni hayotga keng tadbiiq etish. To'plangan ilmiy bilimlardan pedagogik tajribalarda foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodga davlatimiz qonunlariga muntazam rioya qilish ko'nikmalarini singdirish. Bularning barchasi huquqiy tarbiyaning samarali amalga oshirishning muhim omilidir.

Har bir pedagog ta'lim bilan tarbiya berishga jiddiy e'tibor qaratishi lozim. Bunda maktabda o'qitiladigan fanlarni o'ziga hos ahamiyati va imkoniyatlari bor. Ana shu imkoniyatlardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish o'qituvchining bilim, tajriba va mahoratlariga, izlanishiga bog'liq. Hozirda maktab dasturlarida mavjud bo'lgan "Tarix", "Davlat va huquq asoslari", "Inson va jamiyat", "Konstitutsiya asoslari", "Milliy istiqlol g'oyasi", "Vatan tuyg'usi", "Odobnoma" darslarini o'qitish jarayonida o'quvchilarga huquqiy tarbiyaga oid bilimlar berib borilmoqda.

Belgilangan rejalarni amalga oshirishda turli-tuman tarbiyaviy tadbirlar: "Qonun hammamiz uchun majburiydir", "Davlatimiz ramzlari", "Burch va Vijdon", "Qonun va biz", "Hayot qonun bilan go'zal", "Men ozod yurt farzandiman" kabi mavzularda yig'ilishlar, kechalar munozaralar uyushtirish, huquq-tartibot organlari hamda harbiy bo'linmalar bilan doimiy aloqalarni o'rnatish, ular yordamida "Yosh posbonlar", "Militsiyaning yosh do'stlari" guruhlarini to'zish kabilardan ham keng foydalanish mumkin.

Xulosa va tavsiyalar shundan iboratki, pedagogik-olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, huquqiy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, uning samaradorligi yanada oshadi:

- Ta'lim muassasasi o'zining ta'sirlari majmuini ko'proq huquqiy tarbiya jarayoniga izchil yo'naltirsa;
- O'qituvchilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorligi davrida o'zlarining axloqiy tarbiyaviy talablarini to'g'ri tashqil eta olsalar;
- Xalq ta'limi bo'limi va ta'lim muassasalari ota-onalarni tarbiyaviy jarayoniga faol jalb qilsalar;
- O'qituvchilar o'quvchilarga huquqiy tarbiya berish ishlarini oiladan boshlashsa va bu ish ularning barcha o'quv yillarida davom ettirilsa;

Xalqimizda yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshga qiyoslanadi. Bu hayotiy haqiqat. Bolalikning beg'ubor murg'ak qalblariga ekilgan har qanday ezgulik urug'i katta bo'lgach, o'z mevasini berishi shubhasiz. Bugun kuchli huquqiy davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari dadil odimlayotgan yurtimizda yosh avlod



istiqboli yo'lida qilinayotgan ishlar behisob. Bu kishini quvontiradi, zero, mustaqil fikrli, o'zining mustahkam fuqarolik pozisiyasiga ega, intellektual salohiyatli va huquqiy madaniyatli yoshlar bizning bor umid va ishonchimizdir.

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda huquqiy tarbiya haqida tasavvurni shakllantirish zarurati haqida tushuntirib bering?
2. Akademik litsey, kollej va oliy ta'limda o'quvchi - talabalarga huquqiy ta'lim berish masalalari haqida fikr bildiring?
3. O'quvchilarga huquqiy tarbiya berishning pedagogik asoslarini tushuntirib bering?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. –Guliston, Universitet. 2020.
2. Topildiyev V.R. Ta'lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari–T., 2016. -144 bet.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. "Istiqlol" - T.: 2013.

### **5-MAVZU:**

### **HUQUQIY TARBIYADA SHAXS XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH.**

#### **Reja:**

1. Huquqiy tarbiya berish jarayonida shaxs xususiyatlarini o'ziga xosligi
2. Huquqiy tarbiya berish orqali yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish.
3. Huquqiy ta'lim-tarbiyaning xususiyatlari va vazifalari.

Huquqiy ta'lim-tarbiya o'z tarixiga ega bo'lib, qonunlarni aniq ijro etilishiga ta'sir ko'rsatishga qodir, siyosiy to'zilishidan qat'i nazar hamma davlatlar undan manfaatdor. Ma'lumki, qadimgi Yunoniston va Rimda bolalikdan boshlab fuqarolarga qonunlar o'rgatilgan. Rim davlatida 14 yoshgacha bo'lgan bolalar qonunlarning 12 jadvalini yod olganlar. Eramizdan oldingi III asr boshlarida mavjud

boʻlgan va bizgacha yetib kelgan «Fuqaro Xersonesning qasamyodi»da, jumladan, shunday deyiladi: «Men fuqarolarning hech biriga nisbatan hech qanday adolatsiz ishni xayolimga keltirmayman...va bunaqa ishga yoʻl qoʻymayman, buni yashirmayman ham, lekin uni sud eʼtiboriga yetkazaman va suda qonunlarga muvofiq ovoz beraman». Bu oʻrinda nafaqat qonunlarga rioya etilishi haqida, shu bilan birga yoshlarning va boshqalarning qonunlarni boʻzishlarini fosh qilishga jalb etilishi toʻgʻrisida ham borgan.

Huquqiy taʼlim -tarbiya muammolari Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSh kabi mamlakatlarda huquqiy tarbiya masalalari doimo diqqat markazida boʻlib, uning koʻp muammolari hal etilgan. Bunda har doim huquqiy tarbiyaning ayni bir paytda oʻsib kelayotgan avlodga ham siyosiy, ham maʼnaviy taʼsir koʻrsatilishi eʼqanligini tushunib yetish namoyon qilingan va hatto takidlab oʻtilgan. Masalan, Fransiyada 1879 yilda joriy qilingan maktablarda axloq va huquqning oʻqitilishi «fuqaro», «mamlakat», «Askar», «qonun», «jamiyat», «adolat» kabi va boshqa bir qator shunday soʻzlarning maʼnosini tushuntirib berishdan boshlangan. bolalar 9-11 yoshida davlat qurilishi, shuningdek, harbiy xizmat, soliqlar va shu kabilar haqida oddiy tasavvurlarga, keyinchalik esa – davlat va huquq toʻgʻrisida ancha batafsil maʼlumotlar ega boʻlishganl.

Siyosat – iqtisodiyotning umumlashtirilgan ifodasi, deyiladigan boʻlsa, huquq toʻgʻrisida u siyosat, iqtisodiyot va shu davlatda boʻlgan axloqning umumlashtirilgan ifodasi, deyish mumkin boʻladi.

Huquqiy taʼlim - tarbiya hamisha davlatning siyosat,iqtisodiyot va axloqqa nisbatan oʻz nuqtai nazarini aholiga aniq etkazib berish borasidagi eng ishonchli yoʻl hisoblanadi. Huquqiy normalar yozma shaklda ifodalanadi va shu tariqa odamlar u bilan davlat tomonidan taʼriflanganidek shaklda tanishish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Oʻsib kelayotgan avlod huquqiy taʼlim - tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning oʻz karakteri, turmush tarziga asoslanadi.

Avvalo, huquqiy taʼlim - tarbiya yangi insonni kamol toptirishning samarali vositasi hisoblanadi. Qonunlar jamiyatimizning eng muhim axloqiy normalarini ifodalash bilan Ayni bir vaqtda ushbu normalarning nafaqat eʼlon qilinishi, shu bilan birga real taʼminlanishining dalili boʻlib xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda huquq qudratli tarbiya vositasi hisoblanadi.

Huquqiy taʼlim - tarbiya yana shuning uchun ham muhimki, jamiyat qonunlari oʻzining dolzarbligini saqlab qoladigan ilgʻor va insoniy qoidalarni oʻz ichiga olgan boʻladi.Toʻrgan gapki,oʻz mohiyatini yoʻqotgan normalar barham topadi, lekin koʻpgina narsalar saqlanib ham qoladi. Endi ular huquqiy norma, qonun sifatida boʻlmaydi. Odamlar tegishli qoidalarga amal qilishga oʻrganishadi, bu ular uchun odat tusiga kiradi. Ana ushanda bunday qoidalarni qonunlarda mustahkamlab qoʻyish va ularni, mabodo bunday qoidalarga rioya qilinmaganda buning uchun tegishli huquqiy javobgarlikka jalb qilinadi, degan koʻrsatma orqali isbotlab qoʻyishga boʻlgan zaruriyat oʻz oʻzidan barham topadi. Bunday qoidalar endi ma'naviy tartibga soluvchilar tarzida amal qilaveradi.

Rivojlanib borayotgan demokratik jamiyat sharoitida, yuqorida qayd qilib o`tilganidek, yosh insonlarning yuksak ijtimoiy-huquqiy faolligini shakllantirish, ularning turli huquqbuzarliklarga qarshi, qonunchilik va huquqiy tartibotni mustahkamlash uchun kurashda mustaqil ishtirok qilishiga erishish g`oyat muhimdir.

Yoshlarni huquqbuzarliklarga qarshi qonunlarda belgilangan tartibda kurashishga o`rgatish zarur. Bu ishda hokimliklar, kasaba uyushmalari, O`zbekiston yoshlari jamoat tashqilotlari, O`zbekiston xalq demokratik partiyasi faol ishtirok etmoqdalar.

Yangi insonni kamol toptirish va huquqiy ta`lim - tarbiyani ta`minlash yoshlar huquqiy tarbiyasining umumiy vazifalari hisoblanadi. Biroq huquqiy tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish manfaatlari bunday faoliyat yo`nalishlari va mazmuni haqida yanada batafsil tasavvur hosil qilinadigan bir muncha alohida vazifalarning ham ajratib ko`rsatilishini taqozo etadi.

Ular quyidagilar:

birinchidan, davlat va huquq masalalariga doir bilimlarning zarur tizimini shakllantirish, huquqning joriy va dolzarb masalalari yuzasidan xabardor qilish.

ikkinchidan, davlat va huquq, qonuniylik prinsiplariga nisbatan hurmatni shakllantirish.

uchinchidan, qonunga muvofiq xulq-atvor ko`nikmalarini singdirish.

to`rtinchidan, faol fuqarolik pozitsiyasining, har xil huquqbuzarliklarga nisbatan toqatsizlik munosabatini tarbiyalash.

beshinchidan, qonunda belgilangan tartibda o`zining, davlat, jamiyat va boshqa shaxslarning manfaatlar va huquqlarini faol himoya qilishga ehtiyojni va bunday qobiliyatni shakllantirish.

oltinchidan, davlat va huquqqa nisbatan noto`g`ri qarashlarga qarshi tura bilish, ularni faol va ishonarli tarzda fosh qilish qobiliyatini singdirish.

Bilimlar xususida gapirganda, bu o`rinda, avvalo, yoshlarga bilimlarni qanday hajmda yetkazish kerak, degan savol kundalang bo`ladi. Nazarimizda, umumiy ta`lim maktabi doirasidagi huquqiy ta`lim - tarbiya birinchi navbatda voyaga yetmaganlarni ular hozirda ijro etayotgan va kelgusida bajarishi lozim bo`lgan umumiy ijtimoiy rollarni «davlat fuqarolari, oila a`zosi, o`quvchi» ado etishga tayyorlashga xizmat qilishi kerak.

Yoshlar ularga bevosita tegishli bo`lgan umumiy o`rta ta`lim maktabi nizomi; O`quvchilar uchun qoidalar; Bolalar va o`smirlarning jamoat joylardagi xulq - atvor qoidalari; bolalar va ota - onalar munosabatlarini tartibga soladigan nikoh-oila huquqi normalari; sog`likni saqlash haqidagi qonunlar; Fuqarolik qonuni; jinoyat haqidagi qonun va boshqa huquqiy hujjatlarni bilishlari lozim.

Huquqlar bilan majburiyatlarning mustahkam aloqadorligi prinsipi muhim prinsiplaridan biri bo`lib, bir toifadagi kishilar boshqa toifadagi kishilarning majburiyatlari bilan har doim o`zaro aloqador bo`lgan suveren, demokratik davlat qonunlarida ancha to`liq mujassamlashgan bir kishining huquqiga qaysidir boshqa kishining majburiyati muvofiq kelmasa, unda bunday huquq noreal huquq bo`ladi va «havoda muallaq holda osilib qoladi». Masalan, agar fuqaroni dam olish huquqiga ma`muriyatning ta`til taqdim etish majburiyati muvofiq kelmasa, unda

bunday huquq quruq bayonatdan iborat bo`lib qolgan bo`lardi. Odamlarning o`z majburiyatlarini bilishiga va ayni bir vaqtda o`z huquqlarini aniq tasavvur qilishlari, ularni himoya qila bilishlariga ham erishish zarur. Ana shunday aniqlanmay qolgan va jazo olmagan huquqbuzarlik faktlari ancha kamayadi. Shuning uchun yoshlarni diqqat e`tiborini nafaqat majburiyatlarga qaratish, shu bilan birga ularni qonun bilan to`liq hajmda : ham huquqlar, ham majburiyatlar tomonidan tanishtirish nihoyatda muhimdir. Bu fuqarolarning yuksak ijtimoiy-huquqiy faolligini shakllantirish ularni jamiyatning boshqa a`zolari bilan mustahkam o`zaro aloqadorlikda eqanliklarini anglab yetishning g`oyat muhim yo`lidir.

Huquqiy ta`lim - tarbiya faqat yoshlarning o`zlari, shuningdek ularning yaqin atrofdagi shaxslar, kichik guruhlar huquqiy ongining mavjud darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilgandagina samarali bo`lishi mumkin. Shu bilan birga huquq masalalari yuzasidan keng jamoatchilik fikri holatini ham hisobga olmaslik mumkin emas.

Tadqiqotlar yoshlarning huquqiy ongida hisobga olinishi zarur bo`lgan bir qator o`ziga xos jihatlar mavjudligidan dalolat beradi. Ko`pgina yoshlar o`zlarining xulq-atvorini qonun bilan solishtirish va huquqiy tushuncha bilan fikrlashga o`rganmaganlar. Ular asosan «yomon», «yaxshi» degan baholarga asoslanib ish ko`rishga odatlanishganki, bu, albatta, yetarli emas. «Yomon» degani – bu shunchaki axloqqa zid bo`lishi mumkin va ayni bir vaqtda tegishli oqibatlariga olib keladigan huquqqa zid harakat haqida berilgan baho bo`lishi mumkin.

Ayrim yoshlar qonunning ijtimoiy rolini, uning ijtimoiy munosabatlarini tartibga solib turuvchi real tasavvur eta olmaydilar, balki huquqning asosan formal taqiqlashlar tizimi deb o`ylaydilar. Ularning fikricha, qonunlar faqat jinoyatlarga qarshi kurash uchun mavjud bo`lib «biz surovlar o`tkazgan bolalarning 28 %i ana shunday deb o`ylagan», asosan taqiqlanadigan narsalar ro`yxatini ko`rsatish va jazo choralarini bayon qilishga xizmat qiladi. Ko`pincha o`smirlar «qonun uni ijro etish uchun mavjuddir», deb ham javob qilishadi. Ular qonunlarning qanday, nima uchun yaratilishi, masalalarni ular nima uchun aynan shunday hal etishi, nega boshqacha yechim bermasligi, qonunlarning jamiyat va har bir kishi turmushida qanday rol o`ynashi, nima uchun ularni bo`zmaslik kerakligi xususida unchalik ko`p bosh qotirmaydilar. Masalan, o`smirlardan so`ralganda, ularning huquqiy javobgarlik hajmlarini ancha kamaytirish jinoiy jazoga sabab bo`ladigan qilmishlar doirasini asossiz ravishda toraytirish, yashiruvchilik ishtirokchilik uchun javobgarlikni, «samolyotni tutqunlar bilan olib qochganlik uchun qanday javobgarlik sodir bo`ladi?», «men bir kishining narsasini o`g`irladim, buning uchun meni qancha muddatga kesishadi?», va shu kabi savollarga qanday javob berishni bilmasligi ma'lum bo`ladi.

Ayrim yoshlarning huquqbuzarliklari va noto`g`ri huquqiy qarorlari ular ega bo`lgan qadriyatlar tizimidagi nuqsonning oqibatidir, bunday qadriyatlar tizimida huquq nisbatan yuqori o`rin tutmagan bo`ladi. O`g`irlik, bezorilik harakatlarning «o`rtoqlardan qolmaslik uchun » yoki «qo`rqoq bo`lib ko`rinmaslik uchun » sodir qilinishi hollari ma'lum. Bunday hollarda o`smirlar uchun «jasurlik», «o`rtoqlarining hurmat qilishi » ( noto`g`ri tushunchalar ) kabi qadriyatlar qonunga nisbatan

muhimroq. Shuning uchun qonun qonun to'g'risida demokratik jamiyatning eng yuksak qadriyati sifatidagi tasavvurni hosil qilish nihoyatda zarur.

O'smirlarning huquqiy ongi ularning ota onalari, tengqurlari huquqiy ongiga, huquq masalalari bo'yicha keng tarqalgan jamoatchilik fikriga juda bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishi, huquqbuzarliklarni sodir etadigan yoshlarning huquqiy ongi ularning boshqa tengdoshlari huquqiy ongidan farq qiladi. Huquqbuzarlarning qonunni yaxshi bilaman degan fikri ko'pincha noto'g'ri fikr bo'ladi.

birinchidan, birinchi jinoyatgacha ularning huquqiy xabardordigi tengdoshlarining yaxshi xulq atvor haqidagi xabardorlikdan unchalik farq qilmaydi;

ikkinchidan, bunday bilimlar tasodifiy va bir tizimga solinadi. Biz tekshiruvdan o'tkazgan huquqbuzarlar jinoyat huquqi normalarini o'zlari sinovdan o'tkazgan darajadagina bilishlari ma'lum bo'ldi. Yosh huquqbuzarlarning 45 foizi jinoiy jazolash, uning haqiqiy harakteri haqida faqat jinoyatlarni sodir qilishganidan keyin bilib olishgan.

Odatda, yosh huquqbuzarlar oilalarida va ular asosan bo'sh vaqtni birga o'tkazadigan do'stlari davrasida noto'g'ri qarashlar eng avjiga chiqqan bo'ladi. Bunda o'smirlar axloqqa zid muhitga duch kelganida va uning qarashlarini qabo'l qilib olganida ular ko'pincha axborotning rasmiy qanallaridan psixologik jihatdan «o'zilib qolgandek» bo'lishadi yoki bunday axborotga nisbatan o'zlashtirib olgan noto'g'ri fikrlari nuqtai nazaridan yondoshadilar. Shuning uchun yoshlar bilan olib boriladigan ish shu bilan birga ularga salbiy ta'sir ko'rsatadigan manbalarni, tegishli salbiy pozitsiyalar mazmuni va dalillarini aniqlash, ishonchli qarshi dalillar va qonunni himoya qiluvchi dalillarni tanlash, o'smirlar uchun noxush ijtimoiy vaziyatni o'zgartirishdan iborat bo'lishi kerak. Huquqiy ta'lim - tarbiyani faqat darslar, suhbatlar, leksiyalar o'tkazish yo'li bilangina amalga oshirib bo'lmaydi. Bu ish tarbiyachilarning o'z tarbiyalanuvchilari hayotiga faol aralashuvini ham taqozo etadi.

Huquqiy ta'lim-tarbiya bu barcha fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta'minlashning asosi hisoblanadi.

Yoshlarga huquqiy ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad har bir yosh huquqiy madaniyatni o'zlashtirib olishiga erishishdan iboratdir. Huquqiy madaniyat shaxs, jamiyat va davlat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatidir. Jamiyatga nisbatan huquqiy madaniyat yuridik qadriyatlar va me'yorlar, huquqiy institutlar, huquqiy ong va xulq-atvor birligining sifat xususiyatini ifodalaydi. Shaxsga nisbatan esa u atrof dunyoni idrok etadigan o'ziga xos —huquqiy qonun bo'lib, u huquqiy mavqelikni o'zlashtirishining mezoni sifatida gavdalanadi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

- qonuniylik prinsipiga rioya etish;
- qonunga itoatkorlik;
- demokratizm, shu jumladan jamoat tashqilotlarining huquq me'yorlarini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishda, huquqning amal qilish mexanizmida keng ishtirok etishi;

- fuqarolarning qonun bilan mustahkamlab qo`yilgan huquqlarining kafolatlanganligi;

- bu huquqlar bilan jamiyat oldidagi majburiyatlarning birligi.

Huquqiy madaniyat unga va umuman madaniyatga qonun hujjatlari ham, mansabdor shaxslar, muassasalar va fuqarolar xulq-atvori, faoliyati ham albatta mos kelishini talab qiladi, o`z navbatida huquqiy madaniyat ko`p jihatdan huquqiy tizimning o`zi bilan, huquqning hamma tarmoqlari va me'yorlari, huquqiy muassasalarning ishlash amaliyoti bilan belgilanadi.

Shaxs huquqiy madaniyatining o`ziga xos jihatlari:

- qonunga itoatkorlik;

- qonuniy va huquqiy institutlarni chuqur hurmat qilish;

- yuksak darajada ijtimoiy-huquqiy faollik;

- huquqni ijtimoiy o`zgarishlari va shaxs manfaatlarini himoya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida baholash. Individlarning va odamlar turli birliklarining huquqiy madaniyati ularning huquq me'yorlariga rioya etishlariga, shuningdek ularning ijtimoiy-huquqiy faolliklari darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko`rsatadi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini o`rganish jamiyatimizning kelajakdagi huquqiy holatining istiqbollari baholashga imkon beradi. Chunki shaxs qaror topib borayotgan davrda uning qadriyatlarga munosabati shakllanadi, huquqqa ijobiy va salbiy munosabat vujudga keladi, faol yoki passiv ijtimoiy-huquqiy xulq-atvoriga qaratilgan yo`l-yo`riqlar vujudga keladi. Nihoyat, huquqiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligi tarbiya obyektining ahvoli to`g`risidagi bilimlarning chuqurligiga va darajalanganligiga muvofiq keladi. Tarbiya objekti, shu o`rinda – yoshlarning ahvolini uning huquqiy madaniyati ko`rsatib beradi.

Odatlar yoshlikda yigit-qizlar o`z mehnat yo`llarini boshlaydilar, shuningdek oila quradilar. Ana shu hol ularning mehnat va oila huquqiga bo`lgan qiziqishida aks etadi. Yoshlar turli guruhlarining yosh xususiyatlari aniq namoyon bo`ladi. Ma'naviy va intellektual yetuklik darajasi oshib borgan sari kriminal adabiyotga, shu tufayli jinoyat huquqiga ham bo`lgan qiziqish kamayadi, buning o`rniga mehnat, fuqarolik va uy-joy huquqiga bo`lgan qiziqish oshib boradi.

Yoshlarning huquqqa bo`lgan qiziqishining darajasini ularning ommaviy axborot vositalari (radio, televedenie, gazeta va jurnallar) tomonidan yoritilayotgan turli yuridik masalalarga qiziqishini o`rganish asosida aniqlash mumkin. Bu huquq haqidagi bilimlarni olish maqsadi va sabablari to`g`risida tasavvurga ega bo`lish imkonini beradi.

Yoshlarning huquqiy axborotni foydalanishdan ko`zlagan asosiy maqsadi o`zlarining huquq va majburiyatlari to`g`risidagi bilimlarini kengaytirishdan iboratdir. Hozirgi vaqtda ijtimoiy ong nazariyasi bo`yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy kamchiliklaridan biri shundaki, ijtimoiy ong ko`pincha subyektga bog`lamasdan o`rganilmoqda. U yoki bu holda aynan kimning, aynan qanday ijtimoiy subyektning ongi tadqiq qilinmoqda degan savolga muttasil e'tibor berilmasligidadir. Bu fikr ijtimoiy huquqiy ongni tadqiq qilishga ham, huquqiy madaniyatga ham batamom taalluqlidir. Fikrimizcha, ma'naviy hayotga bag`ishlangan ko`pgina tadqiqotlarning —subyektsizligil ularning —bo`lishi kerak

narsaga qaratilganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Aftidan, buning aksini aytish ham o'rinli bo'ladi: subyekt muammosiga, uning ma'naviy dunyosiga murojaat qilishning o'ziyoq tadqiqotchining — mavjud narsaga qiziqishini ko'rsatadi, bo'lishi kerak bo'lgan narsa bilan mavjud narsa o'rtasidagi ixtilofni izlashga imkon beradi.

Subyektning ichki to'zilishi ijtimoiy huquqiy ong va madaniyatning eng kam tadqiq qilingan sohalaridan biridir. Yoshlar o'z huquqiy onglari va huquqiy madaniyatlarining subyekt bo'lib, ayni vaqtda jamiyat huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining subyektlaridan biri hamdir. Jamiyat huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining subyekt sifatida ular ana shu huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yaratuvchilaridan va ifodachilaridan biri vazifasini o'taydi.

Individlar va ijtimoiy guruhlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga falsafiy ilmiy adabiyotda asosan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va shakllantirish uchun obyekt deb qaraladi. Biroq mutlaqo ravshanki, ijtimoiy munosabatlarning qatnashchilari hamma vaqt ham huquqiy ta'sir ko'rsatishning passiv obyektlari bo'lavermaydi. Huquqiy boshqarishni huquq me'yorlarining individlar ongiga bir yoqlama ta'sir ko'rsatishi deb hisoblash noto'g'ri bo'lar edi.

Huquqdan amaliyotda foydalanuvchi va uni qo'llovchi odamga faqat huquqiy ta'sir ko'rsatish obyektigina deb qarash mumkin emas. U o'zining ehtiyojlariga (individual, ijtimoiy, professional ehtiyojlariga) qarab huquqiy boshqaruv tizimida amaldagi qonun hujjatlari bilan berib qo'yilgan va ta'minlangan imkoniyatlariniro'yobga chiqarayotgan va ayni vaqtda o'z maqsadlari va manfaatlarini amalga oshirayotgan faol subyekt bo'lib chiqadi.

Keyingi yillarda sotsiologik (ijtimoiy) tadqiqotlarning jonlanishi, jamoatchilik fikrini o'rganishning faollashuvi yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining ahvoli muammosini chetlab o'tmaydi. Yoshlarning huquqiy tasavvurlari bilan bog'liq masalalar keng ko'lamda o'tkazilgan so'rovlarning natijalarida umumiy aksini topdi. Bunda quyidagi prinsiplar kuzatiladi.

Birinchidan, to'g'ri tarbiya olgan yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati to'g'risidagi ma'lumotlarga qaraganda xulqi bo'zuq yoshlarning (huquqbuzarlar, jinoyatchilar, sodir qilgan jinoyatlari uchun sud belgilagan jazoni o'tagan va o'tayotgan shaxslarning) huquqiy ongi va huquqiy madaniyati to'g'risida ma'lumotlar ancha ko'p to'plangan. Shu bilan birga, yaxshi xulqli yoshlarning huquqiy tasavvurlari, bilimlari, baholari ko'pincha ularning anketalardagi javoblari bilan solishtirish uchungina tadqiq qilinadi. Ilmiy qiziqishlari huquqbuzarliklarning oldini olish muammosidan tashqariga chiqadigan huquqiy ong tadqiqotchilarining soni, faolligi va imkoniyatlari ancha kam.

Ikkinchidan, ishlaydigan yoshlarga qaraganda o'quvchi yoshlarning (shu jumladan talabalarning ham) huquqiy ongini sotsiologik tadqiq qilish ancha tez-tez amalga oshirib turiladi.

Uchinchidan, respondent — tadqiqotchilarning asosiy ommasini voyaga etganlar tashqil etadi.

Yuqorida bayon etilganlardan huquqiyongi sotsiologik usullar bilan hammadan kamroq o'rganilayotgan yoshlar guruhlari haqida ham xulosalar

chiqarish mumkin. Xususan, bu guruhlar quyidagilardan iborat: yosh bo'yicha – ulg'aygan yoshlar; mashg'ulot turi bo'yicha – ishlaydigan yoshlar; huquqiy xulq-atvori bo'yicha – to'g'ri xulqli yoshlar.

Yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyati subyektiga xos bo'lgan va shu tariqa boshqa guruhlarining huquqiy ong subyektlariga xos bo'lmagan narsa ana shu omillarga bog'liqdir. Bu omillar quyidagilardan iborat:

huquq me'yorlari bilan tartibga solingan yoki bunday tartibga solishni talab qiladigan, yoshlarni o'z doirasiga tortgan ijtimoiy munosabatlar. Ana shu doira ichida inson hayotida yuridik ahamiyatga ega bo'lgan, aynan yoshlik davrida yuz beradigan quyidagi hodisalarni ko'rsatib o'tish mumkin:

o'quv yurtlarini tamomlash, kasbga ega bo'lish, mehnat faoliyatini boshlash, qurolli kuchlar safida muddatli xizmatni o'tash, nikohdan o'tish, bolali bo'lish va h.k.;

yoshlarga xos bo'lgan umumiy ijtimoiy va ijtimoiy-huquqiy tajribaning hajmi;

yoshlarning ruhiy-jismoniy va ijtimoiy-ruhiy xususiyatlari.

Yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining o'ziga xosligini aks ettiradigan omillarning ta'sirini faqat ularning shakllanishi belgilab beradigan umumiy ijtimoiy omillar bilan bog'lab ko'rib chiqish mumkin. Ular orasida: iqtisodiyot va madaniyatning rivojlanish darajasi, demografik vaziyat, mamlakatdagi umumiy huquqiy vaziyat, tarbiyaviy ishning, xalq ta'limining, huquqni muhofaza qiduvchi organlar faoliyatining ahvoli va boshqalar. Yoshlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining muayyan-tarixiy turi yoshlar yashayotgan va amal qilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy voqelik orqali namoyon bo'lgan.

Ong bilan bilishni bir narsa deb hisoblash mumkinmi, degan nazariy masala yoshlar huquqiy madaniyatining mohiyatini aniqlash uchun uni shakllantirish usullarini belgilash uchun katta amaliy ahamiyatga ega. Bu usullarning samaradorligi, xususan, huquqiy ong kognitiv tarkibiy qismini baholash bilan bu bahoning xulq-atvoriga ta'siri aynan bo'lishiga bog'liqdir. Ravshanki, gap yuridik bilimlarning rolini kamsitish haqida bormasligi kerak, lekin uni ortiqcha baholab yuborish ham huquqiy tarbiya amaliyotiga noaniq yo'l ko'rsatadi.

Qonun hujatlari to'g'risidagi bilimlar muammosi juda puxta yondoshishni talab qiladi. Eng avvalo, so'z yuritiladigan qonunchilik me'yorlarining hajmini tasavvur qilish va bu hajmni odamning jismoniy va ruhiy imkoniyatlari, amaliyot talab-ehtiyojlari, qolaversa, sog'lom aql-idrok talablari bilan taqqoslash haqida boradi.

Qonun hujjatlarini bilish kerak, ularni o'rganish esa mumkin emas degan tushuncha ko'pdan beri ma'lum. Unday bo'lsa, huquqiy tarbiyaning kognitiv tarkibiy qismini ro'yobga chiqarish strategiyasi qanday bo'lmog'i kerak? Aytish mumkinki, bu masala pedagogikaga doir asarlarda hammadan batafsilroq ko'rib chiqilgan. Ishlovchi yoshlarning huquqiy madaniyatiga doir har qanday universal chizmalar to'zilmalari bir qadar sholastik bo'lishi muqarrar. Ayni vaqtda yoshlar orasida yuridik bilimlarni keng yoyishga umumiy yondoshuvlar tadqiqotchilarning jiddiy e'tiboriga loyiq.



Bunday yondoshuvlarning yuridik adabiyotda uchraydigan ta'riflari, qoida tariqasida, yoshlarga mo'ljallangan yuridik axborotni tanlash prinsiplarini aniqlashdan, shuningdek axborotning turli toifadagi yoshlar uchun zarur bo'lgan eng kam hajmlarini aniqlashdan iborat qilib qo'yiladi. Bunday tadqiqot ishi, shubhasiz foydali, lekin uning zaif tomoni ham bor. Bu zaif tomon yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish obyekti sifatida bir tomonlama qarashdan iboratdir.

Yoshlarni huquqiy xabardor qilish masalasining (shuningdek, huquqiy madaniyatni shakllantirishga doir boshqa masalalarning ham) eng maqbo'l echimlarini izlash, fikrimizcha, uning ijtimoiy subyekt eqanligini to'la-to'kis hisobga olishi kerak. Bundan, shu narsa kelib chiqadiki, huquqiy xabardor qilish strategiyasi yoshlarga istalgan hajmda yuridik bilimlarni tiqishtirishdan iborat emas, balki ularga hayotningo'zi talab qiladigan huquqiy bilimlardan bahramand bo'lish imkonini berishdan iboratdir.

Yuridik ilmiy adabiyot va darsliklarda, ko'pgina amaliyotchi xodimlar ongida jinoyatchilikning o'sishi sabablarini huquqiy bilimlarni targ'ib qilishni tashqil etishdagi kamchiliklardan izlash kerak degan siyqa fikr hali ham hukm surmoqda. Ikkinchi tomondan, ana shu tasavvurlarga muvofiq huquqiy tarbiyaning o'zi ham huquqbuzarliklarning oldini olish bilan tenglashtirib qo'yiladi. Ana shu andozalarning ildizlari haqidagi masalani ko'tarar eqanmiz, biz ularni bir necha o'n yilliklar mobaynida markscha-lenincha mafkurada hukm surib kelgan da'vo bilan, ya'ni sotsializmga jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlari va sabablari yo'q degan da'vo bilan bog'laymiz. Lekin nazariya bilan amaliyot ochiqdan-ochiq mos kelmay qoldi: jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlari yo'q, u esa kuchayib boraveradi. Aftidan ana shunda bu kuchayishni tarbiyaviy ishdagi, huquqiy bilimlarni targ'ib qilishdagi kamchiliklar bilan izohlaydigan mafkuraviy qolip vujudga keldi.

Ravshanki, yuqorida bayon etilgan fikrlar huquqiy tarbiya ishining dolzarbligini shubha ostiga olmaydi. Biz huquqiy tarbiyaning huquqiy xulq-atvorga qudratli ta'sir ko'rsatishi haqidagi xomxayollardan voz kyechish zarurligiga, shuningdek, huquqiy tarbiyani jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi bilan yaralashtirib yuborishga barham berish zarurligiga e'tiborni qaratmoqchimiz, holos. Shunga qaramay, huquqiy tarbiyani hozirgi sharoitda yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishning juda muhim omilari jumlasiga kiritish uchun hamma asoslar mavjud.

Yoshlarning huquqiy madaniyati voqelikning turli tomonlari va sohalarini aks ettirish bilan huquqiy munosabatlarni aks ettiradi, huquqiy me'yorlar, g'oyalar, qarashlar esa aks ettirish predmeti bo'ladi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini bunday tushunish uning ayrim tomonlarini ularni vositalovchi aloqalarsiz va butunning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq bo'lmagan holda bosqichma-bosqich yoritib boradi. Bu o'rinda huquqiy madaniyat yoshlarning ijtimoiy-huquqiy faoliyati jarayonida vujudga kelishini, ijtimoiy ong shakli eqanini va huquqning oddiy ongda bevosita aks etishidan farqli o'laroq, ijtimoiy ongni tushunishning dunyoqarash bilan bog'liq unsurlarini ozmi – ko'pmi tartibga solgan holda ifodalashini hisobga olish muhim. Bu unsurlar, huquqning muayyan tarixiy davrdagi ijtimoiy qadr-qimmatinigina emas, shu bilan birga huquqiy tizimning g'oyaviy mohiyatini ham

aks ettiradi. Shuning uchun ham yoshlarning huquqiy madaniyatini tadqiqi qilish va ta'riflash davlat va huquq taraqqiyotining tarixiy qonuniyatlarini ilmiy bilishga tayanmog'i kerak. Shu tufayli huquqiy madaniyat tushunchasining mazmunini tadqiq qilinayotgan predmetning hamma tomonlarini birgalikda olgan holda mavxumlikdan aniqlikka ko'tarilish yo'li bilan ko'rib chiqish imkoniyati tug'iladi.

Yoshlar huquqiy madaniyatining tarkibiy unsurlari huquqiy bilish, tushunish hamda unga rioya etishga odatlanishdan, huquq talablarini hurmat qilish, huquq ko'rsatmalarining to'g'riligiga va adolatliligiga ishonch hamda yuridik sohada faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishdan iboratdir.

Bizning fikrimizcha, masalan, har bir yosh inson egallashi lozim bo'lgan bilimlar deganda uning huquq masalalaridan xabardorligini, yuridik tushunchalar va atamalar bilan tanishligini tushunmoq kerak. Bu bilimlar o'z xulq-atvorini ongli suratda tashqil etishga, o'z xulq-atvorini o'zi yuridik na'zorat qilib turishiga imkoniyat beradi. Bunda eng avvalo davlat huquqi, moliya, fuqarolik, oila, mehnat, jinoyat va boshqa huquq sohalarining asoslarini bilish nazarda tutiladi.

Huquqiy me'yorlarni bilish yosh insonlar o'z huquq va majburiyatlaridan to'g'ri va har tomonlama foydalanishlari hamda muayyan mazmunga ega bo'lgan u yoki bu huquqiy me'yorlar mavjudligidan shunchaki xabardor bo'lish degani emas. U huquqni anglashni, uning mazmunini tushunib yetishni, amaliy faoliyat uchun ahamiyatini belgilashni taqozo etadi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini baholaganda yosh inson huquq ko'rsatmalariga rioya etganligini aniqlash ham muhimdir. Masalan, yoshlar jazodan qo'rqib huquqiy me'yorlarning talablarini bo'zmayotgan bo'lishsa, ularda huquqiy madaniyat mavjud deb aytish o'rinli bo'lmasa kerak. Shuning uchun ham huquqni bilish va tushunishning o'zi yetarli emas, bu kamlik qiladi, deymiz, uni hurmat qilish, o'zining barcha huquqiy talablarga rioya etishga majbur eqanligini e'tirof etish zarur.

Yoshlarning huquqiy madaniyati huquqni hurmat qilish bilan bir qatorda yana qonunga rioya qilish odatini ham taqozo etadi. Bu esa xususan madaniyatga, turmushga singib ketgan, odatga aylanib ketgan narsanigina erishilgan deb hisoblash mumkin degan qoidadan kelib chiqadi. Vazifa – o'zimizda xulq-atvor masalalariga to'g'ri, oqilona munosabatni tarbiyalabgina qolmasdan, yana to'g'ri odatlarni ham tarbiyalashimizdan iborat, ya'ni bu odatlarga ko'ra biz yaxshi o'ylab ko'rganimiz uchun emas aslo, balki boshqacha qila olmaydigan bo'lganimiz, odatlanib qolganimiz uchun to'g'ri yo'l tutaylik. Bu odatlarni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha qiyin ishdir. Yoshlarda muntazam yuvinish, o'z tashqi qiyofasini ko'zatib borish yoki gazeta o'qish zaruriyatini tarbiyalagan kabi huquqqa rioya qilish odatini ham singdirish zarur.

Huquqiy ta'lim- tarbiya bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan holdagi tasvir ko'rsatilishidir. Shuni takidlash kerakki, yaqin utmishda ham huquqiy tarbiyaga u haqiqatda sa'zovor bo'lishi kerak bo'lganidek darajada etibor berilmas edi. Pedagogikaga doir darsliklarda shaxsning akliy kamoloti, mehnati, jismoniy,

ma'naviy estetik tarbiyasi haqida so'z borar eqan, lekin huquqiy tarbiya xususida eslatilmas edi. Tarbiyaviy ishning mustaqil yo'nalishi tarzida huquqiy tarbiya yo'nalishining ajratib qo'yilmasligi o'sib kelayotgan avlodning ayrim qismi huquqiy ongi ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

Shubxasiz, huquqiy, siyosiy va ma'naviy ongning o'zaro bog'liqligini esdan chiqarmaslik kerak, lekin shuni ham nazarda tutish lozimki, ularni bir-biri bilan kushib yuborish mumkin emas. Tarbiyaviy ishning o'ziga xos yo'nalishidagi huquqiy mustaqilligi avvalo uning mazmuni bilan bog'liqdir. Huquqiy tarbiya ongning mustaqil shaklini – huquqiy ongni shakllantiradi, bu esa tarbiyaning o'ziga xos shakllari va usullarini izlab topish va qo'llanish zaruriyatini taqazo etadi.

Tarbiyachilar zarur hajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi va tarbiyalanuvchilar huquqiy ongni shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish uslubiyotini egallashi lozim.

Ma'lumki, huquqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri. Agar ijtimoiy ong umuman ijtimoiy borliqning aksi bo'ladigan bo'lsa, unda huquqiy ong faqat mavjud huquqiy voqea- hodisalarni, shuningdek huquq yordamida tartibga solinishi mumkin bo'lgan hodisalarni aks ettiradi. Huquqiy ong –bu jamiyatda ommaviylashgan huquqiy, shuningdek kishilarning xulq-atvoriga ijtimoiy muassasalar qadriyatlariga huquq haqidagi shunday tasavvurlar nuqtai nazaridan munosabatini ifodalaydigan nazariyalar, g'oyalar qarashlar va tasavvurlar majmuidir.

Huquqiy ongda quydagi besh elementni ajratib ko'rsatish mumkin: huquqni bilish; huquq haqidagi tasavvur; amaldagi huquqqa munosabat; huquqqa qo'yiladigan talablar; huquqiy ko'rsatmalarning ijro etilishiga munosabat. Ularning hammasi bir- biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan va o'zaro aloqadorlikdadir. Shu bilan birga ular o'zaga xos shakllanish xususiyatiga ega va huquqiy ong «faoliyati»da turli rollarni uynaydigan har xil elementlar bo'lib, buni, albatta, huquqiy tarbiya jarayonida hisobga olish zarur.

Huquqni bilish huquqiy me'yorlarni bilishni anglatadi. Huquqni bilish va u haqda tasavvurlar, odatda, kishiga huquqqa zid narsani qonuniy narsadan farqlashida, qandaydir hodisani huquqiy jihatdan to'g'ri baholashida va uning ehtimol bo'lgan huquqiy oqibatlarini tasavvur etishida yordam berib, birgalikda «faoliyat ko'rsatadi». Bunda bilimlar bilan tasavvurlarning o'zaro bir-birini mustahkamlashi yuz berishim mumkin yoki huquqiy amaliyot huquqiy me'rlar talablaridan farq qilgani holda o'smir ongida huquq haqidagi tasavvurlar huquqiy bilimlar bilan raqobatlashuvi va shunda aynan noto'g'ri huquqiy tasavvurlarning g'olib bo'lishi ham istisno qilinmaydi. Shaxsning hayotiy tajribasi huquq haqidagi tasavvurlarning muhim manbai hisoblanadi. Huquqiy tarbiyani huquqiy ta'limdan yoki faqat huquqshunoslikni o'qitishdangina iborat deb bilmaslik kerak.

Shuni unutmaslik kerakki huquqiy tarbiya tarbiyaviy ishlarning hama jihatlarini qamrab olishi, maktablarda birinchi sinfdan boshlabok amalga oshirila boshlashi, o'quv yurtlarida huquq bilan bir qatorda boshqa fanlarni o'qitish jarayonida, sinfdan tashqari ishlarda leksiyalar, huquqshunoslar bilan uchrashuvlar, og'zaki jurnallar, yosh huquqshunoslar klublari maktablari va boshqalarni tashqil etish yo'li bilan o'tkazilishi lozim.

Bunda yoshlarning o'zining huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi yuridik faoliyatining rolini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Huquqiy ta'lim-tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo'naltirilganligining tarkibiy qismi sifatidagi huquqiy qarashlari va dasturlari asoslariga negiz yaratish ayniqsa muhimdir.

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Huquqiy tarbiya berish jarayonida shaxs xususiyatlarini o'ziga xosligi tushuntirib bering?
2. Huquqiy tarbiya berish orqali yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish masalasini izohlab bering?
3. Huquqiy ta'lim-tarbiyaning xususiyatlari va vazifalari nimalardan iborat?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. –Guliston, Universitet. 2020.
2. Topildiyev V.R. Ta'lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari–T., 2016. -144 bet.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. "Istiqlol" - T.: 2013.

### **6-MAVZU:**

## **HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIY TARBIYANING O'RNI**

### **Reja:**

1. Huquqiy madaniyat.
2. Huquqiy madaniyatning tarkibiy to'zilishi.
3. Huquqiy tarbiya – huquqiy madaniyatning tarkibi.

Huquqiy madaniyat - umumiy madaniyatning muhim qismi bo'lib, quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

1. Davlat tomonidan xalq va jamoat birlashmalari nuqtai nazarlarini ham ifodalovchi huquqiy siyosatning ishlab chiqarilishi va amalga oshirilishi. Bu siyosat davrning ruhini huquqda ifodalashi lozim. Masalan, mustaqillik va bozor munosabatlari bilan bog'liq masalalar va vazifalar huquqiy siyosatdagi bosh yo'nalishlardandir;

2. Yuksak darajada rivojlangan yuridik fanlarning mavjudligi huquqiy madaniyatning muhim qismidir;

3. Keng va faol huquqiy ong huquqiy madaniyatning bir qismi bo'lib, u davlat va huquqiy voqeliklar haqidagi g'oyalar, dalillar, xis-tuyg'ular, fikrlar, kayfiyatlar

tizimidir. Huquqiy ongda huquqiy ruhiyat va huquqiy mafkura jiddiy o'rin tutadi;

4. Huquqiy madaniyat - bu insonlarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarni egallab olish darajasidir;

5. Ilgari erishilgan va to'plangan barcha huquqiy tajriba, huquqiy yodgorliklar va ularning ommaga tarqatilishi huquqiy madaniyatga kiradi;

6. Amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlar: Konstitutsiya, qonunlar, kodekslar, farmonlar, qarorlar va boshqa huquqiy manbalar huquqiy madaniyatning asosini tashqil etadi;

7. Huquq ijodkorligi madaniyati, huquq me'yorlarini yaratish masalasi, yuridik texnika darajasi, masalan, deputatlar va apparat xizmatchilarining huquqiy bilimlari, dunyoqarashi, huquqda yondashuvi qanchalik yuqori va xolisona bo'lsa, huquqiy madaniyat ham shunchalik yuksak bo'ladi;

8. Huquqni amalga oshirish ishlarining tashqil etilishi qanchalik yuqori bo'lsa, u huquqiy madaniyatga ham o'z ijodiy ta'sirini ko'rsatadi va aksincha;

9. Huquqiy madaniyatning yana bir qismi - huquqni amalga oshiruvchi davlat idoralari va mansabdor shaxslarning huquq me'yorlari talablari darajasida hamda doirasida o'z huquq, burchlarini bajarishi, ularni anglab olishidir;

10. Mamlakatning davlat va jamiyat hayotidagi qonunchilik darajasi, hammaning qonun va sud oldida tengligi huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir.

Huquqiy madaniyatni muntazam boyitib borish uchun izchil huquqiy tarbiya ishlarini olib borish lozim. Bu yo'nalishda qo'yidagilar o'ta muhim ahamiyat kasb etadi: yuksak malakali sud-adliya kadrlarini tayyorlab borish; barcha o'quv yurtlarida, maktablarda huquq haqidagi bilimlarni o'rgatish-o'rganish, mazkur fanlardan imtihonlar joriy etish, radio, televidenie, vaqtli matbuotda huquqiy bilimlarni keng targ'ib va tashviq qilish; aholining, mustakil ravishda, huquqiy bilimlarni o'rganish maqsadida qonun hujjatlarini muntazam chop etib borish; sud, prokuratura, militsiya organlarining ish tajribasini ommalashtirib borish; adliya va huquqshunoslik fanlarini rivojlantirish, oshkoralikni ta'minlash; boshqa davlatlarning huquqiy tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish; badiiy adabiyotda, san'atda huquqiy bilimlarni tarqatish; huquqiy xulqni rag'batlantirish. Xullas, huquqiy madaniyat inson madaniyatining muhim qismi, uning bilan o'zaro bog'liqir.

Huquqiy madaniyat tarixan asta-sekin shakllangan ijtimoiy voqea bo'lib, hozirgi davrda ilg'or huquqiy davlatlarning va ularning fuqarolarining zaruriy xislati va taraqqiyot omiliga aylandi. Ilg'or mamlakatlar bu borada sezilarli yutuqlarga erishdilar va ularning har bir fuqarosi har bir masalada qonunlarga suyanib ish olib boradi, o'z haq va huquqlari davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan bo'zilgan taqdirda, ularning darajasi va mavqsidan qat'i nazar, sud orqali adolatli echimga erishadi.

Mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish uchun shartsharoitlar yaratish va huquqiy davlat asoslarini shakllantirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ushbu "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish" Milliy dastur qabo'l qilingan.

Milliy dasturning maqsadi aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir.

Ko'rsatilgan maqsadga erishishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

-huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish;

-barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning qonunga hamda huquqqa hurmat bilan munosabatda bo'lishiga erishish;

-aholining huquqiy savodxonligini oshirish;

-fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini ta'minlash.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish sohasidagi davlat siyosati quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

-inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi;

-Konstitutsiya va qonunning ustunligi;

-demokratiyaga asoslanganlik;

-ijtimoiy adolat;

-ilmiylik;

-uzluksizlik;

-huquqiy tarbiyadagi vorislik hamda umumiylik;

-huquqiy axborotning hamma uchun ochiqligi;

-huquqiy tarbiya va huquqiy maorifning birligi hamda ularga tabaqalashtirilgan yondashuv.

Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-fuqaro, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati hamda ijtimoiy faolligi yuksalishini ta'minlash;

-aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

-aholini huquqiy axborot bilan ta'minlash, ilmiyommabop yuridik adabiyotlar nashr qilinishi va tarqatilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

-huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya vositalari va usullarini takomillashtirish;

-yuridik ta'lim, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning zamonaviy tizimini rivojlantirish;

-huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag'batlantirish, ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlarni tashqil etish;

-milliy an'analar hamda jahon tajribasidan foydalanish asosida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish.

Aholining huquqiy madaniyatini shakllantirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, bir tomondan, jamiyatning har bir a'zosi huquqiy bilimlarning muayyan darajasini o'zlashtirib olishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yaratishni, ikkinchi tomondan - turli ijtimoiy guruhlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy maorifni tabaqalashtirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston demokratik huquqiy davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil borib, jahon hamjamiyatida mustahkam o'rin egallamoqda. Barqarorlik va tartib, millatlararo totuvlik va fuqarolar ahilligi tufayli yosh davlatimiz ishonch va hurmatga sazovor bo'lmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma'naviy o'zgartirish sohasida keng ko'lamli islohotlar o'tkazilmoqda. O'tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamini yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari-izchillik bilan mustahkamlanmoqda va takomillashtirilmoqda.

Vatanimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog'liqdir. Shaxsning siyosiy faolligi, uning chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga tezroq erishishning muhim omilidir.

Yuksak huquqiy madaniyat-demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim etuklikning ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Huquqiy madaniyat-umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi. Insonlar ongida shunday ishonch qaror topishi kerakki, huquqiy bilimlarga ega bo'lgan va ularni amaliyotda tatbiq eta oladigan kishigina madaniyatli va bilimli deb hisoblanishi mumkin.(100)

Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida to'rgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish va huquqiy davlat asoslarini shakllantirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ushbu Milliy dastur qabo'l qilinmoqda.

Huquqiy madaniyatning mohiyati, mazmuni, tarkibiy to'zilishi va namoyon bo'lishining falsafiy, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va yuridik muammolarini tadqiq etish, uni shakllantirish va yanada yuksaltirish usullarini aniqlashga ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishi deb qaralmog'i lozim.

Huquqiy madaniyat muammolarini tadqiq etishning sotsiologik negizini rivojlantirish, umuman jamiyatdagi huquqiy madaniyat va aholining turli qatlamlari huquqiy madaniyati holatining haqiqiy manzarasini aniqlash uchun so'rovlar o'tkazish va huquq, uning ijtimoiy qadri hamda tartibga soluvchanlik vazifasi to'g'risida jamoatchilik fikrini aniqlashning boshqa usullarini qo'llanish zarur.

Huquqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik muammolarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim. Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim

vazirliklari manfaatdor tashqilotlarning ishtirokida yoshlarni huquqiy tarbiyalashning ilmiy asoslangan uslubiyotini ishlab chiqishlari kerak.

O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, xorijiy davlatlardagi huquqiy madaniyatni oshirishga doir ilmiy tadqiqotlarning natijalarini nashr etish va ulardan foydalanishni kengaytirish, bu sohada ilmiy axborot ayirboshlashni yo'lga qo'yish muhimdir.

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Huquqiy madaniyat nima?
2. Huquqiy madaniyatning tarkibiy tuzilishi tushuntirib bering?
3. Huquqiy tarbiya – huquqiy madaniyatning tarkibi sifatida.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. –Guliston, Universitet. 2020.
2. Topildiyev V.R. Ta'lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari–T., 2016. -144 bet.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. "Istiqlol" - T.: 2013.

### **7-MAVZU:**

## **HUQUQIY ONGNI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIY TARBIYANING O'RNI**

### **Reja:**

1. Huquqiy ong va uning to'zish.
2. Huquqiy ongni rivojlantirishda huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiyaning roli.

Huquqiy ong bu jamiyatda kishilarning huquq to'-risidagi qarashlaridir, chunki huquqiy normalar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida kishilar o'rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Huquq normalari bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy ong ya'ni kishilarning huquqni bilishligi, huquq normalarini bajarishligin katta ahamiyatga egadir. Huquqiy ong jamiyatda ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan – falsafa, siyosat, din, axloqdan farq qiladi. U jamiyatda ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib hisoblanadi, chunki huquqiy ong keng tushuncha bo'lib, jamiyatda huquqiy normalarni qabo'l qilish, ularni turmushda qo'llash, huquq to'g'risida bilimlarning, ya'ni huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya to'-risidagi murakkab ijtimoiy vazifalarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy ong huquq bilan uzviy ravishda bo-liq. Huquqiy ong va huquqning munosabatlari uning quyidagi xususiyatlarida namoyon bo'ladi:



- jamiyatda huquqiy ong qonun va boshqa huquq normalarni qabo'l qilishda turli –oyalarni rivojlantirishda, ularni qabo'l qilishda muhim rol o'ynaydi.
- Jamiyatda huquqiy ong barcha fuqarolarning, davlat organlarini, ayniqsa huquqni muhofazo'a qiluvchi idoralar, sud , prokuratura, ichki ishlar idoralari, milliy xavfsizlik xizmati, adliya organlari va mansabdor shaxslarni huquqni hayotda to'-ri qo'llash uchun ular bilan turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.
- Jamiyatda huquqiy ong amadlagi davlatning harakatda bo'lgan huquqning huquqiy me'yorlarini tartibga solishda, kodifikatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi.
- Jamiyatda huquqiy ong boshqa ijtimoiy ong shakllaridan huquq, majburiyat, burch, huquqbuzarlik va unga qo'llaniladigan jazo choralari bilan farq qiladi.

Huquqiy ong davlatning huquqiy normalarni qabo'l qilish, huquqiy tashabbuskorlik faoliyatini amalga oshirishda, huquqiy normalarni turmushda qo'llashda ular bilan kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyatga ega. Chunki davlat miyyosidagi har qanday qonun va boshqa huquqiy normalar qabo'l qilishdan oldin huquqshunos mutaxassislar tomonidan o'rganilib chiqiladi. SHuning uchun huquqshunoslar siyosat va amaliyotni yaxshi bilsa, qabo'l qilinadigan huquq me'yorlari shunchalik mustahkam bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng fuqarolarning huquqiy ongliligi natijasida, huquqshunos olimlarning faol ishtirokida bozor iqtisodiyotining huquqiy asosini yaratuvchi ko'pgina qonunlar, Kodekslar qabo'l qilindi.

Huquqiy ong huquq to'-risidagi kishilarning qarashlarini o'rgatar eqan, u o'zining to'zilishiga egadir, ya'ni huquqiy mafkura va huquqiy psixologiyadan iborat.

Huquqiy mafkura deganda, jamiyatdagi turli sinflarning, tabaqa millat va elatlarning huquq to'-risidagi qarashlari tushuniladi. Jamiyatda qabo'l qilinadigan davlatning asosiy qonuni Konstitutsiya va boshqa qonunlar, huquqiy normalar jamiyatdagi millatlar va elatlar manfaati nuqtai nazaridan qabo'l qilinadi. Huquqiy mafkura har bir davlatda huquqdan tashqari, huquqshunoslik fanlarini ham o'z ichiga oladi.

Huquqiy psixologiya deb jamiyatdagi har bir kishining huquq to'-risidagi qarashlari, bilimlari tushuniladi. Uning paydo bo'lishi va rivojlanishida jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruhlar va kishilar qatnashadi. SHuning uchun huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya bir biri bilan bo-liqdir.

Jamiyatda huquqiy ongni rivojlantirishda, huquqiy normalarni qabo'l qilishda huquqiy mafkura asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki huquqiy mafkurajamiyatdagi huquqiy ustqarmaning mavjudligini, talabga javob berishini, huquqiy normalarning kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib mustahkamlashga va rivojlantirishga katta yordam beradi.

Huquqiy psixologiya huquqiy mafkurani ta'minlab turuvchi ozuqadir. Chunki u huquq to'risida alohida shaxslarni va jamoatchilikning huquqiy ongidan tashqil topgan.

Huquqiy madaniyat kishilarning huquq to'risidagi bilimga, qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy me'yorlarni bajarishi, ularga amal qilmaganda huquqbuzarliklar sodir qilinsa, tegishli jazo choralari olishiga aytiladi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishni talab qiladi. SHuning uchun huquqiy davlatning muhim belgisi- bu huquqiy madaniyatdir. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi turli demokratik islohotlarni o'tkazishlarni talab qiladi. Bu esa fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishni talab qiladi. Huquqiy madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir qismi hisoblanadi. Unda kishilar qanchalik madaniyatli bo'lsa, qanchalik huquq normalari va qonunlarni bilsa, yuridik adabiyotlarni bilib ularga amal qilsa, shunchalik huquq bo'zilishi kam bo'ladi. SHuning uchun respublikamizda kishilarning huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, Oliy Majlisning IX sessiyasi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish to'risida dastur qabo'l qildi. Bu dasturda mamlakat miqyosda aholining huquqiy madaniyatini rivojlantirish va, huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy tarbiyani yaxshilash, yuridik adabiyotlarni ko'paytirish, xalqning yuridik sohada bilimlarini oshirishga katta e'tibor berib, kishilarni huquqiy ongini rivojlantirish masalasi qo'yildi. Bu borada O'zbekiston respublikasining hozirgi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida huquqiy demokratik davlat qurishda, qonunchilikni mustahkamlashda va turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazish uchun aholini huquqiy jihatdan tarbiyalash va huquqiy madaniyatini rivojlantirish muhim rol o'ynadi. SHuning uchun hukumat tomonidan huquqiy tarbiyani yaxshilash, huquqshunos kadrlarni tarbiyalash va jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida maxsus farmonlar qabo'l qilindi. Bu farmonlarda Respublika miqyosida aholini huquqiy tarbiyalash va huquqiy madaniyatni oshirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri deb belgilandi. SHu Faromnga asosan respublika miqyosida huquqiy tar-ibotni amalga oshirish uchun ToshDYUI huzurida huquqiy ma'rifat markazi to'zildi. Bu markazning bo'limlari viloyatlar adliya boshqarmalari huzurida to'zildi. Markazning vazifalari isfatida mamlakatda huquqiy ta'lim, tarbiya va huquqiy madaniyatga e'tibor berib, aholining huquqiy ongini rivojlantirish masalalari qo'yildi.

Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq. Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlarning mohiyatini anglash, ushbu jarayonda ishtirok etish fuqarolarning huquqiy madaniyati yuqori bo'lishini taqozo etmoqda.

Jamiyatning har bir a'zosi o'z huquq va burchlarini hamda mas'uliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamog'i lozim. Fuqarolarimizning dunyoqarashi, tafakkuri mamlakat hayotiga, yangilanishlarga mos ravishda o'zgarib borishi huquqiy madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi. Ayon bo'lmoqdaki, odamlarimizning huquqiy madaniyati davlat va jamiyat taraqqiyotining bugungi talablariga to'la javob beradi, deb bo'lmaydi.

Prezidentimiz tomonidan joriy yilda qabo'l qilingan "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmon mazkur yo'nalishda oldimizda to'rgan muhim vazifalarni belgilab bergan muhim hujjat bo'ldi.

Farmonda mazkur yo'nalishdagi mavjud kamchiliklar birma-bir ko'rsatib berilgani uning ahamiyatli jihati sanaladi. Hujjatda qayd etilganidek, bugungi kunda aholida qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks yondashilayapti, deb ayta olmaymiz. Shaxsiy manfaatlar va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlari etarli emasligi — qonun ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sir etmoqda. So'nggi vaqtlarda respublikamizning turli hududlarida ba'zan mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari kamsitilishiga oid holatlar haqida global axborot tarmog'ida maqolalar berilayotganligi kuzatiladi. Bu salbiy holatlarning asl sababi fuqarolarda huquqiy bilim etishmasligiga borib taqaladi.

Bundan tashqari, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda yoshlar qatlami bilan olib borilayotgan huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar ham tizimli va uzviy olib borilmayapti. Bu masala uzoq yillar davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki etarlicha ta'minlanmagan. Ochig'ini aytganda, targ'ibot tadbirlarida ko'pincha samarasiz seminar, davra suhbatlari va shu kabi uchrashuvlarni tashqil etish bilan cheklanib qolinmoqda, targ'ibot jarayonida innovatsion usullardan etarlicha foydalanilmayotgani ayon bo'lmoqda. Bu esa jamiyatimiz taraqqiyotiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ya'ni qonunlarning ijrosi bir xilda ta'minlanmayapti, islohotlar bo'yicha qabo'l qilingan hujjatlar ham o'zining etarli samarasini bermayapti.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmayapti. Shulardan kelib chiqib, farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari belgilab berildi. Ta'kidlash lozimki, huquqiy madaniyat kishilarning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarni ijro etishi, hayotga tatbiq eta olish ko'nikmasi, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik, qonunlarga itoatkorlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorligini anglatadi. Jamiyat a'zolarining yuksak huquqiy ongi va huquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlaydi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat saviyasi qabo'l qilingan qonunlar soni

bilan emas, balki ushbu qonunlarning to'liq ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ hujjatlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Ayni shu mezonlardan kelib chiqib, farmonda fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabo'l qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini izchil etkazish tizimini shakllantirish birlamchi vazifalardan ekanligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, bu borada ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish nazarda tutilmoqda. Bunda, ayniqsa, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlari ularga bolaligidan boshlab o'rgatish bo'yicha o'ziga xos tizim yaratiladi. Haqiqatdan ham, yosh avlod ongida nima yaxshi, nima yomon, nima mumkinu nima mumkin emasligini, huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini odob-axloq normalari asosida tushuntirib borish hamda Bosh qomusimizdagi eng muhim tamoyillarni sodda tilda bolaligidan o'rgatib borish kelajakda o'z samarasini beradi.

Fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining roli juda muhim. Shu bois milliy media makonda huquqiy mavzulardagi ruknlarga e'tiborni yanada kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan muammolarni davriy nashrlar sahifalarida, televidenie va radio eshittirishlarida tushuntirib borish zarur. Farmon bilan ushbu yo'nalishda ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirishga doir vazifalarning belgilanishi ayni muddaodir. E'tibor qaratadigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarda milliy qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiy adolatni kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish tamoyillari asosiy o'ringa qo'yilgan. Bunga misol sifatida Amerika Qo'shma Shtatlarida xalqni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch sifatida "Amerika orzusi" g'oyasi asosiy o'rinda tursa, "Olg'a, Singapur!" shiori Singapur mo'jizasi islohotlari orqali hayotga tatbiq etilgan. Frantsiyada barcha narsa inson va uning manfaatlari uchun, erkinlik, tenglik va birodarlik g'oyalari asosida davlat insonlarga cheksiz huquq va erkinliklarni yaratib bergan va ularni mamlakat manfaatlari yo'lida birlashtirgan. Xitoyda esa ma'naviy tarbiya tizimi ona vatanga xizmat qilish va sodiq bo'lish g'oyasi asosida tashqil etilgan. Shuningdek, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Eron, Germaniya, Turkiya davlatlarida ilgari surilgan o'ziga xos g'oyaviy yo'nalishlar ularning taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lib kelmoqda.

Shundan kelib chiqib, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion

usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. "Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan kontseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashqil qilish davlat organlari va tashqilolarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish "shaxs — oila — mahalla — ta'lim muassasasi — tashqilot — jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashqil etiladi. Darhaqiqat, huquq asoslarini, Konstitutsiya va qonunlar mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me'yorlarni kishilarning, birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o'z ahamiyatiga ko'ra huquqiy ta'lim-tarbiyaga tenglasha olmayd. Jumladan, biz jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilash, qabo'l qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga etkazish, aholini qabo'l qilinayotgan qonunlarning maqsadi, mazmun-mohiyatidan keng xabardor etib borishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Zero, faqat erkin, o'z huquq va majburiyatlarini biladigan, qonun va amaldagi tartib-qoidalarni hurmat qiladigan fuqaro o'z huquqlaridan to'laligicha foydalana oladi. O'zbekiston "Adolat" SDP tomonidan fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, yoshlarning huquq sohasiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni huquqiy savodxonlik jihatdan etuk, barkamol avlod qilib tarbiyalash maqsadida o'tkazib kelinayotgan "Konstitutsiya bilimdoni" ko'rik-tanlovi, har haftaning seshanba kuni mahallalarda o'tkazilayotgan siyosiy o'quvlar hamda boshqa huquqiy targ'ibot tadbirlari mazkur farmon ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu o'rinda bir mulohazani aytib o'tish joiz. Bugungi kunda qonunlarimizni oddiy xalq tushunadigan darajada sodda tilda ishlab chiqish masalasi ham dolzarb bo'lib turibdi. Qonun loyihalarini o'zbek tilida tayyorlab, keyinchalik rus tiliga o'girish maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda esa bir qator qonun loyihalari rus tilida tayyorlanib, so'ngra o'zbek tiliga o'girilishi oqibatida undagi ayrim jumlar g'aliz va tushunarsiz bo'lib qolmoqda. Qolaversa, qonun hujjatlarini aholiga etkazadigan veb-saytlar nomi ham o'zbek tilida, qisqa jumlada ifodalansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan, hozir amaldagi O'zbekiston Respublikasi normativ huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali — [www.regulation.gov.uz](http://www.regulation.gov.uz) nomi balki mutaxassislar uchun, ziyolilar uchun tushunarlidir, ammo oddiy fuqarolar uchun esda qolarli, deyish qiyin. O'zbekiston aholisining asosiy qismi o'zbek tilida so'zlashishini inobatga olgan holda bu kabi ommaviy interaktiv portallar o'zbekcha nomlansa, ular barchaga tushunarli bo'ladi, degan fikrdamiz. Shu jumladan, Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish kontseptsiyasini 2019 yilda samarali amalga oshirish bo'yicha "yo'l haritasi"ga binoan ishlab chiqilishi belgilangan aholiga bepul maslahat berish portalini o'z ichiga olgan huquqiy axborot tizimi nomini (Advice.uz) ham o'zbek tilida nomlash ayni muddao bo'lar edi. Bu

borada Mening fikrim — Jamoaviy murojaatlar portali (www.meningfikrim.uz) nomi aholining keng qatlami, ayniqsa, yoshlar orasida keng ommalashgani misol bo'la oladi. Shunday ekan, o'zbek tilidagi veb-saytlar nomining inglizcha bo'lishiga aslo hojat yo'q. Boshqacha aytganda, ushbu saytlarda huquqiy mavzuda berilgan axborot, tushuntirishlarni ko'pchilikning o'qishi ma'lum darajada ana shu omil bilan ham bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, farmonda belgilab berilgan jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi muhim yo'nalish va vazifalarni o'z vaqtida amalga oshirish biz, partiya xodimlaridan mas'uliyat va fidoyilikni talab etadi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir".

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

1. Huquqiy ong va uning to'z qilishi haqida ma'lumot bering?
2. Huquqiy ongni rivojlantirishda huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiyaning roli haqida o'z fikringizni bildiring?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. —Guliston, Universitet. 2020.
2. Topildiyev V.R. Ta'lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari—T., 2016. -144 bet.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. "Istiqlol" -T.: 2013.

### **8-MAVZU:**

## **HUQUQIY TARBIYADA OMMAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISH**

### **Reja:**

1. Tarbiya va huquqiy tarbiya tushunchalari.
2. Huquqiy tarbiya omillari.
3. Huquqiy tarbiya vositalari.

Huquqiy tarbiya va ta'limni kuchaytirishning asosiy choralari quyidagilardan iborat:

-davlat huquqiy tarbiya va ta'limning asosiy tashqilotchisi sifatida ta'lim va tarbiyaning usullari va vositalarini, bu faoliyat bilan bevosita shug'ullanayotgan muassasalar to'z qilmasini muntazam ravishda ta(106) komillashtirib boradi, huquqiy tarbiya va huquqiy ta'limning muqobil tizimlarini shakllantirishga yordam beradi;

-aholi huquqiy madaniyatini oshirish borasida davlat to'z qilmalari va jamoat birlashmalarining keng hamkorligini ta'minlash; ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish, kechiktirib bo'lmaydigan va istiqboldagi vazifalarni aniqlash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va yuristlar jamoat birlashmalari faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan bo'lib qolishiga erishish;

-huquqiy tarbiya va ta'limning ta'lim-tarbiya muassasalari tomonidagina emas, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat organlarining va korxonalarining (muassasalar, tashqilotlarning), shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmatlari xodimlari ishtirokida ham amalga oshirilishi;

-huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning ularni maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumta'lim maktablarida olib borilishini nazarda tutuvchi normativ va o'quv-uslubiy mezonlarni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda yangi o'quv fanlarini joriy qilish;

-huquqiy fanlar asoslarini chuqur o'rgatadigan o'quv yurtlari va ularda tayyorlanadigan yuridik kadrlarning sonini iqtisodiy, ijtimoiy, demografik vaziyat va jamiyatning tegishli mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini belgilovchi boshqa omillar e'tiborga olingan holda aniqlash;

-darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa adabiyotlar tayyorlash va nashr etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;

-ta'lim tarbiya muassasalariga daxldor bo'lmagan shaxslarning (ishchilar, xizmatchilar, uy bekalari, pensionerlar, harbiy xizmatchilar va boshqalarning) huquqiy tarbiyasi va huquqiy ta'limi tizimini takomillashtirish. Bu ishga davlat yuridik o'quv yurtlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, huquqshunos olimlar va boshqalarni jalb qilish;

-yuridik o'quv yurtlarining moddiy-texnika negizini mustahkamlash.

Huquqiy ta'lim tizimi, uning mazmuni, maqsad va vazifalari, tamoyillari huquqiy ta'lim nazariyasini tashqil etib, huquqiy ongni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, huquqiy ta'lim nazariyasini quyidagi tushunchalarning mazmuni va ta'riflariga aniqlik kiritish bilan boyitish muhim nazariy va hayotiy-amaliy ahamiyatga ega:

- **huquqiy ta'lim** - hayotiy-amaliy faoliyatda qo'llash uchun va egallanishi zarur bo'lgan huquqiy ma'lumot va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, tizimli, rejali va muayyan maqsadga yo'naltirilgan nazariy va amaliy faoliyat jarayoni;

- **huquqiy tarbiya** — huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan, turli shakllarda amalga oshiriladigan amaliy harakatlar va faoliyat tizimi;

- **huquqiy ta'lim tizimi** — egallanishi zarur bo'lgan huquqiy ma'lumot va ko'nikmalarni tadrijiy shakllantirishga xizmat qiladigan va o'zaro uzviy bog'langan huquqiy ta'lim bosqichlarini o'z ichiga olgan tizim;

- **huquqiy tarbiya tizimi** — huquqiy tarbiya jarayoni qismlarining yig'indisi bo'lib, uning muayyan tartibi va uyushtirilishini ta'minlaydigan tizim;

- **huquqiy ta'lim jarayoni** — zarur huquqiy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish bilan bog'lik faoliyat majmui;

- **huquqiy ta'lim mazmuni** - zaruriy huquqiy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni bilan bog'lik, elementlar yig'indisi;

- **huquqiy o'qitish** — reja asosida alohida mavzularga doyr huquqiy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan uslub, vosita, texnologiyalar tizimi;

- **huquqiy bilim** — huquqiy sohaga oid ma'lumot va axborotlar majmui;

- **huquqiy kunikma** — egallangan huquqiy bilimlarni amalda qo'llash bilan bog'liq mahorat;

- **huquqiy malaka** - huquqiy bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba;

- **huquqiy faollik** - egallangan huquqiy bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llashga intilish bilan bog'lik faoliyat;

- **huquqiy savodxonlik** - zarur huquqiy bilimlar, ko'nikma va malaqaning egallanganlik darajasi;

- **huquqiy tushuncha** — huquqiy bilish ob'ektlariga xos muhim belgilarni umumlashtirib, birlashtirib aks ettiruvchi umumiy tasavvur;

- **huquqiy tasavvur** - zarur huquqiy bilimlar va ko'nikmalarning yaxlit idrok qilinishi;

- **huquqiy idrok** — huquqiy bilimlarni tushunish va fahmlash qobiliyati;

- **huquqiy e'tiqod** - huquqiy bilimlar va ko'nikmalar asosida orttirilgan ishonch.

Huquqiy tarbiya targ'ibot va tashviqotning alohida o'rni bor. Bunda voiz-ma'ruzachi muhim omil vazifasini o'taydi.

**Voiz haqida.** Voiz (arab.) - jamoat oldida nutq so'zlovchi, voizlik bilan shug'ullanuvchi kishi, professional notiq. Voizlar chuqur bilim, yuksak madaniyat va maxsus ijrochilik salohiyati (chiroyli va ta'sirchan ovozi, aniq va ravshan talaffuz, o'z zamonasi uchun etakchi tillarni mukammal bilish va boshqa) ga ega bo'lgan. Musulmon sharqining yirik olimlari, din arbobi, adib va boshqalar ko'pincha etuk voizlar ham bo'lganlar.

XV-XVI asrlarda yashagan Qozi O'shiy "Dunyoda yumshamaydigan ko'ngil, ochilmaydigan qulf bo'lmaydi; men ularning ko'ngil qulfini suxandonlik kaliti bilan ochib, yumshataman", deb yozgan eqan.

Voizdan nimalar talab qilinadi? Avvalo **tajriba, bilimdonlik, ishontira olish qobilyati, uning nutqi, o'ziga ishonchi** va boshqalar. Oddiy misol, agar biz tinglovchilarni biror narsaga ishontirishga qaror qilsak, gapni shunday boshlashimiz kerakki, toki dastlabki fikrlarimizdanoq, o'zimizga ergashtira olishimiz, ko'ndira olishimiz lozim. Voizlik faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, u ko'pincha, auditoriyani o'rganib ulgurmay, aniq, tushunarli va ravon tilda, odamlar qiziqishlariga yaqin fikrlar bilan o'ziga ergashtira olishi kerak bo'ladi. Bizning ko'psonli mafkurachilarimiz armiyasi aynan shu maqsadlarni amalga oshiruvchilardir, Bular - maktab yoki maktabgacha tarbiya muassasalarining o'qituvchilari va tarbiyachilaridan tortib, oliy o'quv yurtlari, akademiyalarning professor-o'qituvchilari, olimlar, murabbiylar hamda turli bo'g'inlarda xodimlar faoliyatlarini muvofiqlashtirib to'rgan rahbarlardir. Bular qatoriga turli nodavlat tashqilotlarning faollari, jamg'armalar hamda diniy idoralarning mutasaddilari ham kiradi. Ularning barcha sa'y-harakatlari jamiyatimiz fuqarolari ongida faqat shu yurt ravnaqi, tinchligi, osoyishtaligi, hamjihatlik, xalq farovonligi uchun xizmat qiluvchi sog'lom g'oyalarni targ'ibot va tashviqot qilishdir.

Mafkurachilarning asosiy vazifasi o'zlaridagi mavjud bilim, tushuncha, g'oyalarni asos qilib olib, birinchi navbatda yoshlarda, qolaversa, keng xalq



ommasida e'tiqodni shakllantirish, ta'sir ko'rsatish va taqlid etishga chorlashdir. Bunda - monolog, dialog, bahs-munozara kabi vositalardan foydalaniladi. Aynan ana shu faoliyat har bir ta'sir ko'rsatuvchining ritorika asoslaridan xabardor bo'lishini, nutq mahoratini egallashini talab qiladi. Agar notiq o'ziga berilgan minbarda faqat so'z va iboralar tizimidan foydalanish bilan cheklansa, yoki qog'ozga tushirilgan matndan chetga chiqolmasa uni auditoriya tinglamaydi, unga ishonmaydi. Shuning uchun hissiy-ekspressiv ta'sir usullari - yuz va ko'z qarashlar, imo-ishoralardan o'rinli foydalanish ta'sirni kuchaytiruvchi psixologik mexanizmlar ekanligini unutmash kerak.

Auditoriyaga tik qaray olish - samarali va oddiy metod. Amerikaliklar o'tkazgan tekshiruvlarda hattoki, videotasmada guvohlik berayotgan shaxs agar tik qarab guvohlik bersa, erga qarab guvohlik berganga nisbatan 100 foiz ortiq unga ishonch paydo bo'larqan. Voizdan talab qilinadigan yana bir muhim xislat - bu uning yoqimtoyligi va nimasi bilandir o'sha auditoriyaga yoqishidir. Agar bu ziyoli, olimlar auditoriyasi bo'lsa, mantiqan va ilmiy tahlillarga asoslangai fikr-mulohazalar katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Prezidentimiz siyosatidagi izchillik, O'zbekistonning buyuk kelajagiga shaxsan yurtboshimizning ishonchi - yaxlit xalq e'tiqodining shakllanishiga muhim zamin bo'lmoqda.

**Nutq mazmuni.** Targ'ibotda kimning gapirayotganligi emas, balki uning ham gap ko'p. Tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, odamlarga mantiqan asosli, hissiyotlar uyg'otuvchi ma'lumotlar tezroq ta'sir qiladi. Bunda auditoriyaning xususiyati nazarda tutilishi kerak. Masalan, o'qimishli, tushungan odamlar auditoriyasi faktlarga tayangan, asosli ma'lumotni tezroq qabo'l qilib, ishonsa, kichik yoshlilar, ma'lumot darajasi pastroq shaxslar ko'proq yurakka yaqin, emotsional ma'lumotga o'ch bo'ladi. Bundaylar o'zlaridagi ayrim negativ his-tuyg'ularni qo'zg'atuvchi ma'lumotlarga nisbatan faolroq bo'lishadi. Axborotlar mazmuni har doim psixologik-pedagogik ekspertizadan o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Chunki ba'zan axborot tinglovchi yoki tarbiyalanuvchining yosh xususiyatlarini hisobga olmay aytib yuborilishi mumkin.

Kattaroq yoshli bolalar bilan milliy g'oyalarimiz va vatanparvarlik xususida olib boriladigan suhbatlarda tarbiyachi yoki murabbiy tomonidan tayyor savollar tartibining ishlab chiqilishi, ishlatiladigan tayanch iboralarning asoslanganligi kabi jihatlar katga ahamiyat kasb etadi.

**Nutq.** Nutq arabcha so'z bo'lib, fikrni so'z orqali ifodalash qobiliyati, mahorati demakdir. Ma'ruza arabcha so'z bo'lib, biron bir mavzuga tayyorgarlik ko'rgan holda nutq qilmoq.

Aniq maqsadga qaratilgan har bir ish kabn nutq ham rejalashtiriladi. Odatda nutqni uch qismga bo'linadi.

1. Qirish.
2. Asosiy qism.
3. Xulosa.

**Kirishda** nutqni boshlashdan oldin: "Nutqni nimadan boshlashim kerak?", "Tinglovchilar bilan aloqani qanday o'rnatishim lozim?", "Menn tinglaydigan

kishilarning qiziqishi, diqqatini nima kuchaytira oladi?” kabi savollarga javob tanlanadi.

Nutqning boshidagi soʻzlar - oʻta muhim. Bu soʻzlaru rubobning ikki torini bir-biriga sozlovchi murvatlarga oʻxshaydi. Boshlanma soʻzlar quruq, dabdabali, kitobiy yoʻq bachqana boʻlsa, jamoada tinglashga mayl yoʻqoladi. Unda jamoa - notiqqa, notiq - jamoaga qoʻshilib keta olmaydi. Goʻyoki rubobning bir tori sozlanmagandek boʻladi. Xullas, notiq daʼvatining - kuchi tinglovchilar diqqati kuchiga teng boʻlmasa, nosoz rubobda chalingay quydan bahra olish qiyin boʻlgani kabi tinglovchi ham nutqdan kutilgan natijaga erishmaydi.

Mahoratli notiqlar kirishda koʻpincha:

- a) eʼtiborga molik biror faktdan;
- b) biror voqea, hodisa, joy haqida maʼlumotdan;
- v) yumor, hazildan;
- g) yangi, qiziq maʼlumotdan;
- d) mavzu haqida kirish soʻzidan (toʻgʻridan-toʻgʻri);
- e) pauzadan unumli foydalanadilar.

**Asosiy qism** - nutqning eng muhim, eng katta qismi hisoblanadi. Zanjir kabi davom etuvchi bu qismda bayon etilgan fikrlar, keltirilgan faktlar, ularning mantiqiy tahlili tadrijiy ravishda rivojlantirib boriladi. Inson tafakkuri qonuniyatlari qiziq. Olimlarning fikriga koʻra, inson asab tizimi shunday bir mantiqiy mashinakn, unda har bir qaror, xulosa oʻzidan oldingi xulosalarga tayanadi.

Bunda notiq turli usul va uslublardan foydalanishi mumkin. Nutqda deduktsiya va indukdiya kabi uslublar ham qoʻl keladi. Umumiylikdan hususiylikka qaratilgan tushuntirish yoʻli - deduktsiyani baʼzan nazariyadan amaliyotga oʻtish ham deyishadi. Xususiylikdan oʻmumiylikka oʻtish, yaʼni induktsiya esa ogʻzaki nutqda eng mashhur, samarali uslublardan biri hisoblanadi. U voqelikni hayotiy faktlar, misollar orqali tasvirlab, eʼtiqodni kuchaytiradi.

Nutqda **muammo tanlash** usuli ham bor. Bunda notiq maʼruza davomida biror muammoni tinglovchilarga havola qilib, ulardan javob soʻraydi. Oxirida shu javoblarni tahlil etib, muammo echimlarini bayon qiladi, “koʻrsatadi”.

**Qiyos** (analogiya) usuli ham nutqni boyitadi. Bunda notiq bir voqea va hodisani unga oʻxshash, lekin tinglovchiga yaxshiroq maʼlum voqea-hodisa bilan solishtirib bayoni qiladi. Chunki ikki hodisa bir necha jihatlari bilan bir-biriga oʻxshasa, boshqa jihatlardan ham oʻxshaydi. Bu qiyosiy uslubning ayniqsa, tuygʻularga taʼsiri kuchli boʻladi.

**Kontrast** (zidlash) uslubida - biror narsa uning ziddi bilan qiyosiy tushuntiriladi. Oqni-qora, issiqni-sovuq, milliy mafkurani-diniy aqidaparastlik mafkurasi bilan qiyosan anglatish mumkin.

**Kontsentrik** uslubda bayon bir markaziy muammo atrofida aylanadi.

**Bosqichli** uslubda - mavzu bosqichma-bosqich, darajama-daraja ochib beriladi.

**Tarixiy xronologik** uslubda tarixiy tahlil usulidan foydalaniladi, biografik materiallar ishga solinadi, foydalaniladi. Muammoga: bu nima? nima uchun? qanday? qanday qilib? qanaqasiga? kabi savollari qoʻyilib, javob beriladi.

**Xulosa** qismida hosil qilingan taassurotni kuchaytirish, jamoa oldiga yangi vazifalarni qo'yish, tinglovchilarni muayyan amaliyotga, xatti-harakatga chorlash ustuvor bo'ladi. Og'zaki nutq turli shakllarda yakun topishi mumkin. Shulardan:

- a) nutqdagi asosiy g'oyalarni qisqa-qisqa qilib qaytarish;
- b) umumlashtirib, vazifalarni belgilash;
- g) istiqbolni ko'rsatish;
- d) harakat yo'nalishlarini belgilab berish;
- e) nutq tugatanligini aytib to'xtatish keng tarqalgan.

Albatta, bu usullardan qay birini tanlash vaziyatga bog'liq, qolaversa, ma'ruzachining ixtiyoriga havola.

Ko'rib o'tilganidek, mafkura kuchli targ'ibot talab qiladi.

*Tarbiyaviy texnologiyalar treninglari tavsifnomasi*

«**Tanishuv**» treningi - o'quvchilarni bir-biri bilan tanishtirish, do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, ularning ijodiy imkoniyatlari va shaxsiy sifatlarini ochish, jamoada ishlash uchun qulay sharoit vujudga keltirish hamda o'quvchilar o'rtasida ruhiy to'siqlarni engishga yo'naltirilgan.

«**Murabbiy va jamoa**» treningi - murabbiy va jamoa bilan ishlash muammolari mohiyatini aniqlash malakasini shakllantirish, uning echimini izlash va topishga yo'naltirilgan.

**KBI - kuzatish, bahslashish, ishontirish** treningi faol hayotiy holatni, lider (sardor)lik sifatlarini, jamoada ishlash ko'nikmalarini hamda uzgalar fikrini hurmat qilgan holda dalillash, ishontirish, asoslash, munozara olib borish mahoratini, murosaga kelish va izlash qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

**IMAK - ishontirish maktabi** treningi ishontirish (murosa yo'llarini topish, uni asoslab berish), tashqilotchilik qobiliyatini, nostandart vaziyatlarda o'zini va jamoani boshqara olish hamda mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish, ularni hal qilish yo'llarini izlab topish mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan.

«**Uchlik**» - **SAN - samarali, axloqiy, nazokatli** treningi bezak ishlari, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy tasavvurni rivojlantirish, tashqilotchilik qobiliyatlarini, turli badiiy eskizlarni tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

«**Sahna**» treningi ijodiy fikrlashni rivojlantirish, tadbirning reja-stsenariysini to'zish ko'nikmasi hamda sahna va aktyorlik asoslari, madaniyat, rejissura, tadbirni tashqil etish, notiqlik mahoragini shakllantirishga yo'naltirilgan.

**AJIL - amaliyotda jamoaviy ijodiy ishlar** treningi - jamoaviy ijodiy ishni tashqil qilish, tayyorlash va o'tkazish uslublarini o'rganish hamda ijodiy faoliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan.

«**Bahslashuv klubi**» treningi - o'quvchilar o'rtasida bahs, munozaralar o'tkazish va bahslashuv klublarini tashqil etish hamda ularni ba'zi yanglish fikrlar, atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga qarshi kurashish, noo'rin fikrlarga o'z vaqtida qarshilik ko'rsatish yoki bildirilgan fikrni to'g'ri, noto'g'ri ekanligini aniqlab olish, o'z (fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olishga o'rgatish va bahslashish madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan.

«**Tankid kilishni o'rganing**» treningi - tanqid ko'rinishlari tasnifi, ularni ishlatish yo'llari bilan tanishtirish, tanqidni to'g'ri qabo'l qilish ko'nikmasi va tanqid qilish madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan.

«**Kelishuv va ziddiyat**» treningi - mantiqiy va tanqidiy fikrlash, murosaga kelish mahoratini shakllantirish hamda asosli bahslashish qoidalari bilan tanishtirish, ziddiyatlarni echishda har kimning o'z uslublarini topa olishlariga ko'maklashishga yo'naltirilgan.

«**Chambarak**» treningi - pedagogik jarayon va faoliyatda uchraydigan turli vaziyatlar, ulardan chiqish yo'llarini topish malakalarini shakllantirish hamda pedagogik vazifalarni echishga yo'naltirilgan.

**Ierarxiya texnikasi «Murabbiy shaxsi»** treningi - murabbiylarning shaxsiy va kasbiy fazilatlari hamda murabbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan fazilatlarni aniqlash va ularni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Yuqorida keltirilgan «Tarbiyaviy texnologiyalar treninglari tavsifnomasi»da bayon etilgan treninglarni tashqil etish, o'tkazish va tahlil etish mashg'ulot davomida yakka, juft, kichik va katta guruh jamoa shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Pedagogikada tarbiya berishning yo'li va usullari «**metod**» deb hisoblanadi. Qadimgi yunon tilida «**metxos**» so'zi bizning tilimizda «usul», «yo'l» degan ma'noni anglatadi.

*Tarbiya metodlari* – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikda aniq maqsadga erishish uchun ma'lum tartibda bajaradigan faoliyatning yo'l va usullari yig'indisidir.

*Tarbiya vositasi* sifatida xalq og'zaki ijodi namunalari, badiiy ijod, tasviriy san'at, me'morchilik, ma'naviy qadriyatlar va an'analar xizmat qiladi. Tarbiyaviy ta'sir shakli sifatida uchrashuvlar, munozaralar va muhokama, mehnat tarbiyalari, o'yinlar, marosimlar va boshqalarni hisoblash mumkin. Ayrim manbalarda bu vosita shakllarini tarbiya usuli deb ham sanashadilar.

Mustaqillik o'zbek matbuotini, ommaviy axborot vositalarini o'z milliy zaminiga qaytardi, oyoqqa turg'izdi, o'zbek davlatchiligining asl ifodachisiga, g'oyaviy himoyachiga aylantirdi, unga huquqiy poydevor yaratdi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida shunday deyilgan: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axbarotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi".<sup>1</sup>

Demokratik islohotlarni, milliy g'oyani hayotga tadbiq etishda, yangicha ong, yangicha tafakkur, yangicha dunyoqarashni shakllantirishni, ommani g'oyaviy qurollantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lib:

**birinchidan**, ommaviy axborot vositalari mustaqillikni mustahkamlashga, erkinlik va islohotlarni amalga oshirishga, yangicha tafakkur va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi, Darhaqiqat, O'zbekistonda barpo etilayotgan o'ziga xos demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyat ommaviy axborot vositalari faoliyatining ko'lamini, maqsad va vazifalarini belgilab beradi;

**ikkinchidan**, ommaviy axborot vositalari milliy mustaqillikning Vatan, xalq, millat taqdiridagi o'rni va ahamiyatini, o'tmish rejalari va xalqimizning

bunyodkorlik faoliyati misolida yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalaydi, ularda Vatanga muhabbat, mustaqillikka muhabbat tuyg‘ularini avj oldiradi;

**uchinchidan**, ommaviy axborot vositalari demokratik islohotlar ahamiyatini, davlatning ichki va tashqi siyosatini odamlar, yoshlar ongiga yetkazadi. Inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda davlat va jamiyat o‘rtasida vositachilik vazifasini bajaradi;

**to‘rtinchidan**, axborot vositalari ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi omillardan biri. U jamoatchilikni hokimiyatni boshqarishda qatnashishga jalb etadi, qonunlar, qarorlar qabo‘l qilishda qatnashishga da‘vat qiladi, shu tariqa ularni siyosiy, g‘oyaviy ruhda tarbiyalaydi;

**beshinchidan**, mustaqil O‘zbekistonda axborotlarning mafkurasidan mutlaqo xoliligi nazarda tutiladi, jamiyatning xolisona, haqqoniy, xilma-xil axborotlarga bo‘lgan ehtiyoji qondiriladi;

**oltinchidan**, mamlakat aholisini, chet el jamoatchiligini O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘zgarishlardan xabardor qilish va hokazolar. Mamlakatimizda o‘tgan yillar davomida, ayniqsa oxirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so‘z erkinligini ta‘minlashga qaratilgan keng qamrovli tashqiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimovning 2010-yil 12-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” nomli ma‘ruzalarida axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta‘minlash masalasi alohida ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi.

Yurtimizda, avvalo, ommaviy axborot vositalari rivojini ta‘minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to‘la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabo‘l qilindi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning, axbarot texnologiyalari va tizimlarini qo‘llagan holda, axbarot resruslaridan foydalanish mehanizmlarini belgilab bergan yangi tahrirdagi “Axbarotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning qabo‘l qilinishi ommaviy axbarot vositalarini modernizatsiya qilishni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda keyingi yillarda su‘niy yo‘ldosh aloqa tarmog‘i orqali teleradio dasturlarni tarqatish yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo‘nalish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqadigan xalqaro qanallarga ega. Yurtimizdagi teleradioqanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko‘rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog‘i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda.

Bunday keng miqyosdagi ishlar natijasida faqat keyingi 10 yilning o‘zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni 7 barobar, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga yetdi. Mavjud barcha teleqanallarning qariyb 53 foizi, radioqanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari

O‘zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko‘rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda.

So‘nggi yillarda yangi tahrirdagi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunga, shuningdek, “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”, “Reklama to‘g‘risida”, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi va boshqa bir qator qonunchilik hujjatlariga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu esa yangi siyosiy shart-sharoitlarda ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ta‘minladi. Shu bilan birga, nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning axborot sohasini demokratlashtirishda faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan keng qamrovli institutsional islohotlar amalga oshirildi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kun sayin jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotganligi sababli ham ulardan ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida, ayniqsa, ta‘lim sohasida foydalanish asrimizning eng dolzarb vazifasi bo‘lib bormoqda. 1997-yilda davlatimiz tomonidan qabo‘l qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning sifat bosqichida mamlakatimizda AKTni joriy etish, ta‘lim tizimiga xorijiy yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish va uning ijobiy tajribalarini jalb etish ta‘lim sohasidagi muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalarida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta‘lim samaradorligini oshirish, ta‘limning yuqori sifat darajasida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tishni ta‘minlash, mustaqil ta‘lim olish va o‘z-o‘zini mustaqil nazorat qilish imkonini yuzaga keltirish, bilim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axborotni mustaqil o‘rganishning turli uslublarini qo‘llash, o‘quv materiallarni o‘rganish vaqtini tejash va boshqa bir qator mas‘uliyatli vazifalarni amalga oshirishda AKTdan keng ko‘lamda foydalanilmoqda. Bu borada ta‘lim tizimini isloh qilish bo‘yicha “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlovchi ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini zamonaviy AKT, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida tashqil etish zarurligi alohida ta‘kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni (“O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2004-yil, 6-son), Prezidentimizning 2002-yil 30-maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida” PF-3080-sonli Farmoniga (“Xalq so‘zi”, 116 (2944)-son, 2002-yil, 1-iyun) muvofiq bugungi kunda mavjud vazirlik va idoralar, jamoat birlashmalari tomonidan ta‘lim sohasida AKT hamda xizmatlarini rivojlantirish borasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan muhim vazifalar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda oliy ta‘lim olishga intilayotgan yoshlar salmog‘i kundankunga o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Agar mamlakatimizda 2005-yilda oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 263600 nafarni tashqil etgan bo‘lsa, 2006-yilda ushbu ko‘rsatkich 278700 nafarga, 2007-yilda 286300 nafarga, 2008-yilda 300000 nafarga yetganini, 2009-yilda esa mamlakatimizning 60

dan ortiq oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 300000 dan ham oshganini e'tirof etish o'rinli. Oliy ta'lim muassasalarida bir kompyuterga to'g'ri keladigan talabalar soni esa 2006-yilda 14,9 ta, 2007-yilda 14,4 ta, 2008-yilda esa 12,8 talabani tashqil qilgan bo'lsa, 2009-yilda ushbu ko'rsatkich 10,9 tani tashqil etdi.

Bu raqamlardan shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda ta'limga, xususan, oliy ta'limga bo'lgan talab yillar davomida ortib bormoqda. Demak, bugungi yoshlarning tafakkuri va onggi o'smoqda. Ular kelajakda jamiyat uchun kerakli shaxs bo'lib yetishishlari uchun zamon talabiga javob beradigan kadrlar orasida o'z o'rinlarini topishlari kerakligini anglab yetganlar. Kelajak avlod kun sayin yangilanib borayotgan texnologiyalar bilan ishlash, marketing va menejment faoliyatini yaxshi bilgan holda ishlab chiqarishda faoliyat yuritish, yangiliklar yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. AKTni ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha jamiyatimizning tez sur'atlar bilan o'sib boruvchi ehtiyojlari oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonida elektron darslik va qo'llanmalar, virtual stendlar, intellektual tizimlar, AKT vositalari va Internet imkoniyatlaridan foydalangan holda masofaviy o'qitish, shuningdek, masofaviy ta'limni joriy etish bilan bog'liq nazariy va amaliy tadbirlar bajarilishini taqozo etadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda AKTning yuqori darajada rivojlanganligi ham masofaviy ta'limni amalga oshirish uchun yetarli shart-sharoitlar mavjudligini bildiradi. Internet xizmatining tobora yuksalib borayotgani, o'qitish jarayonida undan to'g'ri va unumli foydalanishga bo'lgan ehtiyoj yurtimiz ta'lim tizimida AKTning milliy strategiyasini izchil joriy etishni taqozo etmoqda. Ushbu strategiya o'zida oliy ta'lim masqanlarini AKT bilan ta'minlash orqali iqtisodiy-ijtimoiy ta'lim sifatini oshirish, elektron o'quv dasturlarini yaratish, o'qituvchi va o'quvchilarning AKTdan foydalanish bilim va ko'nikmalarini oshirish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mashg'ulotlar chog'ida AKTdan keng foydalanish o'quv materiallarini talabalar tomonidan qabo'l qilish va o'zlashtirish samaradorligini yuksaltiradi.

Aytish lozimki, ta'lim sohasi jamiyat hayotining iqtisodiy sohasida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etsa, ta'lim faoliyati esa, jamiyat iqtisodiy rivojlanishining muhim bir bo'lagi hisoblanadi. Shu sababli, iqtisodiy ta'lim jarayonini axborotlashtirish orqali shaxsning intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, jamiyatdagi har bir fuqaroning iqtisodiy bilim va malakasini oshirish, tezkor ta'lim uchun shart-sharoit yaratish mumkin. Hozirgi kunda nafaqat ta'lim sohasiga, balki milliy iqtisodning barcha tarmoqlariga Internet, elektron tijorat, elektron biznes, virtual tijorat, virtual ta'lim, masofaviy o'qitish, virtual stend texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda.<sup>1</sup>

O'zbekiston axborot hamjamiyatini rivojlantirish haqida gap ketganda, shuni alohida qayd etish kerakki, so'nggi 10 yil davomida jami 2,5 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan 40 dan ortiq loyihalar amalga oshirildi. Natijada barcha shaharlararo va xalqaro hamda 98 foiz mahalliy telefon stansiyalari raqamlashtirilishiga erishilib, bu aholiga zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishda qo'l kelmoqda. Xalqaro paket kommunikatsiyalari markazining o'tkazish quvvati 4 barobar oshirilishi natijasida internetga ulanish

tezligini 40 Gbit/s.gacha chiqarish imkoniyati yuzaga keldi. Bu, o'z navbatida, internet provayderlari va operatorlar sonining 930 taga ko'payishiga xizmat qildi. Internetdan foydalanuvchilar soni 10 million nafardan oshdi, ulardan 207 ming nafari keng polosali internet foydalanuvchilaridir. Asosan, tadqiqotlarga ko'ra internetdan foydalanuvchilarni ko'p qismi 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar hisoblanishadi. Ular internetdan turli hil maqsadda foydalanishadi. Foydalanadigan saytlarining ichida ular uchun foydali, ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan saytlar ham, aksincha salbiy ta'sir etadigan saytlar ham bor. Faol internetdan foydalanuvchilarning sonining ko'payishi .UZ domen zonasidagi saytlar va kontent xajmining ko'payishiga ham yo'l ochdi. Bugungi kunda ro'yxatdan o'tgan domenlar soni 16 mingtani tashqil qilib, ulardan 195 tasi davlat hokimiyati organlarining resursi bo'lsa, 98 tasi esa axborot tizimidir. Bazaviy davlat interaktiv xizmatlari soni bugungi kunda 197 tani tashqil etmoqda.

Muxtasar qilib aytish mumkinki, keyingi yillardagi kompyuter texnologiyalarining tezkorlik bilan rivojlanishi esa ularning o'quv jarayniga keng miqyosida joriy qilinishiga olib keldi.

-Butunjahon internet to'ri dunyo axborot makonining ajralmas muhim bo'g'iniga aylanib bo'ldi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmoqlari orqali balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, planshet, kabel televideniyesi, radiosignallar, uyali aloqa vositalari orqali ham foydalanish mumkin.

Aksariyat internetdan foydalanuvchilar o'zlari uchun kerakli ma'lumotlarni aniq belgilangan saytlardan emas balki ommaviy qidiruv saytlari orqali topishmoqda. Masalan, Online Computer Library Center notijorat tashqilotining ma'lumotlariga ko'ra 83 foizga yaqin kollej va oliy o'quv yurtlarining talabalari kerakli ma'lumotlarni ommaviy qidiruv saytlari orqali topishga harakat qilishadi. Faqat 2 foiz foydalanuvchilargina, Axborot resurs markazlari va turli kitob fondlariga murojaat qilishadi. Abduvohid Ochildievning ma'lumotlariga ko'ra, o'z – o'zini o'ldirishning oson yo'lini targ'ib qiluvchi 9 mingdan, erotik mazmundagi 4 mingdan ziyod saytlar mavjud. Mutaxassislar o'tkazgan maxsus tadqiqotlar mavjud saytlarning taxminan 12 foizi pornografik harakterga egaligini ko'rsatadi. Mavjud maxsus dasturlar internet tarmog'idagi pornografiyaning faqat 90 foizinigina filtrlaydi, ya'ni kompyuterdan foydalanuvchining ixtiyoridan tashqarida ekranda paydo bo'lishiga to'siq qo'ya oladi. Shuning uchun talaba yoshlar orasida kompyuterdan foydalanish madaniyatini rivojlantirish va shakllantirish talab etiladi.

Mana shunday tahlikali bir paytda yoshlar ongini turli zararli va yot g'oyalardan saqlash eng usuvor vazifalardan biridir. Yoshlar ma'naviyatini yanada shakllantirish uchun OAV va internetdan to'g'ri foydalanish talab etiladi. Ulardan to'g'ri foydalangan holatdagina biz yoshlardan, ularning ma'naviy olamidanda eng ezgu o'y va g'oyalar hamda ulqan marralarni hech ikkilanmasdan kutish mumkin.

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

- 1.Tarbiya va huquqiy tarbiya tushunchalariga izoh bering?
- 2.Huquqiy tarbiya omillari sanab bering?
- 3.Huquqiy tarbiya vositalarini tushuntirib bering?



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. –Guliston, Universitet. 2020.
2. Topildiyev V.R. Ta’lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari–T., 2016. -144 bet.
3. Oliy ta’lim. Me’yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to’plami. “Istiqlol” - T.: 2013.

### **9-MAVZU:**

## **HUQUQIY ONGNI SHAKLLANTIRISH. HUQUQIY MAFKURA VA HUQUQIY PSIXOLOGIYA**

### **Reja:**

1. Huquqiy ongni shakllantirish
2. Huquqiy mafkura
3. Huquqiy psixologiya

Bugungi O‘zbekistonning strategik maqsadi qilib qo‘yilgan har tomonlama rivojlangan, erkin va farovon, qonun ustuvor bo‘lgan, zamonaviy demokratik davlatlar qatoriga qo‘shilish uchun mamlakatimizda barcha sohalarda misli ko‘rilmagan darajada islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, milliy huquq tizimida so‘nggi yillarda ko‘lami va mohiyati nuqtai-nazaridan islohotlarning yangi davri boshlandi. Inson huquq va erkinliklarini, uning qonuniy manfaatlarini amalda ta‘minlashga nisbatan munosabatni tubdan o‘zgartirish tizimidagi islohotlarning bosh g‘oyasiga aylandi.

Davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilaydigan bir qator muhim omillar bor. Biz qisqa qilib, buning uchtagina jihatini sanab o‘tamiz.

Birinchidan, rivojlangan jamiyat a‘zolarining, davlat fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy faolligi yuksak bo‘lishi kerak;

ikkinchidan, huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi baland bo‘lishi lozim;

uchinchidan, ularning o‘sha jamiyatdagi islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg‘usi bor bo‘lishligi talab etiladi.

To‘g‘risini aytish kerak, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik haqida gap ketganda ko‘pchiligimizda faqat qonunlarni bilish yoki ulardan boxabarlik darajasi tushuniladi. Aslida bu juda keng tushuncha bo‘lib, yuqorida sanab o‘tganimiz davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilaydigan uchta muhim omilni ham o‘z ichiga oladi. Huquqiy madaniyati yuksak inson qonunlarga itoatkor bo‘ladi, hamisha unga bo‘ysinadi va qonunlarga nisbatan hurmat bilan qaraydi. Bunday insonlar qonunlarda belgilangan qoidalarga zid hatti-harakat qilmaydi, aksincha, boshqalarni ham shunga da‘vat etadi. Ijtimoiy-siyosiy

faol fuqaro jamiyatda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga ongli munosabatda bo‘lib, islohotlarga daxldorligini sezib, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik mas’uliyatini his qilib yashaydi. Eng muhimi, u mamlakat taraqqiyotiga amaliy hissa qo‘shishga harakat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 9 yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni keng jamoatchilikning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi yuksalishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu Farmonda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi quyidagi muammo va kamchiliklar saqlanib qolinayotganligi sanab o‘tiladi.

Jumladan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan;

- yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi;

- aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta’sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko‘rsatadi;

- huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Keling, sanab o‘tilgan ushbu muammo va kamchiliklarni biroz tahlil qilib chiqaylik. Eng oxirida keltirib o‘tganimiz “shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish”dan boshlasak.

Davlatimiz rahbari o‘zlarining ko‘plab ma’ruza va chiqishlarida davlat va jamiyatni taraqqiy ettirish umumjamiyatning ishiga aylanishi kerakligini, buning uchun har bir fuqaro o‘zining bu borada qat’iy fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishi, fuqaroning shaxsiy manfaati hech qachon jamiyat manfaatidan ustun bo‘lmasligilozimligini ta’kidlab o‘tadilar.

Albatta, bu bejiz emas. Sababi, qayerdagi shaxsiy manfaat jamiyat va davlat manfaatidan ustun qo‘yilar eqan, o‘sha yerda jiddiy muammo paydo bo‘ladi. Aytish lozim bo‘lsa korrupsiya, ta’magirlik va boshqa illatlar vujudga keladi. Bu ikki manfaat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash nihoyatda muhim. Shundan kelib chiqib,

avvalo keng jamoatchilik orasida ushbu muvozanatni har qanday sharoitda ham saqlash g‘oyasini tizimli targ‘ibot qilish lozim.

“Huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotgan”ligi ham haqiqat. Maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab, oliy o‘quv yurtlarigacha bo‘lgan bosqichlardagi o‘zaro uzviy bog‘liqlik yetishmaydi. Yoki maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan huquqiy saboqlar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalar, ko‘rgazmali qurollar yetarlimi degan savolga ham “ha” deb javob berish mushkul. Bu borada mana shu yoshdagi bolalar ongiga huquqiy madaniyat qanday usullar bilan singdirilishi lozim degan jiddiy masala ko‘zga tashlanadi. Bu o‘rinda psixologlar va huquqshunoslar bilan hamkorlikda huquqiy saboqlar o‘quv adabiyotlarining ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Shuning uchun, Farmonning 9-bandida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda maktabgacha ta’lim muassasalarida “Bola huquqlari va majburiyatlari” mavzusidagi mashg‘ulotlarni malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda ko‘rgazmali tarzda tizimli joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

10-bandida esa, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda:

2019/2020 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning huquqiy bilimlari uzluksiz va tizimli oshirib borilishini ta’minlash mexanizmini joriy etish, shuningdek, o‘quvchi va talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

2019 yil 1 martga qadar yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlanishini tashqil qilish;

yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ta’lim muassasalarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishining samarali mexanizmlarini kengaytirish choralari ko‘rish kabi jiddiy vazifalar yuklatildi.

Bundan 22 yil oldin Oliy Majlis qarori bilan qabo‘l qilingan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy Dasturi” oradan shuncha vaqt o‘tganidan keyin uni bugungi kun talabidan va ruhidan kelib chiqib yangilash zaruriyati tug‘ildi. E’tibor qiling, bugungi kunda qanchadan-qancha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Shu nuqtai-nazardan ushbu Farmon bilan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlanib, unda bir qator muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlar belgilandi.

Birinchi yo‘nalish, 1-bobda nazarda tutilib, u “Shaxs, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish” deb nomlangan.

Darhaqiqat, shaxs, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarida qonun, undagi huquqiy me‘yorlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu har bir shaxsning jamiyat va davlat oldidagi ijtimoiy mas‘uliyatini belgilaydi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasining o‘ziga xos eng muhim jihatlaridan biri, huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish dastlab oiladan boshlanishi lozimligi belgilanganidir. Konsepsiya bizning milliy mentalitetimiz, yashash tarzimiz bilan uzviy bog‘liq holda ishlab chiqilganligidan dalolat beradi.

Xalqimizda “qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan purma‘no falsafa bor. Oilada ya‘ni, ota-onada huquqiy madaniyat bo‘lsa, shubhasiz bu farzandlarga ko‘chib o‘tadi. Shuning uchun, har bir oilada bolalarga huquqiy tarbiya va odo-axloqning boshlang‘ich qoidalarini o‘rgatish bo‘yicha birinchi navbatda ota-onalarning o‘zlari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va tarqatish masalasi belgilanayapti. Bundan tashqari, oila davrasida huquqiy savodxonlikni oshirishga mo‘ljallangan, har bir elementar huquqiy bilimlarni o‘rgatishga qaratilgan va kundalik hayotdagi muhim masalalar yuzasidan huquqiy qo‘llanma tayyorlash va bepul tarqatish, bolalar uchun huquqiy mavzularda va odo-axloqning oddiy va kundalik qoidalarini bilishni, vatanparvarlik, qonunlarni hurmat qilish, o‘zbek xalqining tarixi va milliy qadriyatlarini o‘rgatishni targ‘ib qiluvchi turli multiplikatsion filmlarni yaratish, bolalar uchun huquqiy axborotni yetkazishga hamda kundalik turmushda qo‘llaniladigan normalar va odo-axloq qoidalarini o‘rgatishga qaratilgan audioertaklar, kinofilmlar va kinojurnallar ishlab chiqish kabi vazifalar birinchi yo‘nalishda o‘z aksini topgan.

Ushbu maqolada biz har tomonlama puxta o‘ylanib, amaliyot jiddiy tahlil etilgan holda ishlab chiqilgan Konsepsiyaning birinchi yo‘nalishida belgilangan ayrim vazifalar xususida qismanfikir-mulohazalar yuritishga harakat qildik.

Konsepsiya 5 bobdan iborat bo‘lib, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullarini joriy qilish”, “Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish”, Yuridik ta‘limni, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish”, “Huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish” singari boblarida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, mustahkam irodali, o‘z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan va huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo‘ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish masalalari aks etgan.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta‘biri bilan aytganda, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga hissa qo‘shish – yaratganning o‘zi bizga bergan tarixiy imkoniyat”dir.

### **Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Huquqiy ongni shakllantirish yuzasidan o‘z fikringizni bayon qiling?

2. Huquqiy mafkura nima?
3. Huquqiy psixologiya nima?

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. –Guliston, Universitet. 2020.
2. Topildiyev V.R. Ta’lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari–T., 2016. -144 bet.
3. Oliy ta’lim. Me’yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to’plami. “Istiqlol” - T.: 2013.

#### 10-MAVZU:

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2019-YIL 9-YANVARDAGI JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA PF- 5618-SON FARMONI-DAVLAT HUQUQIY SIYOSATINING ASOSI. HUQUQIY SAVODXONLIK- HUQUQIY MADANIYAT ASOSI.**

#### **Reja:**

- 1.Savodxonlik va huquqiy savodxonlik tushunchalari.
2. Savodxonlikni oshirish omillari.
3. Huquqiy savodxonlik oshirish omillari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni qabo‘l qilindi.

Hujjatda qayd etilishicha, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta'sirini ko‘rsatmoqda.

Quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilandi:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabo‘l qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong

va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashqil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashqil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

“Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan kontseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashqil qilish davlat organlari va tashqilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilanadi.

Belgilab qo'yilishicha, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashqilot – jamiyat” prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashqil etiladi.

Tilimizda savodxon, savodxonlik tushunchalari bor. Savodxon shaxs yoki fuqaroning o'qish va yozish malakasiga egaligini ifodalasa, savodxonlik butun axolini shunday darajasini ifodalaydi. Huquqiy savodxonlik esa kishilarni o'z haq-huquqlarini bilish darajasini ifodalovchi tushunchadir.

Mamlakatimizda yalpi savodxonlikka 1959 yilda erishilgan. Afsuski xalixanuz savodxonlikni, “savoldi savodsizlik” xolati kuzatilmoqda. Bu ilmda johil degan tushincha bilan ifodalanadi. Johillik-bilishimiz shart bo'lgan bilim doirasini bilmasligimizdir. Qadimgi arablarda to islomgacha bo'lgan davr johilyat davri deb yuritiladi.

Aholining huquqiy savodxonligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari katta ahamiyatga ega. Ularning huquqiy mavzularga e'tiborini kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan yuridik masalalarni davriy nashrlar sahifalarida, televidenie va radio eshittirishlarida tushuntirib berish borasida hissasini keskin oshirish zarur.

Davlat xizmatchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, huquqiy bilim asoslarini albatta o'qitish maqsadga muvofiqdir.

*Huquqiy ta'lim mazmuni* - barcha o'quvchilar egallashi ko'zda tutilgan bilim, malaka va ko'nikmalar tizimi ham tarbiyalovchi, ham rivojlantiruvchi karakterda bo'lishi zarur. Shundagina u yoshlarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarining rivojlanishini, huquqiy dunyoqarashining shakllanishini ta'minlaydi, ularni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash mumkin bo'ladi. Bunda o'rganiladigan huquqiy fanlar materiallari hajmini aniqlash, bu fan bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklarini o'quvchilarni zo'riqtiradigan materialdan xoli qilish, o'quv materiallarida bayon qilinadigan asosiy tushunchalarni qisqa va ravon bayon etish, yoshlarga huquqiy manbalar bilan mustaqil o'rganish imkoniyatini yaratish huquqiy ong shakllanishini yengillashtiradi.

Huquq fanlari o'rganadigan masalalar – davlat va huquq haqidagi asosiy tushunchalar, tamoyillar, ta'limotlar *huquqiy ta'limning predmetini tashqil etadi*. Huquqiy ta'lim orqali ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga, huquqiy qoidalarni tushunishga, ularni amalda qo'llashga, huquqiy jihatdan faollashuvga, davlat va fuqaroning o'zaro aloqador ekanligini anglashga, kerak bo'lsa, huquqiy ijodkorlikka, o'z haq-huquqini bilib olishga erishiladi.

Huquqiy ta'lim mazmunini uning tarkibiga kiradigan huquqiy bilim, huquqiy ko'nikma va huquqiy malaka tashqil etadi. (8-ilova)

*Huquqiy bilim* – har bir bilim kabi muayyan huquq sohasiga oid ma'lumotlar majmuasi bo'lib, ularning inson tafakkurida namoyon bo'lishidir. Huquqiy bilim orqali yoshlarda tasavvur va tushunchalar hosil bo'ladi. O'qitish jarayonida aniq va to'liq huquqiy tasavvurlar mavjud bo'lgandagina, huquqiy tushunchalar hosil bo'la oladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar", degan qoidani tushunish uchun ta'lim oluvchi avval tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni o'zi nima ekanligini, undan keyin ularni nima uchun asrash kerakligini tushunib, shundan keyingina bu – har bir fuqaroning burchi ekanligini bilib oladi.

*Huquqiy malaka* – ilgarigi tajribalar, tushunchalar, bilimlar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish harakatidir. Masalan, huquqiy bilimlar yordamida shaxs qonunlarni talqin qilish, ularni amalga oshirish harakatini namoyon etadi. "Huquqiy ta'lim asosida o'z huquqlarini va burchlarini yaxshi bilgan jamiyat a'zolarigina ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ongli ravishda mehnat qiladi va ularning yaratuvchanlik faoliyati ancha yuqori bo'ladi".

Huquqiy bilimlar asosan ta'lim-tarbiya muassasalarida beriladi. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabo'l qilgan "Ta'lim to'g'risida"gi

qonunida asosiy e'tibor fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilab berishga qaratilgan. Ta'lim berish jarayonida yoshlar fan, axloq, mehnat, huquq, siyosat, adabiyot va san'atni, shuningdek, umumiy va jismoniy madaniyatni o'zlashtiradi. Fuqarolik jamiyatini va huquqiy davlatni barpo etish sharoitida ta'lim shaxsning har tomonlama, uyg'un rivojlanishi uchun negiz yaratadi.

Huquqiy ta'lim boshqa ijtimoiy fanlardan farq qilib, bevosita davlat, huquq masalalari haqida ta'lim beradi. Huquqiy ta'lim-huquqiy bilimlarni o'zlashtirishni, amaliy ko'nikmalar va malakalarning shakllanishini ko'zda tutadi. Yoshlar egallagan huquqiy bilimlar, ko'nikma va malakalar ularning barkamol inson bo'lib etishishlari uchun zamin tayyorlaydi.

Huquqiy ta'limning izchil, uzluksiz, tizimli va chuqur bo'lishi shaxs rivojlanishidagi yosh bilan bog'liq imkoniyatlar bilan belgilanadi. Huquqiy ta'lim yagona yo'nalishga ega bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, asosiy e'tibor yoshlarning huquqiy bilimlarni o'zlashtirishigagina emas, balki ularning umumiy rivojlanish darajasini va ijtimoiy faolligini oshirishga, qonun-qoidalarga hurmat bilan qarash hissini uyg'otishga, uning qanday ahamiyatga ega ekanligini anglab yetishlariga ham qaratilishi lozim.

Huquqiy ta'lim – aqliy tarbiya muammolarini hal qilishga qaratilgan ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatlarini tashqil qilishdan iborat. Huquqiy ta'lim har bir kishini mazkur jamiyatda yashashga, mehnat qilishga, erkin bo'lishga, mas'uliyatni his etishga tayyorlaydi.

Huquqiy ta'limning shaxs huquqiy ongini shakllantirish va yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, uni o'rganish, bir tizimga solish, huquqiy ta'limning asosiy maqsadi bo'lib kelan. Huquqiy tarbiyani inkor etmagan holda huquqiy ta'lim orqali huquqiy ongni shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki O'zbekistan Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmay- di...".

Huquqiy tarbiya va huquqiy ta'limning uzviyligini e'tirof etgan holda ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Xususan, huquqiy tarbiya - huquqiy ongni shakllantirishda huquqiy normalariga rioya qidlish, ularni bajarish va bu normalardan foydalanishni ta'minlovchi asosiy omil bo'lsa, huquqiy ta'lim - muayyan huquq sohalari bo'yicha egallashi zarur bo'lgan ma'lumotlar, bilimlar majmui bo'lib, huquqiy tasavvur va huquqiy tushunchalar xosil qilish vositasidir. Ya'ni huquqiy ta'lim shaxsning huquqiy borliq huquqiy voqelik, jamiyatdagi huquqiy munosabatlar, huquqiy normalari hakidagi bilimlar tizimidir. Shaxs huquqiy ongi shakllanishida huquqiy ta'limning nazariy asoslariga doyr xulosalar huquqiy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni jahon talablari darajasiga ko'tarish, malakali kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli, huquqiy savodxon avlodni tarbiyalash maqsadida huquqiy ta'lim nazariyasini ishlab chiqish, uning tizimini, tarkibiy qismlarini, o'qitish metodlari tizimini takomillashtirish, shaxs huquqiy ongini shakllantirishda uning ahamiyatini ochib berish bilan chambarchas bog'likdir.

Huquqiy ta'limning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi alohida bosqichlarni o'z



ichiga oladi hamda huquqiy merosimizni o'rganishda muhim hisoblanadi.

Savodxonlikni oshirish omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Duo va ibodat qilish-odamni ruhan poklaydi.
- Olam sirlari haqida fikr yuritish-odamni ma'naviy boyitadi.
- Diniy va dunyoviy kitoblar o'qish- o'z-o'zini anglashga yordam beradi.
- Ulug' kishilar bilan suhbatlashish-odamga ma'naviy ko'mak beradi.
- Bedorlik-irodani tarbiyalaydi.
- Ro'za tutish-odamni eb-ichishdan tiyadi.

Bizga huquqiy savodxonlik jarayonida qanday o'qituvchilar kerak? Demak, bugun bizga:

-izlanuvchan, o'z bilimlarini rivojlantiruvchi, soha jonquyari bo'lgan;

-yangi pedagogik texnologiyalarni puxta egallagan, AKT bilan ishlash layoqatiga ega;

-har bir darsga standart ko'rgazmali kurollardan tashqari mavzuni yoritishga xizmat qiladigan ko'rsatmali vositalarni o'z qo'li bilan tayyorlashga odatlangan;

-bolajon, o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladigan;

-notiqlik mahoratiga ega, shirinso'z;

-ta'limni tarbiya bilan uzviy bog'lab olib boradigan, bu dolzarb jarayonda otanonalar, mahalla-ko'y bilan bamaslahat ish tutadigan o'qituvchilar zarur.

*-O'zbekiston fuqarosi degan sharafli nomga har tomonlama munosib bo'lgan insonlarni tarbiyalash-barchamizning muqaddas burchimizdir. I.Karimov*

*-Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa. Arastu.*

*-O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,*

*Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar. Yusuf Xos Hojib*

*-Hayot yo'lida birinchi masala maktab masalasidir. Fitrat*

Huquqiy bilim berish va tegishli huquqiy ko'nikma va malaqani shakllantirish jarayoni ta'lim oluvchilarni aqliy jihatdan rivojlantirib tarbiyalaydigan, o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabatni o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat olib boruvchi pedagog, o'qituvchi-professorlarning kasbiy huquqiy ongi darajasi huquqiy ta'lim jarayonida muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi - ta'lim-tarbiya ishining bosh me'mori. O'quvchining to'g'ri unib-ulg'ayishi, go'zal xulqi, bilimiyu iqtidori me'morning mahorati mahsuli. Bu bolalar qalbidan joy olgan darslarda o'z ifodasini topadi. Pedagog darslarga uyg'oq qalb bilan, puxta tayyorgarlik ko'rib kirsam, har bir mashg'ulot nafaqat o'rganuvchi, balki o'rgatuvchi uchun taassurotlarga boy bo'lishi shubhasiz.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

- 1.Savodxonlik va huquqiy savodxonlik tushunchalari izohlab bering?
2. Savodxonlikni oshirish omillarini sanab bering?
3. Huquqiy savodxonlik oshirish omillarini sanab bering?

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. –Guliston, Universitet. 2020.
2. Topildiyev V.R. Ta'lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari–T., 2016. -144 bet.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. "Istiqlol" - T.: 2013.

### **11-MAVZU: HUQUQIY TARBIYANI OLIB BORISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

#### **Reja:**

1. Og'zaki metod tushunchasi
2. Og'zaki metodning turlari va uning o'ziga xos xosligi
3. Ko'rsatmali metod tushunchasi
4. Ko'rsatmali metod o'quvchilar bilimining asosiy manbasi
5. Ko'rgazmali qurollar bilan ishlashni usullari

Huquq fanlarini o'qitishda biz bir qancha metodlardan foydalanamiz. Biz foydalangan metodlarimiz iloji boricha o'quvchilarning ongiga yaxshi etuk darajada singib borishi lozim. O'quvchilarga to'liq bilim berish uchun avvalo o'zimizda to'liq bilim bo'lishi kerak.

Huquq fanlarini o'qitishda bir qancha metodlardan foydalanamiz. Ular quyidagilar

1. Kuzatish metodi
2. Tajriba metodi
3. Surash metodi
4. Og'zaki metod
5. Ko'rgazmali metod

Biz ana shu metodlardan foydalanib dars o'tgandagina uning natijasi samarali bo'lishi mumkin. Ana shunda o'quvchilar ongiga to'liq singdira olamiz.

Endi metodlarimizga tavsif beradigan bo'lsak. Ular kuzatish metodi - jamoani va shaxsni huquqiy tarbiyalashda kullaniladi. Jamoaga nisbatan tashqi kuzatuv metodini, shaxsga nisbatan ham tashqi ham ichki kuzatuv metodlarini qo'llash mumkin. Ichki kuzatuv metodi faqat individual huquqiy tarbiyada qo'llaniladi.

O'quvchining ichki kechinmalarini kuzatib borish uning ruxiy hayotiga e'tibor berish tarbiyachiga maslaxat va yo'l yo'riqlar mazmunini aniqlashga imkoniyat yaratib berdi.

**Tajriba metodi** esa jamoa bilan ma'lum hududda tekshirish o'tkazish aniqlash tadqiqot o'tkazish yo'li bilan qo'llaniladi. Bunda jamoani ya'ni ayrim shaxslarni huquqiy tarbiyalashga zarur hamda samaradorli shakl va metodlarda ushbu metodlar ilmiy asosda aniqlanadi. Masalan: jamoada huquqiy targ'ibot

buzulishi sabablarini, ma`lum xududda takrorlanayotgan jinoiy harakat sabablarini maxsus usulda o`rganish huquqiy tarbiyalashning choralari aniqlashda yordam beradi va ularni amalga oshirishda aniq vositalardan foydalaniladi.

**So`rash metodi** - faqat individual harakterga ega bo`lsa, suxbat metodi jamoani huquqiy tarbiyalashda qo`llanilishi mumkin. So`rash surushtirish metodi ayniqsa huquq tartibotini qonun va qoida buzuvchilarga nisbatan qonuniylikni mustamkamlash tarbiyaviy choralarni belgilashda katta ahamiyatga ega. Suxbat metodi jamoadagi huquqiy xolatni o`rganishda normativ aktlarni o`rganish va tashviqot qilishda judayam katta ahamiyatga ega.

**Og`zaki metod** - bu har xil ma`lumotlarni o`quvchilarga og`zaki erkin turda yetkazib berishdir. Masalan: huquq fanlarini og`zaki turda tushuntirmoqchi bo`lsak Disput debat shaklida ham foydalanishimiz mumkin. O`quvchilarga bilim berishda ushbu og`zaki metoddan ko`p foydalanamiz. Chunki u samarali natija berishga ishonamiz. Negaki avvalo insonda nutq madaniyati og`zaki so`zlash qobiliyati bo`lishi lozim. Shundan keyingina boshqa natijalar kelishi mumkin. Og`zaki metod orqali har bir o`quvchining so`zlash qobiliyati rivojlanadi. Ham shu metoddan foydalansak vaqtdan unumli foydalanib o`quvchilarga ko`p narsani yetkazib bera olamiz. Shuning uchun ham og`zaki metod saarali metodlardan biri hisoblanadi.

**Ko`rgazmali metod** - bu metod samarali metodlardan biri hisoblanadi. Bu ko`rgazmali metod o`quvchilarni fikrlash saloxiyatini oshirishga qaratilgan. O`quvchilarga bilim berishda ko`rgazmali metoddan foydalanamiz. Ko`rgazmali metod bu - dars jarayonida turli xil ko`rgazmali vositalardan foydalanishimiz, o`quvchilarga har tamonlama tushunarli tilda tushuntirishimiz lozim. Ko`rgazmali qurollardan foydalanish o`quvchida fikrlash qobiliyatini uni tez ilg`ab olishni shakllantiradi. Demak o`quvchi ko`rgan narsani tez ilg`ab olib fikrlaydigan bo`lsa, uni savodxonlik darajasi ko`tariladi. Bu esa bizning hozirgi kundagi maqsadimiz hisoblanadi.

Ko`rgazmali metod bu o`quvchilarning bilimini oshirishning asosiy manbasi bo`lib hisoblanadi. Hozirda huquqiy ong huquqiy madaniyat tushunchalarini shakllantirishda ana shu metodlardan foydalanamiz.

Chunki biror-bir methodsiz, usul va uslubsiz hech bir fanni nafaqat huquqshunoslik fanlari balki boshqa fanlarni ham o`quvchilar ongiga yetkazib bera olmaymiz. Avvalambor shaxsda huquqiy normalar haqida tushuncha kishilar bilan huquqiy munosabatga kirishish qobiliyati uning ruhiyatiga asoslangan holda rivojlantiriladi. Shuning uchun tarbiyachi o`z qaramog`idagi tarbiyalanvchilar ruhiyatini o`rganmasdan turib oldiga qo`ygan maqsadiga erisha olmaydi. Huquqiy tarbiya samaradorligi jixatdan psixologik metodga bog`liq Ana shu metodlarimiz orqaligina biz ko`zlagan maqsadimizga erisha olamiz.

Endi xulosa qilib aytadigan bo`lsak, o`quvchida huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik darajasini, huquqiy tarbiya va huquqiy bilim berishda ana shu metodlardan foydalansakgina biz ko`zlagan maqsadimizga erisha olamiz. Mening fikrimcha o`quvchiga kunda bir usulda dars o`tgandan ko`ra, har kun har xil usulda dars o`tib ularning bilimini, fikrlash qobiliyatini oshirgan ming marta afzalrok. Bir metoddan foydalansak faqat bir xil tushuncha ko`plab

metodlardan foydalansak keng qamrovli tushunchaga ega bo'ladi. Bu metodlar aynan shunga qaratilgan.

Nutqda **muammo tanlash** usuli ham bor. Bunda notiq ma'ruza davomida biror muammoni tinglovchilarga havola qilib, ulardan javob so'raydi. Oxirida shu javoblarni tahlil etib, muammo echimlarini bayon qiladi, "ko'rsatadi".

**Qiyos** (analogiya) usuli ham nutqni boyitadi. Bunda notiq bir voqea va hodisani unga o'xshash, lekin tinglovchiga yaxshiroq ma'lum voqea-hodisa bilan solishtirib bayoni qiladi. Chunki ikki hodisa bir necha jihatlari bilan bir-biriga o'xshasa, boshqa jihatlardan ham o'xshaydi. Bu qiyosiy uslubning ayniqsa, tuyg'ularga ta'siri kuchli bo'ladi.

**Kontrast** (zidlash) uslubida - biror narsa uning ziddi bilan qiyosiy tushuntiriladi. Oqni-qora, issiqni-sovuq, milliy mafkurani-diniy aqidaparastlik mafkurasi bilan qiyosan anglatish mumkin.

**Kontsentrik** uslubda bayon bir markaziy muammo atrofida aylanadi.

**Bosqichli** uslubda - mavzu bosqichma-bosqich, darajama-daraja ochib beriladi.

**Tarixiy xronologik** uslubda tarixiy tahlil usulidan foydalaniladi, biografik materiallar ishga solinadi, foydalaniladi. Muammoga: bu nima? nima uchun? qanday? qanday qilib? qanaqasiga? kabi savollari qo'yilib, javob beriladi.

**Xulosa** qismida hosil qilingan taassurotni kuchaytirish, jamoa oldiga yangi vazifalarni qo'yish, tinglovchilarni muayyan amaliyotga, xatti-harakatga chorlash ustuvor bo'ladi. Og'zaki nutq turli shakllarda yakun topishi mumkin. Shulardan:

- a) nutqdagi asosiy g'oyalarni qisqa-qisqa qilib qaytarish;
- b) umumlashtirib, vazifalarni belgilash;
- g) istiqbolni ko'rsatish;
- d) harakat yo'nalishlarini belgilab berish;
- e) nutq tugatanligini aytib to'xtatish keng tarqalgan.

Albatta, bu usullardan qay birini tanlash vaziyatga bog'liq, qolaversa, ma'ruzachining ixtiyoriga havola.

Ko'rib o'tilganidek, mafkura kuchli targ'ibot talab qiladi.

*Tarbiyaviy texnologiyalar treninglari tavsifnomasi*

**"Tanishuv"** treningi - o'quvchilarni bir-biri bilan tanishtirish, do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, ularning ijodiy imkoniyatlari va shaxsiy sifatlarini ochish, jamoada ishlash uchun qulay sharoit vujudga keltirish hamda o'quvchilar o'rtasida ruhiy to'siqlarni engishga yo'naltirilgan.

**«Murabbiy va jamoa»** treningi - murabbiy va jamoa bilan ishlash muammolari mohiyatini aniqlash malakasini shakllantirish, uning echimini izlash va topishga yo'naltirilgan.

**KBI - kuzatish, bahslashish, ishontirish** treningi faol hayotiy holatni, lider (sardor)lik sifatlarini, jamoada ishlash ko'nikmalarini hamda uzgalar fikrini hurmat qilgan holda dalillash, ishontirish, asoslash, munozara olib borish mahoratini, murosaga kelish va izlash qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

**IMAK - ishontirish maktabi** treningi ishontirish (murosa yo'llarini topish, uni asoslab berish), tashqilotchilik qobiliyatini, nostandart vaziyatlarda o'zini va jamoani boshqara olish hamda mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni oldindan

ko'ra bilish, ularni hal qilish yo'llarini izlab topish mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan.

«**Uchlik**» - **SAN - samarali, axloqiy, nazokatli** treningi bezak ishlari, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy tasavvurni rivojlantirish, tashqilotchilik qobiliyatlarini, turli badiiy eskizlarni tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

«**Sahna**» treningi ijodiy fikrlashni rivojlantirish, tadbirning reja-stsenariysini to'zish ko'nikmasi hamda sahna va aktyorlik asoslari, madaniyat, rejissura, tadbirni tashqil etish, notiqlik mahoragini shakllantirishga yo'naltirilgan.

**AJIL - amaliyotda jamoaviy ijodiy ishlar** treningi - jamoaviy ijodiy ishni tashqil qilish, tayyorlash va o'tkazish uslublarini o'rganish hamda ijodiy faoliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan.

«**Bahslashuv klubi**» treningi - o'quvchilar o'rtasida bahs, munozaralar o'tkazish va bahslashuv klublarini tashqil etish hamda ularni ba'zi yanglish fikrlar, atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga qarshi kurashish, noo'rin fikrlarga o'z vaqtida qarshilik ko'rsatish yoki bildirilgan fikrni to'g'ri, noto'g'ri ekanligini aniqlab olish, o'z (fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olishga o'rgatish va bahslashish madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan.

«**Tankid kilishni o'rganing**» treningi - tanqid ko'rinishlari tasnifi, ularni ishlatish yo'llari bilan tanishtirish, tanqidni to'g'ri qabo'l qilish ko'nikmasi va tanqid qilish madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan.

«**Kelishuv va ziddiyat**» treningi - mantiqiy va tanqidiy fikrlash, murosaga kelish mahoratini shakllantirish hamda asosli bahslashish qoidalari bilan tanishtirish, ziddiyatlarni echishda har kimning o'z uslublarini topa olishlariga ko'maklashishga yo'naltirilgan.

«**Chambarak**» treningi - pedagogik jarayon va faoliyatda uchraydigan turli vaziyatlar, ulardan chiqish yo'llarini topish malakalarini shakllantirish hamda pedagogik vazifalarni echishga yo'naltirilgan.

**Ierarxiya texnikasi «Murabbiy shaxsi»** treningi - murabbiylarning shaxsiy va kasbiy fazilatlari hamda murabbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan fazilatlarni aniqlash va ularni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Yuqorida keltirilgan «Tarbiyaviy texnologiyalar treninglari tavsifnomasi»da bayon etilgan treninglarni tashqil etish, o'tkazish va tahlil etish mashg'ulot davomida yakka, juft, kichik va katta guruh jamoa shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Pedagogikada tarbiya berishning yo'li va usullari «**metod**» deb hisoblanadi. Qadimgi yunon tilida «**metxos**» so'zi bizning tilimizda «usul», «yo'l» degan ma'noni anglatadi.

*Tarbiya metodlari* – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikda aniq maqsadga erishish uchun ma'lum tartibda bajaradigan faoliyatning yo'l va usullari yig'indisidir.

*Tarbiya vositasi* sifatida xalq og'zaki ijodi namunalari, badiiy ijod, tasviriy san'at, me'morchilik, ma'naviy qadriyatlar va an'analar xizmat qiladi. Tarbiyaviy ta'sir shakli sifatida uchrashuvlar, munozaralar va muhokama, mehnat tarbiyalari,

o'yinlar, marosimlar va boshqalarni hisoblash mumkin. Ayrim manbalarda bu vosita shakllarini tarbiya usuli deb ham sanashadilar.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

1. Og'zaki metod tushunchasi nima?
2. Og'zaki metodning turlari va uning o'ziga xosligi nimada?
3. Ko'rsatmali metod tushunchasini tushuntirib bering?
4. Ko'rsatmali metod o'quvchilar bilimining asosiy manbasi.
5. Ko'rgazmali qurollar bilan ishlashni usullarini tushuntirib bering?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. – Guliston, Universitet. 2020.
2. Topildiyev V.R. Ta'lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari–T., 2016. -144 bet.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. “Istiqlol” -T.: 2013.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING  
FARMONI  
**JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI  
YUKSALTIRISH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH  
TO‘G‘RISIDA**

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta’sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko‘rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalari**ni aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli

axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida:

1. Quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilansin:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabo'l qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida **“Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!”** degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini** keng targ'ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, [Konstitutsiyaning](#) muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashqil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashqil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

2. **“Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati”** degan konseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashqil qilish davlat organlari va tashqilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilansin.



3. Belgilab qo'yilsinki, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish **“shaxs — oila — mahalla — ta’lim muassasasi — tashqilot — jamiyat”** prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashqil etiladi.

4. Quyidagilar:

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) [1-ilovaga](#) muvofiq;

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini 2019-yilda samarali amalga oshirish bo'yicha “Yo'l haritasi” (keyingi o'rinlarda — “Yo'l haritasi”) [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo'yilsinki, vazirlik va idoralar rahbarlari [Konsepsiyada](#) nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib belgilansin.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

ijrochilar va aholini qonunchilikning mazmun-mohiyati va ahamiyati to'g'risida xabardor qilishning sifatini tubdan oshirish, ushbu faoliyatni tashqil qilishda prinsipial yangi yondashuvlarni ishlab chiqish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

davlat organlari va tashqilotlarning huquqiy axborotdan keng ko'lamda foydalanishini ta'minlash, ularning ushbu sohada fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

davlat organlari va tashqilotlar tomonidan huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha olib borilgan ishlarni o'rganish, shuningdek, ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;

aholining turli qatlamlari, shu jumladan, tadbirkorlar va yoshlarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda huquqiy targ'ibotni amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ijrochilar va aholini qonunchilikning mohiyati va ahamiyati to'g'risida xabardor qilishning sifatini tubdan yaxshilash maqsadida keng jamoatchilik fikrini o'rganish, tahlil qilish, ushbu sohada ishlarni yanada takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqish.

6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining:

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi hamda qo'shimcha huquqiy ma'lumotlar (yuridik lug'at, huquqiy adabiyotlar elektron maydonchasi, qonun hujjatlari loyihalari muhokamasi bo'yicha onlayn forum va boshqalar) yetkazish tizimini o'z ichiga oladigan O'zbekiston Respublikasining milliy huquqiy internet portalini yaratish;

aholiga bepul maslahat berish portalini o'z ichiga olgan Advice.uz huquqiy axborot tizimini yaratish;

umumta'lim maktablari va akademik litseylarda huquqiy bilimlarga doir o'quv mashg'ulotlari ko'lamini yanada kengaytirish;

aholining kundalik hayotida ko'p uchraydigan huquqiy masalalar yuzasidan savol-javob tarzidagi qo'llanmalarni tayyorlash va xonadonlarga bepul tarqatish;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shgan davlat organlari va tashqilotlar xodimlariga aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko'rsatgan xizmatlari uchun topshiriladigan "Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochisi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda "Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochisi" ko'krak nishoni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida Hukumat qarorini qabo'l qilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga davlat organlari va tashqilotlarining huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, aholiga qabo'l qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yetkazish, shuningdek, aholining huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha olib borayotgan faoliyati ustidan ta'sirchan parlament nazoratini yo'lga qo'yish tavsiya etilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda maktabgacha ta'lim muassasalarida "Bola huquqlari va majburiyatlari" mavzusidagi mashg'ulotlarni malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda ko'rgazmali tarzda tizimli joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda:

2019/2020 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning huquqiy bilimlari uzluksiz va tizimli oshirib borilishini ta'minlash mexanizmini joriy etsin, shuningdek, o'quvchi va talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqilishini ta'minlasin;

2019-yil 1-martga qadar yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o'ta salbiy illat ekanligini targ'ib qilishga qaratilgan o'quv materiallari tayyorlanishini tashqil qilsin;

yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ta'lim muassasalarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishining samarali mexanizmlarini kengaytirish choralari ko'rsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda ta'lim muassasalarida turli huquqbuzarliklar, qoidabuzarliklar, giyohvandlik va boshqa salbiy hodisalarning oldini olish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishini va ularning amalga oshirilishini ta'minlasin.

12. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

2019-yil 1-iyolga qadar Advice.uz huquqiy axborot tizimining ishlab chiqilishini va ishga tushirilishini ta'minlasin;

2020-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasining milliy huquqiy internet portali yaratilishini to'liq yakunlasin;

uch oy muddatda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga bepul ixtiyoriy yuridik yordam ko'rsatish (pro bono) tizimini rivojlantirishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

doimiy ravishda eng dolzarb, aholini qiziqtiradigan masalalarni belgilab, aniq dasturlar asosida ular bo'yicha manzilli va predmetli huquqiy targ'ibotni amalga oshirsin, huquqiy targ'ibotni amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish borasida aholi turli qatlamlarining fikrlarini o'rganib, tahlil qilib borsin;

ikki oy muddatda yoshidan kelib chiqib huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi bo'yicha aholining huquqiy savodxonligi darajasiga qo'yiladigan minimal talablarni ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

bir oy muddatda mahallalarda fuqarolarning huquqiy bilimini oshirish maqsadida tizimli ravishda amalga oshiriladigan "Huquqiy axborot kuni" loyihasini joriy etsin;

bir oy muddatda davlat organlari va tashqilotlarda xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan bepul huquqiy maslahat kurslarini tashqil etish dasturlarini ishlab chiqsin;

jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish holati hamda bu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini o'rganish uchun tadqiqotlar va so'rovlar o'tkazib borsin;

zarur hollarda, fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy doiralar, xorijiy ekspertlarni Konsepsiya va "Yo'l haritasi"ni samarali amalga oshirishda ishtirok etishga, shuningdek, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bilan bog'liq dolzarb masalalarni muhokama qilishga va natijasi bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilashga keng jalb qilsin;

Konsepsiya va "Yo'l haritasi"ning amalga oshirilishi doirasida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining o'z vaqtida hamda sifatli tayyorlanishi, kelishilishi va kiritilishi ustidan monitoring olib borilishini ta'minlasin;

Konsepsiya va "Yo'l haritasi"ni amalga oshirish jarayonining samarali muvofiqlashtirilishi va monitoringi, shuningdek, ularning ijrosi to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga doimiy ravishda axborot berib borsin;

ikki oy muddatda Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholashning ko'rsatkichlarini tasdiqlash to'g'risidagi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

13. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va Adliya vazirligi bir oy muddatda huquqiy mavzularni tizimli va tahliliy yoritib borish hamda aholini

qonunga hurmat ruhida tarbiyalashga doir teleko'rsatuvlar ko'lamini kengaytirish choralari ko'rsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida amaliy ilmiy-texnik loyihalar va innovatsion ishlanmalar tanlovida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning tashqiliy-huquqiy, pedagogik-psixologik jihatlarini ilmiy-amaliy tadqiq etishga oid mavzularni muntazam e'lon qilib borsin.

15. Belgilansinki, davlat boshqaruvi organlari jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni targ'ib qilish bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish uchun belgilangan tartibda nodavlat notijorat tashqilotlariga budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berishi mumkin.

16. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari mazkur Farmondan kelib chiqadigan huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan mablag'larni o'zlarining harajatlar smetasida nazarda tutib borsin.

17. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi:

ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini ta'minlash borasidagi rolini oshirish, bu borada ularning davlat organlari, nodavlat notijorat tashqilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan aloqasini kuchaytirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlasin;

Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda mazkur Farmonning mazmuni va mohiyatini hamda uning amalga oshirilishi bo'yicha keng tushuntirish ishlarini ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog'i orqali yoritilishini ta'minlasin.

18. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

19. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O.B. Murodov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari B.M. Mavlonov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 9-yanvar,  
PF-5618-son

## **7. DASTURNING INFORMATSION-USLUBIY TA'MINOTI**

### **Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar**

1. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. –Guliston, Universitet. 2020.
2. Topildiyev V.R. Ta'lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari–T., 2016. -144 bet.
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy - huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. “Istiqlol” -T.: 2013.
4. Аксенов Д.А. Образовательное право Учебное пособие М. Книгодел 2016
5. Mirziyoyev SH.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
6. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
7. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // Xalq so'zi 15 yanvar 2017 yil. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2018.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. -T.: Adolat, 1995

10. U.Tojihonov, A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi I-II tomlar. -T.: Akademiya, 1998.
11. Z.M.Muqimov. O'zbekiston davlati va huquqi tarihi. -T.: Adolat 2003.
12. U.Tojixonov. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. - T.: Sharq, 2001.
13. Karimov. I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir". Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi, 2010 yil 27 yanvar.
14. Hasanboeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. -T., 1996.
15. Pedagogika. prof. A.Munavvarov tahriri ostida. O'quv qo'llanma. –T: "O'qituvchi", 1996. Karimova O.A. "Huquqiy madaniyat metodikasi" Toshkent TDPU 2001 yil
16. Karimova O.A. "Huquqiy madaniyatning asosiy yo'nalishlari" Toshkent . "O'zbekiston" 1999.
17. Karimova O.A., Davletova M., Akaeva N. "Huquqiy o'qitish metodikasi" (metodik qo'llanma) Toshkent 2001-yil
18. Azizxo'djaev N.N. "Pedagogika va texnologiya pedagogik maxorat " Toshkent, 2003-yil.
19. Tadjixanov U. Saidov A.Huquqiy madaniyat nazariyasi.Toshkent. 1998 y

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mahkamov U.I. Ta'lim oluvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. -T.: FAN, 1995.
2. Ziyomuxammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. "Turon-iqbol nashriyoti", Toshkent, 2006.
3. Maxkamov U. Axloq-odob saboqlari. T. 1994.
4. Ismailova Z.I. Tarbiyaviy ish metodikasi. T. 2003.
5. Saidov A, Tadjixanov U, Odilkoriev X. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
6. Boboev X, X.Odilkoriev X. lar taxriri ostida. Davlat va huquq nazariyasi.. - T.:2000.
7. U.Tadjixanov, Odilqoriyev X , Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. -T., 2001.